talaba olgan bilimini amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini oʻzlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan **baholanadi**.

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga oʻtkazish

JADVALI

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati
Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. A. R.Azamatov, B.Boltayev. Algoritmash va dasturlash asoslari. O`quv qo`llanma. T.:“Cho`lpon”, 2010 y.
2. A. R.Azamatov, B.Boltayev. Algoritmash va dasturlash asoslari. O`quv qo`llanma. T.:“Cho`lpon”, 2013 y.
3. П.Дарахвелидзе, Э.Марков. Программирование в С++ Bulider7. Учебник.Санкт-Петербург, “БХВ-Петербург” 2003 г.
4. Sh.I.Razzoqov, M.J.Yunusova. Dasturlash: Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma. T.: “Ilm Ziyo”, 2011y.
5. M.Ashurov, M.Mirmaxmudov, Sh.Sapaev.Zamonaviy Programmalash asoslari fanidan laboratoriya ishlari.T.: TDPU, 2008 y.
6. Axatov A., Qarshiyev H. C++ tilida programmalash(misollar va masalalar). 2016.SamDU nashri. 140b
7. Страуструп Б. Язык программирования С++. Специальное издание. – М.: Бинам – ПРЕСС, 2006, 1104 с
8. Павловская Т. С++ Программирование на языке высокого уровня. – СПб. : Питер, 2005. -461 с.
9. Мадрахимов Ш., Гайназаров С. С++ тилида программалаш асослари: услубий кулланма – Тошкент: УзМУ 2009 . – 196 б
- 10.Madrahimov Sh. va boshq. С++ tilida programmalash bo'yicha masalalar to'plami. O'quv qo'llanma. - Toshkent: O'ZMU, 2014.-160 b

Qo'shimcha adabiyotlar

1. В.М.Пестиков, А.Н.Маслобоев. Turbo PASCAL 7.0. Изучаем на примерах. Санкт-Петербург.: “БХВ-Петербург”, 2004 г.
2. Фаронов В.В. Программирование на языке высокого уровня С++ Bulider. Учебник. М.: “Питер”, 2003 г.
3. В.Т.Безручко. Практикум по курсу информатики. М.: «Финансы и статистика», 2004 г.
4. Культин Н. С ++ Builderв задачах и примерах. – СПб. : ВХБ, 2005.-336с
5. Nazarov F.M С++ tilida dasturlash asoslari 2017.SamDU nashri. 160 b

Elektron ta'lim resurslari

1. Программирование в С++ Bulider. Учебник. А.Я.Архангелский ([www.ozon.ru /context /detail /id /2705337/](http://www.ozon.ru/context/detail/id/2705337/))
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. <http://www.borlpasc.narod.ru/>.
6. [http:// www.intuit.ru](http://www.intuit.ru)

O'quv materiallari

Ma'ruza matni

Mavzu: Ob'jektga yo'naltirilgan dasturlashning asosiy tushunchalari. Sinf tavsifi. Ob'yektlar. Ob'yektlar sinfi iyerarxiyasi.

Ma'ruza rejasi:

1. Ob'ekli dasturlashning asosiy tushunchalari
2. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlar yaratish
3. Ob'ektga yo'naltirilgan Programmalash asoslari

1. Ob'ekli dasturlashning asosiy tushunchalari

Ob'ektga yo'naltirilgan yondoshuv dasturiy tizimlarni dasturlash tiliga bog'liq bo'lmagan holda yaratish jarayonida modellardan sistematik foydalanishga asoslangan. Har bir model, uning o'zi aks ettirayotgan predmetning barcha xususiyatlarini ifodalay olmaydi, u faqat ba'zi juda muhim belgilarni ifodalaydi. SHunday qilib, model o'zi aks ettirayotgan predmetga nisbatan ancha sodda bo'ladi. Bizga shu narsa muhimki, model endi formal konstruktsiya hisoblanadi: modellarning formalligi esa ular orasida formal bog'lanishlarni aniqlashni va ular orasida formal operatsiyalar bajarishni ta'minlay. Bu ish modellarni ishlab chiqishni va o'rganishni hamda kompyuterda amalga oshirishni osonlashtiradi. Xususan esa, modellarning formal xarakteri yaratilayotgan dasturning formal modelini olishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, ob'ektga yo'naltirilgan yondoshuv quyidagi murakkab muammolarni hal etishda foydalaniladi:

- dasturiy ta'minotning murakkabligini pasaytiradi;
- dasturiy ta'minotning ishonchliligini oshiradi;
- dasturiy ta'minotning alohida komponentalarini modifikatsiya qilishini osonlashtiradi;
- alohida komponentalardan qayta foydalanishni ta'minlaydi.

Ob'ektga yo'naltirilgan yondoshuvning sistemali qo'llanilishi yaxshi tuzilmalangan, ishlatishda barqaror bo'lgan, oson modifikatsiya qilinuvchi dasturiy tizimlarni yaratish imkoniyatini beradi. Aynan ana shu imkoniyatlar dasturchilarni ob'ektga yo'naltirilgan yondoshuvdan foydalanishga juda ham qiziqirmoqda. Ob'ektga yo'naltirilgan yondoshuvli programmalash hozirgi vaqtda eng tez rivojlanayotgan dastur yozish texnologiyasi hisoblanadi. Ob'ektga yo'naltirilgan yondoshuv ikkita qismga bo'linadi:

- ob'ektga yo'naltirilgan dasturlar yaratish;
- ob'ektga yo'naltirilgan tillari.

2. Ob'ektga mo'ljallangan dasturlar yaratish

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlar yaratish, dastur yaratishda ob'ektga yo'naltirilgan modellarni yaratishga asoslangan.

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlar yaratish deganda biz quyidagilarni tushunamiz:

- dasturiy tizimlarni yaratishdagi ob'ektga yo'naltirilgan metodologiyani;
- bu texnologiyani qo'llovchi instrumental vositalarni.

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlar yaratish dasturiy vositalarni yaratishning hayotiy siklining birinchi bosqichidayoq qo'llanilishi mumkin va u dasturlash tiliga bo'liq emas. Yaratish jarayonida ob'ektlar – bu formal konstruksiyalar bo'lib (masalan, burchaklari yoydan tashkil topgan to'rtburchaklar), ular ob'ektlarni aks ettiradi. Ob'ektga yo'naltirilgan yaratish, shunday qilib, ob'ektga yo'naltirilgan metodologiyani (texnologiyani) qo'llashga asoslangan.

3. Ob'ektga mo'ljallangan Programmalash asoslari

Ob'ektga yo'naltirilgan tillari oxirgi vaqtlarda juda ommaviylashgan tillarga kiradi. Bunday tillarga quyidagilar kiradi: Object Paskal, C++ Bulider, C++, Visual C++, Visual Basic, Java va boshqalar. C++ Bulider, C++ eng ko'p tarqalgan ob'ektga yo'naltirilgan Programmalash asoslariga kiradi.

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashda dastur ob'ektlarini va uning xususiyatlarini (atributlarni) va ularni birlashtiruvchi sinflarni tavsiflashga olib kelinadi. SHu jumladan, ob'ektlar ustida operatsiyalar (usullar) ni aniqlashga olib kelinadi.

Atributlar va usullarni tadqiq qilish asosida bazaviy sinflar va ularning hosilalarini yaratish imkoniyati tug'iladi.

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashning yana bir nazariy jihatdan juda muhim va zarur xususiyatlaridan biri hodisalarni ishlash mexanizmi hisoblanadi, ular yordamida ob'ektlar atributlari qiymatlari o'zgartiriladi. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashda avval yaratilgan ob'ektlar kutubxonasi va usullaridan foydalanish hisobiga ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashda ancha mehnat sarfi tejiladi.

Ob'ektlar, sinflar va usullar polimorfizm bo'lishlari mumkin, bu esa dasturiy vositaning qo'lay foydalanishliligi va universalligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. ГрадиБуч. Объектно –ориентированной анализ и проектирование с примерами приложений на C++. Невский диалект, 560 стр, 2001 г.
2. Грехем И. Объектно ориентированные методы. Принципы и практика. Вильямс. 879 стр, 2004 г.
3. Иванова Г.С. Объектно ориентированное программирование. Учебник. МГТУ им Баумана. 320 стр, 2003 г.
4. Страуструп Б. Язык программирования C++, "ДиаСофт", Киев 1993г.

Mavzu: Ob'yecktga yo'naltirilgan dasturlashning tamoyillari. ob'yecktga yo'naltirilgan loyihalash. Inkapsulyatsiyalash. Merosxo'rlik. Polimorfizm.

OYDning asosiy tamoyillari

1. Vorislik
2. Inkapsulyasiya (usullar va xususiyatlarni ob'ekt ichida saqlash-yashirish).
3. Polimorfizm, berilmalarni ishlash funksiyalarining mavjudligi.
4. Abstraksiya. Abstraksiya – bu identifikatorlardan farqli bo'lgan istalgan dasturlash tili ifodasi hisoblanadi.

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashda har bir ob'ekt prinsipial dinamik mohiyatga ega, ya'ni vaqtga bog'liq holda va unga nisbatan tashqi omillar ta'sirida o'zgaradi. Boshqa aytganda, ob'ekt ma'lum bir darajada o'zini tutishiga ega. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashda abstraksiya OYD ning modeli hisoblanadi. Sinf umumiy xususiyatlar va hulq-atvoriga ega ob'ektlarni birlashtiradi. Bitta sinfga mansub ob'ektlar bir xil xususiyatlarga ega bo'lib, bir xil xatti – harakat namoyon etadi.

Sinflar shablon (qolip)ga o'xshaydi: ular ob'ektlarning ekzemplarlarini tayyorlash uchun qo'llaniladi. Belgilar – sinfning tashqaridan ko'rinib turgan xususiyatlari. Ob'ekt ichki o'zgaruchiga bevosita kirishni taqdim etganda yoki usul yordamida qiymatni qaytargandagina, o'z belgilarini namoyon qilishi mumkin.

Hulk-atvor - xabarga yoki holatning o'zgarishiga javoban ob'ekt tomonidan bajariladigan xatti-xarakatlar. U ob'ekt nima qilayotganini bildiradi.

Bir ob'ekt ikkinchi ob'ekt ustida xatti-harakatlar bajarib, uning hulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. "Xatti-harakat" atamasi o'rniga "usulni chaqirish", "funksiyasini chaqirish" yoki "xabarni uzatish" atamalari qo'llaniladi. Muhimi bu atamalarning qaysi biri qo'llanilayotganida emas, albatta, muhimi bu xatti-harakatlar ob'ektlar hulq-atvorini namoyon qilishga etishidadir.

Ob'ektlar o'rtasida aloqa ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashning muhim tarkibiy qismidir. Ob'ektlar o'zaro aloqasining ikkita asosiy usuli mavjuddir.

Birinchi usul – ob'ektlar biri ikkinchisidan mustaqil ravishda mavjud bo'ladi. Agar alohida ob'ektlarga o'zaro aloqa kerak bo'lib qolsa, ular bir-birlariga xabar jo'natadi

Ob'ektlar bir-birlari bilan xabarlar yordamida aloqa qiladi. Xabar olgan ob'ekt ma'lum xatti-xarakatlarni bajaradi.

Xabar uzatish bu ob'ekt xolatini o'zgartirish maqsadida ululni chaqirib olish yoki xulq-atvor modellaridan birini qo'llashning o'zginasidir.

Ikkinchi usul – ob'ekt tarkibida boshqa ob'ektlar bo'lishi mumkin. Xuddi OYD da bo'lganidek, dastur ob'ektlardan tashkil topganidek, ob'ektlar ham, o'z navbatida, agregatsiya yordamida boshqa ob'ektlardan jamlanishi mumkin. Ushbu ob'ektlarning har bittasida usul va belgilarga ega bo'lgan interfeys mavjud bo'ladi.

Xabar – ob’ektga yo‘naltirilgan yondoshuvning muhim tushunchasi. Xabarlar mexanizmi tufayli ob’ektlar mustaqilligini saqlab qolishi mumkin. Boshqa biror ob’ektga xabar jo‘natayotgan ob’ekt uchun xabar olgan ob’ekt talabdagi xatti-xarakatni qanday bajarishi unchalik muhim emas. Unga xatti-harakat bajarilganligining o‘zi muhimdir.

Ma’lumki, C++ Bulider dasturiy vositasi Object Pascal ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash tilini ishlatadi. Ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash (OYD) – bu dastur ishlab chiqish usulikasi bo‘lib, uning asosida real dunyo ob’ekti va uning holatini ifodalovchi ma’lum strukturaga ega ob’ekt tushunchasi yotadi. Object Pascalda ob’ekt modelining qo‘llanilish natijasi bu komponentalarni qo‘llash va yaratishdir. Object Pascal ob’ekt modelining asosi sinf va ob’ekt tushunchalaridir.

Sinf

Sinf - bu Object Pascalda maxsus turlar bo‘lib, o‘zida maydon, usullar va xossalarni mujassamlashtiradi.

Pascal sinfik tili dasturchiga o‘zining murakkab ma’lumotlar turlari - yozuvlar (records) kiritishga imkon beradi. Ob’ektli dasturlash konsepsiyasiga asoslangan C++ Bulider tili, sinflar kiritishga imkon beradi. Sinf murakkab struktura bo‘lib, ma’lumotlar ta’riflaridan tashqari, protsedura va funksiyalar ta’riflarini o‘z ichiga oladi.

Sodda sinf ta’rifiga misol:

```
TPerson = class
private
fname: string[15]; faddress: string[35];
public
procedure Show;
end;
```

Sinf ma’lumotlari maydonlar, protsedura va funksiyalar usullar deb ataladi.

Keltirilgan misolda TPerson - sinf nomi, fname va faddress – maydonlar nomlari, show - usul nomi.

Maydon - bu sinfga birlashtirilgan ma’lumotlardir. Sinfga qarashli maydonlar oddiy yozuv maydoni kabi bo‘lib, ularning farqi har xil turda bo‘lishidir. Masalan,

```
Type
TchildClass=Class
    Fore: Integer;
    Ftwo: String;
    Fthree: Tobject;
End;
```

Maydonlarga murojaat qilish sinf xossalari va usullari yordamida amalga oshiriladi. Maydonga murojaat qilish uchun oldin sinf nomi yozilib, keyin ajratuvchi nuqta qo‘yilib maydon nomi yoziladi. Masalan,

```

Var
  MyObject: TchildClass;
  Begin
MyObject.Fone:=16;
MyObject.Ftwo:='qator qiymati';
  End;

```

Maydon nomi unga mos xossa nomining birinchi harfi “F” bo‘lishi bilan farqlanadi.

C++ Bulider da qabul qilingan kelishuv bo‘yicha maydonlar nomlari f (field — maydon so‘zidan) harfidan boshlanishi lozim.

Sinf ta’rifi dasturda turlar ta’rifi bulimiga joylashtiriladi (type).

Usullar. Sifga birlashtirilgan protsedura va funksiyalarga usullar deyiladi.

Masalan:

```

Type
  TchildClass=Class
    Fore: Integer;
    Ftwo: String;
    Fthree: Tobject;
    Function FirstFunc(x:Real):Real;
    Procedure SecondProc;
  End;

```

Sinf usullari (sinf ta’rifiga kiritilgan protsedura va funksiyalar) sinf ob’ektlari us-tida amal bajaradi. Usul bajarilishi uchun ob’ekt nomi va nuqtadan sung usul nomi ko‘rsatilishi lozim. Masalan:

```
professor. Show;
```

Sinf usuli ta’riflanganda sinf nomi va usul nomi ko‘rsatiladi. Masalan:

```
// TPerson sinfi Show usuli
```

```
procedure TPerson.Show;
```

```
begin
```

```
Write ( 'Nom:' + fname + #13+ 'Adres:' + faddress );
```

```
end;
```

Usul tanasida ob’ekt maydonlariga murojaat kilinganda ob’ekt nomi ko‘rsatilmaydi.

Usulga murojaat qilish dasturda uning nomini ko‘rsatish bilan bajariladi.

Masalan:

```

Var
  MyObject: TchildClass;
y: Real;

```

```

    Begin
    .....
    MyObject. SecondProc;
    y:=MyObject.FirstFunc(3.14);
    End;

```

Sinfda aniqlangan usullarni statistik, virtual (Virtual), dinamik (Dynamic) yoki abstrakt turlarga bo‘lish mumkin. Agar usul turi ko‘rsatilmasa, u avtomatik ravishda statistik turni oladi. Masalan:

```

Type
    TBase=Class
        Procedure MyJoy; Virtual;
    End;
    Tdescedant=Class(TBase)
        Procedure MyJoy; Override;
    End;
Var
    FirstObject: TBase;
        SecondObject: TDescedant;
Begin
    .....
    FirstObject.MyJoy;
    SecondObject.MyJoy;
    .....
End;

```

Sinf davomchisida ishlatiladigan usul uchun Override kalit so‘zi ko‘rsatilishi lozim.

Agar Tbase sinfida MyJoy usuli dinamik bo‘lsa, Virtual so‘zi Dynamic so‘ziga almashtiriladi. Ularning asosiy farqi murojaat qilinganda Virtual usul vaqt jihatdan ancha effektiv bo‘lsa, Dynamic usul esa operativ xotiradan ratsional foydalanish imkonini beradi.

Ob’ekt

Ob’ekt - bu sinfning real nusxasi bo‘lib, ma’lumotlar va funksiyalardan tashkil topadi. U dasturning Var bo‘limida e’lon qilinadi.

Ob’ektlar sinflar vakillari sifatida dasturda var bo‘limida ta’riflanadi, masalan:

var

student: TPerson; professor: TPerson;

C++ Bulider da ob'ekt - bu dinamik strukturadir. O'zgaruvchi-ob'ekt ma'lumotlarni emas, ob'ekt ma'lumotlariga ilovani o'z ichiga oladi. SHuning uchun dasturchi bu ma'lumotlarga xotiradan joy ajratishni ko'zda tutishi lozim.

Joy ajratish sinf maxsus usuli - konstruktor yordamida amalga oshiriladi. Bu usul odatda Create (yaratish) nomiga ega bo'ladi. Sinf ta'rifida konstruktor uchun procedure so'zi o'rniga constructor so'zi ishlatiladi.

Quyida tarkibida konstruktor qatnashgan TPerson sinfi ta'rifi keltirilgan:

```
TPerson = class private
fname: string [ 15 ];
faddress: string[35];
constructor Create; // konstruktor
public
procedure show; // usul
end;
```

Xotiradan joy ajratish konstruktor sinfga qo'llash natijasini qiymat sifatida berish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun

```
professor := TPerson.Create;
```

instruksiyasi bajarilishi natijasida professor ob'ektga xotiradan joy ajratiladi. Xotiradan joy ajratishdan tashqari konstruktor, odatda ob'ekt maydonlariga boshlang'ich qiymatlar berish ya'ni ob'ekt initsializatsiyasi vazifasini ham bajaradi. Quyida TPerson ob'ekti uchun konstruktor misoli keltirilgan:

```
constructor TPerson.Create;
begin
fname := "";
faddress := "";
end;
```

Ob'ekt maydoniga murojaat qilish uchun ob'ekt nomi va nuqtadan so'ng maydon nomi kursatiladi. Masalan:

```
professor.fname
```

Ob'ektga ajratilgan xotira qismini bo'shatish uchun maxsus usul destruktur Free. ishlatiladi. Masalan, professor.Free;

Inkapsulyasiya va ob'ekt xossalari

Inkapsulyasiya - bu sinfga birlashtirilgan qayta ishlash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va qism dasturlardir. Sinf maydonlari ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'llaniladigan protsedura va funksiyalarga usullar deyiladi. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashda sinf maydonlariga to'g'ridan to'g'ri murojaat ruxsat etilmaydi. SHu sabab Object Pascalda "xossa" (svoystva) deb ataluvchi maxsus konstruksiya qaraladi. U mos usulni chaqirish yordamida maydondan o'qish yoki yozishni amalga oshiradi.

Misol tariqasida C++ Buliderda aniqlangan standart sinflarni keltirish mumkin.

TEdit - formaga qatorlarni kiritish ishlarini boshqarish va tashkil qilishni bajaradi.

TLabel - formaga belgilarni kiritish ishlarini boshqarish va tashkil qilishni bajaradi.

TButton - formaga joylashtirilgan tugmacha yordamida dasturchi tomonidan kiritilgan dastur kodlarining bajarilishini ta'minlaydi.

Sinf nomlarining bosh harfi "T" harfi bilan boshlanish qabul qilingan.

Inkapsulyasiya deyilganda ob'ekt maydonlariga to'g'ridan to'g'ri emas, faqat sinf usullari orqali murojaat qilishga aytiladi.

C++ Bulider tilida ob'ekt maydonlariga murojaat ob'ekt xossalari orqali amalga oshiriladi. Ob'ekt xossasiga murojaat kilish uchun ikki usuldan foydalaniladi. Xossa tashqaridan sinf maydonini anglatsa, ayni holda u maydondan foydalanish imkonini beruvchi boshqarish mexanizmdir. Xossa qandaydir sinf maydonlari bilan bog'liq bo'lgan o'qishda va yozishda ishlatilishi kerak bo'lgan sinf usullarini ko'rsatadi. O'qish uchun ishlatiladigan funksiya nomi Get bo'lib, unga mos xossa nomi qo'shib yoziladi. YOzish uchun ishlatiladigan usul bitta parametrli Set nomi qism dastur bo'lib, uning nomiga ham mos xossa nomi qo'shib yoziladi. O'qish va yozish usullari va uning parametri ham bir xil xossaga ega bo'lishi lozim. Xossani e'lon qilish uchun Property, Read va Write so'zlari ishlatiladi. Read va Write usul nomlari bo'lib, ular mos ravishda o'qish va yozish uchun mo'ljallangan. Masalan,

Type

```
TStudent=Class
```

```
    Fage: Integer;
```

```
    Function GetAge: Integer;
```

```
    Procedure GetAge(Value:Integer);
```

```
    Property Age: Integer Read GetAge Write SetAge;
```

```
End;
```

Bu erda Age - FAge maydoni, hamda GetAge va SetAge usullari bilan bog'liq xossa bo'lib, Fage maydonidan o'qish yoki yozish uchun xizmat qiladi.

Dastur matnida xossaga murojaat qilish usul va maydon uchun qanday bo'lsa xuddi shunday ob'ekt nomi, nuqta va xossa nomi yozilishi bilan ishlatiladi. Masalan,

Var

```
GoodStudent: TStudent;
```

```
HisAge: Integer;
```

Begin

```
    GoodStudent:=Tstudent.Create;
```

```
    GoodStudent.Age:=19;
```

```

.....
HisAge:=GoodStudent.Age;
.....
GoodStudent.Free;
    End;

```

Xossa qiymatini oʻrnatish - xossani yozish (write) usuli, xossa qiymatini olish - xossani oʻqish (read) usuli deb ataladi.

Sinf taʼrifida xossa nomidan oldin property (xossa) soʻzi yoziladi. Xossa nomidan soʻng uning turi koʻrsatiladi, read soʻzidan soʻng xossani oʻqishni taʼminlovchi usul, write - soʻzidan soʻng xossani yozishni taʼminlovchi usul nomi yoziladi.

Quyida ikki Name va Address xossalarini oʻz ichiga oluvchi TPerson sinfi taʼrifi keltirilgan:

```

type
TName = string[15]; TAddress = string[35];
TPerson = class
private
FName: TName;
FAddress: TAddress;
Constructor Create(Name:Tname);
Procedure Show;
Function GetName: TName;
Function GetAddress: TAddress;
Procedure SetAddress(NewAddress:TAddress);
public
Property Name: Tname
read GetName;
Property Address: TAddress
read GetAddress
write SetAddress; end;

```

Dasturda student obʼektining, Address xossasiga qiymat berishini quyidagicha yozish mumkin

```

student.Address := 'Toshkent, YUnusobod 21, kv.3';

```

Vorislik - har qanday sinf boshqa sinf asosida yaratilishi mumkinligini bildiradi.

Bosh sinfdan yangi bir sinf yaratish quyidagi dastur kodi yordamida bajariladi.

```

TnewClass=Class(TotolClass);

```


Bu erda TotalClass -bosh sinf, TnewClass - esa yangi sinf nomlari. Yangi sinf bosh sinfning barcha xossa va usullarini qabul qiladi.

Vorislik bu mavjud sinflarga yangi maydonlar, xossalar va usullar qo'shish yordamida yangi sinflar hosil qilish imkoniyatini beradi. Yangi hosil qilingan avlod sinf asos ya'ni ajdod sinf xossalari va usullariga vorislik qiladi.

Avlod sinf ta'rifida ajdod sinf nomi ko'rsatiladi. Misol uchun TEmployee (xodim) sinfi TPerson sinfidan FDepartment (bo'lim) maydonini qo'shish yordamida hosil qilinishi mumkin. TEmployee sinfining ta'rifi quyidagicha bo'ladi:

```
TEmployee = class(TPerson)
```

```
FDepartment: integer;
```

```
constructor Create(Name:TName; Dep:integer);
```

```
end;
```

Bu misolda TEmployee sinfi TPerson sinfining vorisidir.

TEmployee o'z konstruktoriga ega bo'lishi lozim. TEmployee sinfi konstruktori quyidagicha berilishi mumkin:

```
constructor TEmployee.Create(Name:Tname;Dep:integer);
```

```
begin
```

```
inherited Create(Name);
```

```
FDepartment:=Dep;
```

```
end;
```

Bu misolda inherited direktivasi bilan ajdod sinf konstruktori chaqiriladi va avlod sinf maydoniga qiymat beriladi

protected i private direktivalari

Sinf elementlariga murojaatni boshqarish uchun protected (himoyalangan) va private (xususiy), direktivalaridan foydalaniladi.

Himoyalangan, ya'ni protected sinf elementlariga sinfdan tashqari faqat voris sinflarda murojaat qilish mumkin. Odatda protected seksiyasiga sinf usullari ta'rifi joylashtiriladi.

YOpiq, ya'ni private sinf elementlari faqat modul ichida murojaat qilish mumkin. Odatda bu seksiyaga sinf maydonlari ta'riflari joylash-tiriladi.

Quyida murojaatni boshqarish direktivalaridan foydalanilgan TPerson sinfi ta'rifi keltirilgan.

```
TPerson = class private
```

```
FName: TName;
```

```
FAddress: TAddress;
```

```
protected
```

```
Constructor Create(Name:TName);
```

```
Function GetName: TName;
```

```
Function GetAddress: TAddress;
```

```
Procedure SetAddress(NewAddress:TAddress);
```

```
Property Name: TName
```

```
read GetName;
```

```
Property Address: TAddress
```

```
read GetAddress  
write SetAddress;  
end;
```

Polimorfizm - bu har xil sinfrga kiruvchi usular uchun bir xil nomlarni ishlatish imkoniyatini yaratishdir. Polimorfizm prinsipi shundan iboratki sinf ob'ektiga mos bo'lgan biror ishning bajarilishida bir xil usulga murojaat qilish mumkinligini ta'minlab beradi. Misol uchun biz yangi sinf tashkil qilishga qaror qildik. Bu sinf bosh sinfdan farqi uning usulida algoritm o'zgartirilgan deylik. Natijada biz bir xil nomli usulga ega bo'lgan ikkita sinfni tashkil qilgan bo'lamiz. U holda tashkil qilingan yangi sinf "polimorfizm" xossasiga ega bo'ladi. Sinflar dasturning Type bo'limida umumiy holda quyidagicha e'lon qilinadi.

Type

<yangi sinf nomi>=Class(<bosh sinf nomi>)

Public

<umumiy bo'lgan elementlar e'lon qilinadi>

Published

<inspektor ob'ektiga ta'luqli bo'lgan elementlarni e'lon qilish>

Projected

<yangi qaram sinfga ta'luqli elementlarni e'lon qilish>

Private

<faqat modulga ta'luqli elementlarni e'lon qilish>

End;

Har bir bo'lim ichida maydonlar, usullar, xossalar va hodisalarni e'lon qilish mumkin.

Polimorfizm - bu har xil sinflarga kiruvchi usullar uchun bir xil nomlardan foydalanish imkoniyatidir.

Uchta sinf ta'rifi berilgan bo'lib bulardan biri qolgan ikki sinf uchun asos sinf bo'lsin:

type

fname: string;

constructor Create(name:string);

function info: string;

virtual;

end;

fgr:integer;

constructor Create(name:string;gr:integer);

function info: string; override; end;

fdep:string;

constructor Create(name:string;dep:string);

```
function info: string;  
override;  
end;
```

Bu sinflarning har birida info usuli ta'riflangan. Asos sinfda virtual direktivasi yordamida info usuli virtual deb e'lon qilingan. Usulning virtual deb e'lon qilinishi avlod sinfda bu usulni shaxsiy usul bilan almashtirishga imkon beradi. Hosil qilingan sinfda virtual usulni almashtiruvchi usul override direktivasi bilan ta'riflanadi. Quyida har bir avlod sinfda info usulining ta'rifi keltirilgan.

```
function TPerson.info:string;  
begin  
result := " "  
end;  
function TStud.info:string;  
begin  
result := fname + ' gp.' + IntToStr(fgr);  
end;  
function TProf.info:string;  
begin  
result := fname + ' kaf.' + fdep;  
end;
```

Ikkala sinf bitta asos sinfdan hosil qilingani uchun talabalar va domlalar ro'yxatini quyidagicha ta'riflash mumkin:

```
list: array[1..SZL] of TPerson;
```

Talabalar va domlalar ro'yxatini info usulini massiv elementlariga qo'llab chiqarish mumkin. Masalan:

```
st := " "  
for i:=1 to SZL do  
if list[i] o NIL  
then st := st + list[i].Info+ #13;  
writeln (st);
```

Adabiyotlar ro'yxati

1. ГрадиБуч. Объектно –ориентированной анализ и проектирование с примерами приложений на C++. Невский диалект, 560 стр, 2001 г.
2. Грехем И. Объектно ориентированные методы. Принципы и практика. Вильямс. 879 стр, 2004 г.
3. Иванова Г.С. Объектно ориентированное программирование. Учебник. МГТУ им Баумана. 320 стр, 2003 г.
4. Страуструп Б. Язык программирования C++, "ДиаСофт", Киев 1993г.

Mavzu: C++ Bulider dasturlash tilining ishchi muhiti, undagi oynalar: Ob'ektlarning daraxtsimon ko'rinish oynasi, ob'ektlar inspektori oynasi, kod brauzeri oynasi, asosiy oyna, forma oynasi, dastur kodi oynasi, u o'rnatilishi zarur bo'lgan kompyuterga qo'yiladigan texnik talablar

C++ Bulider -Windows operatsion tizimida dastur yaratishga yo'naltirilgan dasturlash muxitidir. C++ Buliderda dastur tuzish zamonaviy vizual loyihalash texnologiyalariga asoslangan bo'lib, unda dasturlashning ob'ektga yo'naltirilgan g'oyasi mujassamlashgan. C++ Buliderda dastur Turbo Pascal dasturlash tilining rivoji bo'lgan Object Pascal tilida yoziladi.

C++ Bulider -bir necha muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiyalar kombinatsiyasini o'zida mujassam etgan:

- yuqori darajadagi mashinali kodda tuzilgan komplyator;
- ob'ektga yo'naltirilgan komponentalar modellari;
- dastur ilovalarini vizual tuzish;
- ma'lumotlar bazasini tuzish uchun yuqori masshtabli vosita.

C++ Bulider - Windows muhitida ishlaydigan dastur tuzish uchun qulay bo'lgan vosita bo'lib, kompyuterda dastur yaratish ishlarini avtomatlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi va dastur tuzuvchi mehnatini engillashtiradi. Delhida dastur zamonaviy vizual loyihalash texnologiyasi asosida ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash nazariyasini hisobga olgan holda tuziladi. C++ Bulider sistemasi Turbo Pascal 7.0. tilining rivoji bo'lgan ob'ektga yo'naltirilgan Object Pascal dasturlash tilini ishlatadi.

Ma'lumki dastur tuzish sermashaqqat jarayon, lekin C++ Bulider tizimi bu ishni sezilarli darajada soddalashtiradi va masala turiga qarab dastur tuzuvchi ishining 50-80%ni tizimgayuklaydi. C++ Bulider tizimi dasturni loyihalash va yaratish vaqtini kamaytiradi, hamda Windows muhitida ishlovchi dastur ilovalarini tuzish jarayonini osonlashtiradi.

C++ Bulider o'zida bir qancha zamonaviy ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari dasturlash texnologiyalarini ham ma'lumotlar bazasini yaratishda ishlata-di.


C++ Bulider tizimi oynasi va uning elementlari

C++ Bulider tizimida ishni boshlash uchun uni dasturlar menyusidan topib ishga tushiramiz.

Pusk=>Программы=>Borland C++ Bulider=>C++ Bulider

C++ Bulider oynasi ko'rinishi odatdagidan ancha boshqacharoq bo'lib, u o'z ichiga beshta oynani oladi:

- boshoyna - C++ Bulider Project1;
- forma oynasi - Form1;
- ob'ekt xossalarini taxrirlash oynasi-Object Inspector;
- ob'ektlar ro'yxatini ko'rish oynasi - Object tree View;
- dastur kodlarini tahrirlash oynasi - Unit.pas.



Bosh oyna ekranning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, uning birinchi qatorida sarlovha, ya’ni proektning nomi joylashgan. Ikkinchi qatorda buyruqlar menyusi gorizantal ko‘rinishda joylashgan. Keyingi qatorning chap tarafida uskunalar paneli va o‘ng tarafida komponentalar politrasi joylashgan.

Buyruqlar menyusi quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

- File (fayl) bo‘limi fayllar ustida ish bajarish uchun kerakli buyruqlarni o‘z ichiga olgan;

- Edit (taxrir) bo‘limi fayl ichidagi ma’lumotlarni taxrirlash uchun kerakli buyruqlarni o‘z ichiga olgan;

- Seerch

- View

- Compile

- Runformaniishgatushirish.

- Options

- Tolsservisxizmatidanfoydalanish.

- Help yordam chaqirish.

Forma oynasida ilovalar yaratiladi. Object Inspector oynasi ob’ekt xossalari taxrirlash uchun xizmat qiladi. Ob’ekt xossalari bu - ob’ektga berilgan xarakteristika bo‘lib, uning ko‘rinish, joylashishi va holatidir. Masalan, Width va Height xossalari forma o‘lchamini, top va Lift esa formaning ekrandagi holati, Caption - sarlovha matnini aniqlaydi.

Vizual dasturlash texnologiyasida ob’ekt deganda muloqat oynasi va boshqarish elementlari (kiritish va chiqarish maydoni, buyruq tugmalari, pereklyuchatellar va boshqa) tushuniladi.

C++ Buliderda dasturlash ikkita o‘zaro ta’sir etuvchi bir-biri bilan bog‘liq jarayon asosida tashkil qilinadi:

- dasturni vizual loyihalash jarayoni;
- dastur kodlarini kiritish (yozish) jarayoni.

Kodlarni yozish uchun maxsus kod oynasi mavjud bo‘lib, u dastur matnini kiritish va taxrirlash uchun mo‘ljallangandir. Bu kodlarni yozish oynasida dasturlash Pascal tilining rivoji bo‘lgan va kengaytirilgan Object Pascal tilida tuziladi.

Kodlarni yozish oynasi boshlanishda o‘z ichiga hali bo‘sh formani akslantiruvchi dastur matnini yozib chiqaradi. Dastur loyihasini ishlashi mobaynida dasturchi kerakli dastur operatorlarini kiritib, formani loyiha bo‘yicha akslantiradi. C++ Buliderda dasturlash forma oynasini tashkil etishdan boshlanadi.

Oddiy dastur ilovasini yaratish ketma-ket File=> New=> Applisation buyrug‘ini berish bilan boshlanadi. Bu buyruqni berishdan oldin ikkita asosiy ishni bajarish lozim:

- papka tashkil etish;
- tizimni to‘g‘rilash.

Papka tuzing, masalan, **My_C++** Buliderda nomli. **My_C++** Bulider papkasi ichida yana o‘z dasturnigizni saqlash uchun papka ochish, masalan Pgm_1.

C++ Bulider muhitining standart nastroykasiga o‘zgartirish kiritish uchun Tols=>Environment Options menyu buyrug‘ini berish va muloqat darchasidan krakli o‘zgarishlarni bajarish lozim.

C++ Bulider dasturlash muhitida ishlash jarayonida quyidagi kengaytmali fayllar ishlatiladi:

- loyiha fayli, kengaytmasi **.dpr**;
- paskal moduli fayli, kengaytmasi **.pas**;
- komponentalar joylashgan fayl, kengaytmasi **.dcu**;
- formalar joylashgan fayl, kengaytmasi **.dfm**;
- ma’lumotlar bazasi fayli, kengaytmasi **.dbf**.

Tayyorlanadigan C++ Bulider dastur uchta asosiy etapdan o‘tadi:

- kompilyasiya;
- komponovka;
- bajarish.

Kompilyasiya etapida tayyorlangan dastur matni Object Pascal tiliga o‘tkaziladi. Kompanovka etapida esa kerakli qo‘shimcha yordamchi dasturlar va ostdasturlar unga birlashtiriladi. F9 tugmasini bosish bilan Save UnitAs dialog oynasi paydo bo‘ladi va sizdan Unit.pas moduli uchun fayl nomini va joylashadigan papkani ko‘rsatishingizni so‘raydi. Agar joy ko‘rsatilmasa C++ Bulider avtomatik ravishda dasturnigizni Bin papkasiga joylashtiradi. YAxshisi siz bu papkani o‘z ishchi papkangiz nomiga almashtiring, masalan My_Delph. Dastur kompilyasiya qilinishi paytida C++ Bulider sistemasi pas, dfm va dcu kengaytmali mod-

ullar tuzadi. .pas kengaytmali fayl kodlarni yozish oynasida kiritilgan dastur matnini, .dfm forma oynasi tashkil etuvchilarini, .dcu kengaytmali fayl esa .pas va .dfm kengaytmali fayllarning birgalikdagi mashina kodiga o'tkazilgan variantini saqlaydi. Bu .dcu kengaytmali fayl komplyator tamonidan tashkil qilinadi va yagona ishchi (bajariluvchi) .exe kengaytmali fayl tashkil qilishga baza yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. ГрадиБуч. Объектно –ориентированной анализ и проектирование с примерами приложений на C++. Невский диалект, 560 стр, 2001 г.
2. Грехем И. Объектно ориентированные методы. Принципы и практика. Вильямс. 879 стр, 2004 г.
3. Иванова Г.С. Объектно ориентированное программирование. Учебник. МГТУ им Баумана. 320 стр, 2003 г.
4. Страуструп Б. Язык программирования C++, "ДиаСофт", Киев 1993г.

Mavzu: Komponentlar palitrasi. Palitra bo'limlari va ayrim komponentlar xossalari bilan tanishish. Stanford bo'limi. Frame, MainMenu, PopupMenu, Label, Edit, Button, Memo, Panel komponentlar xossalari.

Komponentlar palitrasi bu dasturni boshqarish uchun maxsus tugmachalar bo'lib uni formaga joylashtirishdan oldin bosh oynadan kerakli komponentalar palitrasi tanlanadi. C++ Bulider 6 dasturlash muhitida Standart, Additional, DataAccess, DataControls, Diologs, System kabi komponentlar palitrasi bo'limlari mavjud. Masalan, Standart (Standart) komponentalar palitrasida quyidagi piktogrammalar (tugmachalar) majmuasi mavjud:



MainMenu - dastur bosh menyusi. Komponenta murakkab ierarxik strukturali menyu yaratish uchun xizmat qiladi.

PopupMenu - yordamchi yoki lokal menyusi. Bu menyu oynada sichqoncha o'ng tugmasini bosish bilan chiqadi.

Label - metka (belgi). Bu komponenta forma oynasiga uncha uzun bo'lmagan bir qatorli yozuvni chiqarishda ishlatiladi va uning piktogrammasi panelda "A" ko'rinishda berilgan.

Edit - kiritish qatori. Forma oynasida matnli qator kiritish va taxrirlashda ishlatiladi.

Memo - ko'pqatorli matn muxarriri. Kupqatorli matnlarni kiritish yoki chiqarishda ishlatiladi.

Button - buyruq tugmasi (Obrabotchik sobitiya OnClick). Bu komponenta dasturchi tamonidan berilgan bir necha buyruqlarni bajarishda ishlatiladi.

CheckBox - bog'liq bo'lmagan tanlash tugmasi (pereklyuchatel). Dasturda bu komponenta asosiy mantiqiy xossasi (Checked) o'zgartiriladi.

RadioButton - bog'liq bo'lgan tanlash tugmasi (pereklyuchatel). Yangi tanlash tugmasi bosilganda, oldin tanlangan tugma avtomatik ravishda ozod etadi.

ListBox - ro'yxatdan tanlash. Ro'yxat variantlarini taqdim etadi va tanlash imkonini yaratadi.

ComboBox – kiritish qatoriga ega (kombinirovanny) ro'yxatdan tanlash. Ro'yxatdan kombinatsiya qilib tanlash

ScrollBar - yo'lchali boshqarish. Windows oynasi chetlarida gorizontal yoki vertikal yo'lcha tashkil etadi.

GroupBox - elementlar guruhi. Ma'no bo'yicha bir necha bog'lik komponentalarni gruhlashda ishlatiladi.

RadioGroup - bog'liq guruhlangan tanlash tugmalari (o'chirib yoquvchi tugmalar). Bir necha bog'liq tanlash tugmalari xossalari saqlaydi.

Panel - panel. Bu komponenta, xuddi GroupBoxga o‘xshab bir necha komponentalarni birlashtirish uchun xizmat qiladi.

Actionlist - ta’sir qilish ro‘yxatlari. Foydalanuvchi dasturga markazlashgan holda ta’sir qilishi uchun ishlatiladi.

Label, Edit, Memo matn komponentlari va Button tugmachasi bilan ishlash texnologiyasi

Label belgisi. Belgi tushuntirishlar, nomlar, mavzular va boshqa har xil turdagi matnli ma’lumotlarni ekranga joylashtirish uchun ishlatiladi. Belgi uchun **Caption** asosiy xossalardan biri bo‘lib, unda ekranga chiqariladigan matn joylashadi.

Matnni ekranga joylash uchun C++ Buliderning **Standart** palitrasidan (uskunalar panelidan) “A” piktogrammasi belgilanib forma ustiga kelinadi va sichqoncha tugmachasini bosgan holda matn joylashtirilishi lozim bo‘lgan joy ajratiladi. Natijada **Label1** matn maydoni hosil qilinadi va **Caption** xossasiga kirilib kerakli matn teriladi.

Matnga ishlov berish uchun (masalan, kattalashtirish yoki kichiklaytirish; kursiv yoki qalin qilish va boshqa) ya’ni unga o‘zgartirish kiritish uchun kerakli xossa tanlanib ular o‘zgartiriladi. Maslan, kiritilgan matnni kattalashtirish yoki kichirtish uchun oldin matn maydoni ajratilib, keyin **Font** xossasiga kiriladi va muloqot darchasidan shrift, uning o‘lchami va rangi tanlanib Ok tugmasi bosiladi.

Label komponentasi nafaqat ma’lumotlarni ekranga joylash-tirish uchun xizmat qiladi, balki dastur natijalarini chiqarishda ham ishlatish mumkin. Buning uchun dasturda **Label5.caption:='Dastur natijasi'**; buyrug‘i berilishi kerak. Misol, **Label5.caption:='Echim='+s**; bu erda **s:String** o‘zgaruvchisi.

Edit kiritish qatori. Edit kiritish qatori matnni bir qatordan kiritish va uni tahrirlash uchun ishlatiladi.

Matn kiritish qatorini ekranga joylash uchun C++ Buliderning **Standart** palitrası (uskunalar paneli) dan “ab” piktogrammasi belgilanib forma ustiga kelinadi va sichqoncha tugmachasini bosgan holda matn kiritilishi lozim bo‘lgan joy ajratiladi. Natijada **Edit1** matn kiritish maydoni hosil qilinadi. Matnni kiritish dastur ishchi holatiga o‘tilganda bajariladi.

Matn qatoriga kiritilgan ma’lumot faqat matn, ya’ni String (qator) bo‘lib hisoblanadi. Edit kiritish qatorida kiritilgan ma’lumotni dasturda o‘qib va uni raqamga o‘tkazish uchun ko‘p hollarda Val funksiyasidan foydalaniladi. Bu funksiya Turbo Paskalda quyilagicha yoziladi. **Val(Edit1.Text,a,cod)** - bu erda a: Real; - o‘zgaruvchisi bo‘lib, Edit1.Text maydonidagi ma’lumotni raqam qilib o‘zlashtiradi. **cod: Integer**; deb e’lon qilinadi.

Memo matn chiqarish qatori. Memo matnlarni bir necha qator qilib chiqarish uchun ishlatiladi.

Memo matn chiqarish qatorini ekranga joylash uchun C++ Buliderning **Standart** palitrası (uskunalar paneli) dan “ab” piktogrammasi yonidagi Memo tugmasi belgilanib forma ustiga kelinadi va sichqoncha tugmachasini bosgan holda matn chiqarilishi lozim bo‘lgan joy ajratiladi. Natijada **Memo1** matn chiqarish maydoni hosil qilinadi. Bu matn chiqarish maydoni dasturda natijalarni chiqarishda

qo‘l keladi. Natijani chiqoishda u dastur ichida quyidagicha ishlatiladi.

```
Memo1.Lines.add('Echim='+S);
```

Memo maydonini tozalash esa natijani chiqarishdan oldin modulda **Memo1.Clear;** buyrug‘ini berish bilan amalga oshiriladi.

Button tugmachasi. Button tugmachasi bosilishi natijasida kutilishi lozim bo‘lgan jarayonlar (masalan, hisoblashlar yoki bajarilishi lozim bo‘lgan operatsiyalar) bajarilishga tushiriladi.

Button tugmachasini ekranga joylash uchun C++ Buliderning **Standart** palitrasi (uskunalar paneli) dan “**Ok**” piktogrammasi belgilanib forma ustiga kelinadi va sichqoncha tugmachasini bosgan holda tugmacha qo‘yilishi lozim bo‘lgan joy ajratiladi. Natijada **Bottom1** tugmachasi hosil qilinadi. Tugmacha nomini o‘zgartirish **Caption** xosasiga kirilib o‘zgartiriladi.

Dasturdagi hisoblash jarayonlari, kiritish va chiqarish operatsiyalari hosil qilingan tugmachani ikki marta tez-tez bosish bilan “sobitiyani qiyta ishlash” darchasiga o‘tilib, u yerdan modul ichiga kerakli operatorlarni yozish bilan amalga oshiriladi.


Adabiyotlar ro‘yxati

1. ГрадиБуч. Объектно –ориентированной анализ и проектирование с примерами приложений на C++. Невский диалект, 560 стр, 2001 г.
2. Грехем И. Объектно ориентированные методы. Принципы и практика. Вильямс. 879 стр, 2004 г.
3. Иванова Г.С. Объектно ориентированное программирование. Учебник. МГТУ им Баумана. 320 стр, 2003 г.
4. Страуструп Б. Язык программирования C++, "ДиаСофт", Киев 1993г.


Mavzu: Komponentlar palitrasi. Palitra bo'limlari va ayrim komponentlar xossalari bilan tanishish. Additional bo'limi. BitBtn, MaskEdit, StringGrid, Image komponentlar xossalari.

TSpeedButton va TBitBtn tugmalari.

Bu tugmalar *TButton* vazifalarini bajaradi. YAgona farqi matndan tashqari racmlarni ham aks ettiradi. *TSpeedButton* tugmasi fokus olmaydi. Bushuni bildiradiki, agar matn qatorida satr terib, bu tugma bosilsa, shu hodisa qayta ishlangandan so'ng fokus yana matn qatoriga qaytib keladi. TAB tugmasi bilan butugmanija ratib bo'lmaydi.




Tugmaga rasm o'rnatish uchun ikki marta *Glyph* xossasi qatorida chertish lozim. Natijada rasm paydo bo'lgan yuklash oynasida *Load* tugmasini bosish lozim. Ko'p rasmlar ProgramFiles\Common Files\Borland Shared\Images \Buttons katalogida joylashgandir.



TBitBtn va *TSpeedButton* tugmalari deyarli bir xil xossalarga egadir. Ular uchun umumiy *Layout*, xossasi rasm va matn o'zaro joylashuvini o'zgartirishga imkon beradi. Quyidagi rasmda har xil qiymatlar mos variantlari ko'rsatilgan



TBitBtn tugmasining yana bir xossasi *Kind* bo‘lib oldindan tayyorlangan standart tugmalarni tanlash imkonini beradi. Quyidagi rasmda standart tugmalar va ularga mos qiymatlarni ko‘rish mumkin.




Yana bir xossa *ModalResult* – dialog oynasi uchun tugma qaytaradigan natijani tanlashga imkon beradi.

TSpeedButton tugmasining *GroupIndex* xossasi tugmalarni guruhlashga imkon beradi. Buning uchun bir guruhga tegishli tugmalarning *GroupIndex* xossasi bir xil qiymatga masalan 1 ga teng bo‘lishi kerak. Guruhlangan tugmalarning biri bosilsa, qolganlaridan ajralib qoladi. Buning uchun *Down* xossasi qiymati *true* ga teng bo‘lishi kerak.


Maskalangan kiritish qatori (*TMaskEdit*)

Bu komponent ma’lum formatga mos satr kiritishga imkon beradi.



↑
TMaskEdit

Asosiy xossasi *EditMask* bo‘lib, shu xossa qatorida ikki marta chertilsa kiritish muharriri ochiladi.



Input Mask qatorida maska kiritish mumkin. *Test Input*, qatorida maskani testlash mumkin.


Maska terish osondir. Agar qator to'rt raqamli son, tere va uch raqamli sondan iborat bo'lishi kerak bo'lsa, *Input Mask* qatoriga 9999-999 kiritish mumkin.

Siljitish yo'lchasiga ega panel (*TScrollBox*)

TScrollBox komponentasining oddiy Panel komponentasidan farqi siljitish yo'lchasiga ega bo'lishi mumkinligidir.




Formaga *TScrollBox* komponentasini o'rnatib, uning ichiga (*TImage*) komponentasini o'rnatib. Endi *Image1* gakatga rasm joylab, *AutoSize* xossasiga *true* qiymatini bering. Agar *Image1* komponentasida rasm kattaligini olib *ScrollBox* chegarasiga sig'may qolsa, siljitish yo'lchalari paydo bo'ladi.




Markirovka qilingan ro'yxat (*TCheckBoxList*)

TCheckBoxList komponentasi *TListBox*, komponentasiga juda o'xshash, faqat har bir ro'yxat yonida *TCheckBox* komponentasidagi kabi ajratish to'rtburchagi mavjuddir.




Ro'yxat kiritish uchun *Items* xossasi qatorida ikki marta chertish lozim.



TCheckBox yana bir xossasi – *columns*, ya’ni ustunlar sonidir. Agar bu xossa qiymati birdan katta bo’lsa va ro‘yxat bir ustunga sig‘masa, ko‘rsatilgan sonli ustunlarga ajratiladi.

Quyida shu elementdan foydalanilgan dastur formasini keltiramiz.




OK tugmasining *OnClick* hodisasi uchun quyidagi protsedurani kiritamiz:

```

procedure TForm1.OKButtonClick(Sender: TObject);
var
i:Integer;
Str:String;
begin
Str:='Siz tanladingiz';
for i:=0 to CheckListBox1.Items.Count-1 do
if CheckListBox1.Checked[i] then
Str:=Str+CheckListBox1.Items[i]+' ';
Application.MessageBox(PChar(Str), 'Dikkat!!!');
end;

```


Dastur ishlash natijasiga misol.




Ajratish yo'lchasi (TSplitter)



Agar Windows Explorerni ochib ko'rsak oynasi ikkiga ajralgan bo'lib, o'rtasida siljitish mumkin bo'lgan yo'lchani ko'ramiz. Mana shu effektini *TSplitter* komponentasi yaratishga imkon beradi.




TSplitter komponentasidan foydalanishga misol. Formaga panel (*TPanel*) komponentasini joylashtirib *Align* xossasiga *v allLeft* qiymat beramiz va *Caption* xossasiga «СНар panel » qatorini kiritamiz. Formaga *TSplitter* joylashtirib *Align* xossasiga *v allLeft* qiymat beramiz. Yana bir panel joylashtirib *Align* xossasiga *alClient* qiymat beramiz va *Caption* xossasiga «Ung panel » qatorini kiritamiz. Natija rasmda ko'rsatilgan



Dasturni ishga tushirib, ajratish yo‘lchasi sichqoncha bilan harakatlantirilsa panellar kattaligi o‘zgaradi.

Ko‘p qatorli matn (TStaticText)

Ko‘pincha dasturda bir necha qatorli matn chiqarishga to‘g‘ri keladi. Buning uchun formaga bir necha **TLabel** komponentasini o‘rnatish mumkin. Lekin osonroq **TStaticText** komponentasini o‘rnatib *AutoSize* xossasiga *false* qiymatini berishdir. Rasmda shu komponentadan foydalanishga misol keltirilgan.




Parametrlar muharriri (TValueListEditor)

Bu komponenta ob’ektlar inspektoridagi kabi xossalar muharririni yaratishga imkon beradi.



Asosiy xossalari:

- *DefaultColimnWidth* – ustunlar ko‘zda tutilgan kengligi;
- *DefaultColimnHeight* – ustunlar ko‘zda tutilgan kengligi;
- *DisplayOption* – komponentani akslantirish opsiyalari;
- *TitleCaptions* – sarlavhalar nomlari. Agar ikki marta chertilsa oddiy matn muharriri chiqadi.
- *FixedColor* – fiksirlangan ustun rangi.
- *FixedCols* – fiksirlangan ustun indeksi.
- *KeyOption* – kalit maydon opsiyalari
- *Strings* – xossalar nomlari. Shu qatorga ikki marta chertilsa xossalar muharriri chiqadi



Formaning OnShow hodisasi uchun quyidagi protsedura yaratamiz:

```

procedure TForm1.FormShow(Sender: TObject);
begin
ValueListEditor1.ItemProps[6].EditStyle:=esPickList;
ValueListEditor1.ItemProps[6].PickList.Add('Moskva');
ValueListEditor1.ItemProps[6].PickList.Add('Piter');
ValueListEditor1.ItemProps[6].PickList.Add('Rostov-na-Donu');
ValueListEditor1.ItemProps[4].EditMask:='99/99/9999';
end;

```

ItemProps. Xossasida ro‘yxat elementlari xossasi joylashgan. Agar 3- element xossasini o‘zgartirish lozim bo‘lsa *ValueListEditor1.ItemProps[2]* yozish kerak.

EditStyle – xossasi tahrirlash uslubini o‘rnatadi. (*ValueListEditor1.ItemProps[6].EditStyle*):= *esPickList* instruksiyasi qator tugma bosilganda chiquvchi qatorga aylantiradi.

ValueListEditor1.ItemProps[6].PickList.Add(tekst elementa) buyrug‘i oltinchi qatorga satr qo‘shadi.

EditMask – xossasi kiritish maskasini yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. ГрадиБуч. Объектно –ориентированной анализ и проектирование с примерами приложений на С++. Невский диалект, 560 стр, 2001 г.
2. Грехем И. Объектно ориентированные методы. Принципы и практика. Вильямс. 879 стр, 2004 г.

3. Иванова Г.С. Объектно ориентированное программирование. Учебник. МГТУ им Баумана. 320 стр, 2003 г.

4. Страуструп Б. Язык программирования C++, "ДиаСофт", Киев 1993г.

Mavzu: C++ Bulider dasturlari strukturasi. Loyiha va modul. Xodisa tushunchasi, loyiha va modul strukturasi, dastur elementlari (alfavit, identifikatorlar, doimiyliklar, ifodalar va amallar.) Bo'sh forma va uning modifikasiyasi

C++ Bulider loyihasi strukturasi

C++ Bulider dasturi - bu bir necha bir biri bilan bog'liq fayllardir. Har qanday dastur .dpr kengaytmali loyiha fayli va bir yoki bir necha .pas kengaytmali modullardan tashkil topadi. Loyiha fayli dasturchi tomonidan kiritilmaydi, u foydalanuvchining ko'rsatmalari asosida avtomatik ravishda C++ Bulider sistemali dasturi tomonidan tuziladi. Loyiha fayli matnini ko'rish uchun Project/View Source buyrug'ini berish zarur. Loyiha matni umumiy holda quyidagicha bo'lishi mumkin.

Program Project1;

Uses

Forms,

Unit1 in 'Unit1.pas' {Form1}

{ \$R *.res }

Begin

Application.Initialize;

Application.CreateForm(Tform,Form1);

Application.Run;

End.

Loyiha nomi dasturchi tomonidan loyiha faylini saqlash vaqtida beriladi, va u C++ Bulider muhitida bajariluvchi fayl, ya'ni kengaytmasi .exe bo'lgan faylni tashkil qilishni aniqlaydi. Loyiha faylidan keyin ishlatiladigan modullar: standart modullar Forms va Unit1 joylashadi. { \$R *.res } direktivasi kompilyatorga ishlatilishi kerak bo'lgan rusurs fayllari, masalan dasturlarni elon qilish kerakligini bildiradi. Yulduzcha belgisi rusurs faylining kengaytmasi .res ekanligini bildiradi. Bosh modulning bajariluvchi qismi Begin .. End operatorlari orasiga joylashadi.

Modul - bu biror bir dastur. Modullar standart konstruksiyaga ega. Object Pascalda modul strukturasi umumiy holda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Unit <Modul nomi>

Interfase

.....

Implementation

.....

Initialization

.....

Finalization

End.

C++ Bulider tizimini ishga tushirgandan keyin modul strukturasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Unit unit1;

Interface

Uses

Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics, Controls, Forms, Dialogs;

Type

TForm1 = class(TForm)

Private

{ Private declarations }

Public

{ Public declarations }

end;

Var

Form1: TForm1;

Implementation

{ \$R *.dfm }

End.


C++ Buliderning imkoniyatlarini va uning vizual loyihalash vositasi texnologiyasini namoyish etish uchun misol tariqasida kvadrat tenglama echimlarini topish dasturini yaratishni qaraylik. Buning uchun loyihaning boshlang‘ich elementlarini yaratishdan boshlaylik. C++ Bulider foydalanuvchiga Form1 nomli standart formani taklif etadi. Foydalanuvchi forma xossalarini Object Inspector oynasidan o‘zgartirish imkoniga ega. Forma xossalari uning ekrandagi ko‘rinishini aniqlaydi. Xossalar ro‘yxatini ob‘ektlar inspektori (Object Inspector) oynasining pastki qatoridagi Propertiesni (xossalarni) aktivlashtirish bilan ko‘rish mumkin. Oynaning chap ustunida xossalar nomlari, o‘ng ustunida xossalarning joriy qiymatlari berilgan. Xossa qiymatini o‘zgartirish uchun, mos xossa yozilgan maydanni sichqonchada chiqillatib, natijada hosil bo‘lgan o‘ng tamondagi unga mos xossa qiymati aniqlanadi, ya’ni o‘zgartiriladi. Masalan, caption (sarlavha) xossasi qiymatini o‘zgartirish uchun, oldin caption sichqonchada chiqillatilib keyin “form1” xossa qiymati klaviaturadan Backspace tugmasini bosish bilan o‘chirilib, o‘rniga “Kvadrat tenglamani echishdasturi” matni kiritiladi.

Masalan, kvadrat tenglamani echish dastursi uchun birinchi uchta piktogramma kerak bo‘ladi. Bu piktogrammalarni formaga joylashtirish uchun komponentalar palitrasidagi kerakli piktogramma ikki marta sichqonchada chiqillatiladi

va keyin forma maydonida hosil bo'lgan kiritish belgisi yoki tugmacha kerakli joyga joylashtiriladi.

Berilgan misol uchun formaga ishlanadigan ilovaga oltitametka qo'yish kerak bo'ladi. Birinchi Label1 tenglama echimlarini chiqarish uchun, ikkinchi Label2 forma boshida ma'lumot berish uchun (masalan, tenglama koeffitsientlari:) va qolgan uchasi Label3, Label4, Label5 taxrirlash maydaniga tushuntirish berish uchun (masalan, koeff. a) formaga qo'yiladi.

Formaga yangi, hisob va chiqish tugmachalarini joylashtirish uchun standart komponentalar palitrasidan Ok piktogrammasi uch marta ikki martadan chiqillatilib, formaning kerakli joylariga qo'yiladi va keyin ular nomlari, ya'ni qiymatlari xossadan aniqlanadi. Natijada quyidagi formaga ega bo'linadi.



Hodisa va uni qayta ishlash. Yaratilgan forma ilovaning qay tarzda ishlashini ko'rsatib beradi. Formadagi buyruq tugmachalari biror ish bajarishi uchun ular sichqonchada ko'rsatilib chiqillatiladi. Sichqonchada tugmachani chiqillatish (bosish) xodisaga misol bo'lib, u ilovaning ishlash jarayonida hosil bo'ladi. Bu erda hodisa so'zini yuz beradigan jarayon deb tushinish kerak.

Hodisalarga javob C++ Buliderda ularning qayta ishlovchi protseduralar ko'rinishida tashkil qilinadi. Turbo Pascal tilida yoziladigan bu protseduralar hodi-sa qayta ishlovchisi ("obrabotchik") deb ataladi.

C++ Bulider avtomatik ravishda qayta ishlovchiga ikkita qismdan iborat nom beradi. Birinchi qism nom formani, ob'ektga kiruvchilarni o'z ichiga olib, ikkinchi qism nom esa aynan ob'ekt o'zini va qayta ishlovchini aks ettiradi. Bizning misolimizda forma nomi - Form1, birinchi buyruq tugmasi nomi "hisob" - Button1, qayta ishlovchi nomi esa - Click. Endi Begin va End orasiga qayta ishlovchi bajaruvchi Paskal tilidagi operatorlarni quyidagi protsedurada kiritish mum-

kin. Bu protsedura “hisob” tugmasini ikki marta tez-tez chiqillatish bilan ekranga chaqiriladi.

Procedure TForm1.Button1click(Sender:Tobject);

Var

A,B,C:Real;

D:Real;

X1,X2:Real;

S1,S2:String[7];

Code:Integer;

Begin

Val(Edit1.Text,a,Code);

Val(Edit2.Text,b,Code);

Val(Edit3.Text,c,Code);

If a=0

Then

Label6.Caption:=’Xato! ’+Chr(13)

+’No’malum ikkinchi darajasi koeffitsenti’

+Chr(13)+’nolga teng’

Else Begin

d:=b*b-4*a*c;

x1:=(-b+Sqrt(d))/(2*a);

x2:=(b+Sqrt(d))/(2*a);

Str(x1:7:3,S1);

Str(x2:7:3,S2);

Label6.Caption:=’Tenglama ildizlari:’

+Chr(13)+’x1=’+S1

+Chr(13)+’x2=’+S2;

End;

End;

Keltirilgan dastur matnida Turbo Pascalning oddiy Read va Write (Kiritish va chiqarish) operatorlari ishlatilmagan. O‘zgaruvchilar qiymatini kiritish taxrirlash maydonidan Text xossasiga murojaat qilish bilan amalga oshiriladi. Kiritilgan o‘zgaruvchilar qiymati matn bo‘lgani uchun ular Val funksiyasi yordamida

raqamga o'tkaziladi. Kvadrat tenglamaning ildizlari x_1 va x_2 lar qiymatlari Str funksiyasi orqali mos ravishda s1 va s2 o'zgaruvchilarga matnli qilib o'zatiladi. Natijani ekranga matn ko'rinishida berish uchun Label6. Caption metkasiga qiymat qilib yuboriladi.

Xuddi shunday "yangi" va "chiqish" tugmachalari uchun ham qayta ishlovchi protseduralarini tashkil qilish kerak. Ular matnlari quyidagi ko'rinishga ega.

Procedure TForm1.Button2Click(Sender:Tobject);

Begin

Edit1.Text:=' ';

Edit2.Text:=' ';

Edit3.Text:=' ';

Label2.Caption:=' ';

Edit1.SetFocus;

End;

Procedure TForm1.Button3click(Sender: Tobject);

Begin

Form1.Close;

End;

Loyihanisaqlash. Ilovani kompilyasiya qilish va ishga tushirish.

Loyihani saqlashda C++ Bulider bir necha fayl tashkil qiladi. Ayrimlari loyiha butun loyihani tavsiflashni, boshqalari forma va dastur modulini tavsiflashni o'z ichiga oladi. Agar hali saqlanmagan loyiha bo'lsa Fayl (File) menyusidan Sox-ranit proekt (Save Project) buyrug'i beriladi va keyin dastur moduli va proekt nomi beriladi.

Loyihani bog'lab bo'lgandan so'ng Compile menyusidan compile (Kompilirovat) buyrug'i beriladi. Agar dasturda sintaksik xato bo'lmasa ekranda kompilyasiya to'g'ri o'tganligi haqida xabar beriladi. Agar kompilyasiya dasturda qandaydir xatoni topsa xato haqida ekranga ma'lumot beradi. Kompilyasiyadan to'g'ri o'tgan dastur uchun maxsus - .exe kengaytmali fayl tuzib beradi va u faylni C++ Bulider tizimisiz ishlatish mumkin.

C++ Bulider tizimidan chiqmasdan turib ilovani ishga tushirish mumkin, buning uchun Run menyusining Run buyrug'ini yoki F9 tugmachasini bosish kifoya bo'ladi. YUqoridagi misol uchun ilova ishga tushirilib a, b va c qiymatlari kiritilib "xisob" tugmasi bosilsa dastur quyidagi natijani ekranga chiqadi.



Protsedura TForm1.Button2Click “yangi” tugmachasini sichqonchada chiqillatish bilan ishlaydi va taxirlash maydoniga kursorni koeffitsient qiymatlarini kiritish uchun olib kelib qo‘yadi.

Protsedura TForm1.Button3Click “tamom” tugmachasini sichqonchada chiqillatish bilan ishlaydi va formani yopadi.

Dasturlash til elementlari

C++ Bulider tili ham boshqa Programmalash asoslari kabi o‘z alfavitiga va belgilariga ega. U 26 bosh lotin harflarini, 0 dan 9 gacha bo‘lgan arab raqamlarini va quyidagi belgilarni ishlatadi: bo‘shliq belgisi; 4 ta arifmetik amallar + , - , * , / ; mantiqiy amallarni bajarish uchun < , > , <= , >= , <> , = belgilarini ishlatadi. Bulardan tashqari vergul, nuqta, ikki nuqta, kichik qavs, katta va o‘rta qavslar. Dasturda izohlar istalgan joyda berilishi mumkin. Ular katta qavs ichida yoziladi.

Masalan. Program ad; { Bu dastur nomi }

O‘zgarmlar, o‘zgaruvchilar va standart funksiyalar

Haqiqiy turdagi sonlar umumiy holda quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$s a_1 a_2 \dots a_n . b_1 b_2 \dots b_k$$

Bu erda s ishora (+ yoki -) yoki bush joy; $a_1 a_2 \dots a_n$ butun qism; $b_1 b_2 \dots b_k$ kasr qism.

Masalan: +3,147 soni +3.147 yoki 3.147

-143,03 soni -143.03

57,0 soni 57.0

0,493 soni 0.493 yoki .493

Haqiqiy sonlarning o‘zgarish diapazoni kompyuterning turiga karab turlicha bo‘ladi. $10^{-38} < x < 10^{+38}$ x-ixtiyoriy son. Ular eksponensial (darajali) ko‘rinishda ifodalanishi ham mumkin, ya’ni $\pm m10^{\pm n}$. Bunday sonlar quyidagicha yoziladi

$\pm mE \pm n$. Masalan:

$$0,43 \cdot 10^{-6} \quad .43E-6$$

0,0003 3E-4

Butun sonlar umumiy holda quyidagicha yoziladi $s a_1 a_2 \dots a_n$.

Masalan: +345 soni +345 yoki 345
-106 soni -106

Butun sonlar o'zgarish diapozoni -32768 dan +32767 gacha. Agar butun son qiymati bu dipazondan chiqsa, u haqiqiy son shaklida ifodalanadi yoki kompyuter turiga qarab, u o'noltilik sanoq sistemasida ifodalanishi ham mumkin. Belgilar qo'shtirnoq ichida yoziladi. YOzilish diapazoni 0 dan 255 tagachadir. Misol. "Paskal", "405.5"

Paskal tilida identifikator tushunchasi majud bo'lib, dasturda ob'ektlarni nomlashda ishlatiladi. O'zgarmaslarni, o'zgaruvchilarni, belgi(metka), protsedura va funksiyalarni belgilashda ishlatilgan nom **identifikatorlar** deyiladi. Identifikatorlar lotin alfaviti harflaridan boshlanib qolgan harflari belgi yoki raqam ketma-ketligidan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Masalan: xx, xx1, alfa&.

C++ Bulider tilida dastur ishlashi mobaynida qiymati o'zgarmaydigan identifikatorlar **o'zgarmaslar** deyiladi va ular dasturning bosh qismida **Const** so'zi bilan e'lon qilinib, unga aniq qiymat tenglashtiriladi.

Misol. Const aa1=2.27;
 Pi=3.14;
 radius=14;

Dastur ishlashi mobaynida qiymatlari o'zgarishi mumkin bo'lgan identifikatorga **o'zgaruvchilar** deyiladi va ular dastur bosh qismida **Var** so'zi bilan e'lon qilinadi. O'zgaruvchilar nomi keltirilib, ularning turlari beriladi. O'zgaruvchilarning eng ko'p ishlatiladigan turlari **butun, haqiqiy, belgili, qator** va **mantiqiy**dir. Ular mos ravishda butun - **Integer**, haqiqiy - **Real**, belgili - **Char**, qator (matn) - **String** va mantiqiy - **Boolean** deb yoziladi.

Masalan: Var a, d1, alfa : Integer;
 c121, df : Real;
 Etx, xx : Char;
 St,Sw: String;
 fl : Boolean;

Mantiqiy o'zgaruvchilar faqat ikkita qiymat qabul qiladi: "True" (chin) va "False" (yolg'on).

Standart va nostandart matematik funksiyalar

Funksiya nomi	Tilda yozilishi	Ma'nosi
Sinx	SIN(x)	x ning sinusi
Cosx	COS(x)	x ning kosinusi
Ln x	Ln(X)	x ning natural logarifmi
e^x	EXP(x)	Eksponenta
\sqrt{x}	SQRT(x)	Kvadrat ildiz
Arctgx	ARCTAN(x)	x ning arktangensi
x	ABS(x)	x ning moduli

x^2	SQR(x)	x ning kvadrati
a^b	EXP(b*LN(a))	a ning b chi darajasi

Nostandart matematik funksiyalar.

$$1. \text{Sec}x = \frac{1}{\text{Sin}x}; \quad 2. \text{Co sec}x = \frac{1}{\text{Cos}x}; \quad 3. \text{Tgx} = \frac{\text{Sin}x}{\text{Cos}x}; \quad 4. \text{Arcctgx} = \text{Arctg} \frac{1}{x};$$

$$5. \text{Arcsin}x = \text{Arctg} \frac{x}{\sqrt{1-x^2}}; \quad 6. \text{Arc cos}x = \text{Arctg} \frac{\sqrt{1-x^2}}{x}; \quad 7. \text{Arc sec}x = \text{Arctg} \frac{1}{\sqrt{1-x^2}};$$

$$8. \text{Arc cosec}x = \text{Arctg} \sqrt{1-x^2}; \quad 9. \text{Log}_a b = \frac{\text{Lnb}}{\text{Lna}}; \quad 10. \text{Padian} = \frac{\text{Gradius} \cdot \pi}{180}$$

O'zgartirish funksiyalari

Funksiya	Qiymati
Chr(n)	Kodi n ga teng simvol
IntToStr(k)	Butun k ni tasvirlovchi satr
FloatToStr (n)	Haqiqiy n tasvirlovi satr
FloatToStrF(n, f , k,m)	Haqiqiy n tasvirlovi satr. Bunda: f - format; k - aniqlik; m - kasr qismidagi raqamlar soni
StrToInt (s)	Satrnı butun songa o'tkazish
StrToFloat (s)	Satrnı haqiqiy songa o'tkazish
Round (n)	Haqiqiy sonni yaxlitlash
Trunc (n)	Haqiqiy son kasr qismini olib tashlash
Frac(n)	Kasrli sonning kasr qismi
Int (n)	Kasr sonning butun qismi

Dasturda arifmetik va mantiqiy ifodalar o'zgaruvchi, o'zgarmas, standart funksiyalar, qavslar va amal belgilari orqali tashkil qilinadi.

Ifodalarda hisoblashlar tartibi qavslar ichidagi ifodalar bajarilgandan keyin quyidagi tartibda bajariladi:

1. NOT amali; 2. *, /, DIV, MOD, AND;

3. +, -, OR; 4. taqqoslash belgilari: <, >, <=, >=, <>, =, IN.

Ifodadagi amal natijasi qanday turda bo'lishi amallarda qatnashayotgan o'zgaruvchilarning turlariga bog'liq. Agar ikkita o'zgaruvchining turi Integer yoki Real bo'lsa, amal natijasi ham Integer yoki Real bo'ladi. Agar biri Integer ikkinchi-

si Real bo'lsa natija Real bo'ladi. NOT, OR, AND va taqqoslash amallarining natijalari esa Boolean turida bo'ladi.

Kompyuter foydalanuvchi tomonidan qo'yilgan masalani aniq va tushunarli ko'rsatmalar berilgandagina bajara oladi. Bu ko'rsatmalar ma'lum bir ma'noni anglatuvchi so'zlardan iborat bo'lib, kompyuterga qanday operatsiyani bajarish lozimligini bildiradi va bu ko'rsatmalarga **operatorlar** deyiladi. Operatorlar dastur ishlaganda ketma-ket ravishda bajariladi. C++ Bulider tilida bir satrga bir necha operatorlarni yozish umkin.

C++ Bulider tilida dastur matni bosh va asosiy bo'limdan tashkil topadi. Bosh bo'lim dastur nomi va o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar, massivlar, belgilar(metkalar), protseduralar va funksiyalarni tavsiflashdan iborat bo'ladi. Asosiy bo'lim dastur tanasi deyilib, unda dasturda bajariladigan hamma operatorlar ketma-ketligi beriladi va u Begin (boshlamoq) so'zi bilan boshlanib End (tugash) so'zi bilan tugaydi. Umumiy holda dastur strukturasi quyidagi ko'rinishga ega:

Program <dastur nomi>;

Uses <Foydalanadigan bibliotekalar (modullar) ro'yxati>;

Label <Ishlatiladigan belgilar(metkalar) ro'yxati>;

Const <Ishlatiladigan o'zgarmaslarni aniqlash>;

Type <YAngi turlarni aniqlash>;

Var <O'zgaruvchilarni e'lon kilish>;

<Protsedura va funksiyalarni aniqlash>

Begin

<Bajariladigan operatorlar ketma ketligi>

End.

Ma'lumotlar turlari

Ma'lumotlar turlarini C++ Bulider tilida umumiy holda ikkiga ajratish mumkin:

- standart turlar. Bu turlar oldindan C++ Bulider tili tomonidan aniqlangan bo'ladi;
- dasturchi tomonidan kiritiladigan (aniqlanadigan) turlar.

Standart turlar tarkibiga quyidagilar kiradi: butun, haqiqiy, belgili (simvol), qator (strok), mantiqiy, ko'rsatgichli va variant.

Dasturchi turlarni dasturning **Var** bo'limida o'zgaruvchilarni tavsiflashda aniqlaydi yoki maxsus turlarni aniqlash uchun bo'lim bo'lgan -turlarni tavsiflash **Type** bo'limida aniqlaydi.

Bu bo'lim umumiy holda quyidagicha bo'ladi.

Type

<tur nomi>=<turlarning tavsifi>;

Misol:

Type

TColor=(Red,Blue,Black);

Var Color1,Color2,Color3: TColor;

Type bo'limida dasturchi tomonidan yangi Tcolor nomli tur kiritilmoqda va u Red,Blue,Black mumkin bo'lgan qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

Var bo‘limida dasturchi tomonidan turi aniqlangan uchta Color1,Color2,Color3 o‘zgaruvchilar tavsiflanmoqda.

Bu o‘zgaruvchilarni to‘g‘ridan to‘g‘ri quyidagicha ham tavsiflash mumkin.

Var Color1,Color2,Color3: (Red,Blue,Black);

Standart turlarni Type bo‘limida tavsiflash shart emas, ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri Var bo‘limida tavsiflash mumkin.

C++ Buliderda standart turlarni quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

❖ Oddiy

➤ Tartibli

- Butun
- Belgi
- Mantiqiy
- Sanoqli (Perechislyaemy)
- CHegaralangan

➤ Haqiqiy

❖ Qator

❖ Struktura

- To‘plam
- Massiv
- YOzuv
- Fayl
- Klass
- Interfeys

❖ Ko‘rsatgichli

❖ Protsedurali

❖ Variant

Oddiy turlarga tartiblashgan va haqiqiy turlar kiradi. Tartiblashgan turlar shu bilan xarakterlanadiki uning har bir qiymati o‘zining tartiblangan nomeriga ega. Haqiqiy tur qiymatlari kasr qismidan iborat bo‘lgan sonlardan iboratdir.

Tartiblashgan turlarga butun, belgili, mantiqiy, sanoqli va chegaralangan turlar kiradi.

Butun turlar. Butun turlar butun sonlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Jadvalda C++ Bulider 7 da ishlatiladigan butun turlar ro‘yxati keltirilgan.

Tur	O‘zgarish diapazoni	O‘lcham (baytda)
Integer	-2147483648..2147483647	4
Cardinal	0..4294967295	4
Shjrtint	-128..127	1
Smallint	-32768..32767	2
Longint	-2147483648..2147483647	4
Int64	$-2^{63}..2^{63}-1$	8
Byte	0..255	1
Word	0..65535	2

LongWord 0..4294967295 4

Haqiqiy turlar. Haqiqiy turlar haqiqiy sonlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Jadvalda C++ Bulider 7 da ishlatiladigan haqiqiy turlar ro'yxati keltirilgan.

Tur	O'zgrish diapazoni	O'lcham (baytda)
Real	$5.0 \cdot 10^{-324} \dots 1.7 \cdot 10^{308}$	8
Real48	$2.9 \cdot 10^{-39} \dots 1.7 \cdot 10^{38}$	6
Single	$1.5 \cdot 10^{-45} \dots 3.4 \cdot 10^{38}$	4
Double	$5.0 \cdot 10^{-324} \dots 1.7 \cdot 10^{308}$	8
Extended	$3.6 \cdot 10^{-4951} \dots 1.1 \cdot 10^{4932}$	10
Comp	$-2^{63} + 1 \dots 2^{63} - 1$	8

Belgili turlar. Ma'lumotlarning belgili turlari faqat bitta belgini saqlash uchun xizmat qiladi. Jadvalda C++ Bulider 7 da ishlatiladigan belgili turlar ro'yxati keltirilgan.

Tur	O'lcham (baytda)
Char	1
ANChar	1
WideChar	2

Mantiqiy turlar. Mantiqiy turlar chin (True) yoki yolg'on (False) qiymatning birini qabul qiladi. Jadvalda C++ Bulider 7 da ishlatiladigan mantiqiy turlar ro'yxati keltirilgan.

Tur	O'lcham (baytda)
Boolean	1
ByteBool	1
WordBool	2
LongBool	4

Dasturchi tomonidan kiritiluvchi turlar

C++ Bulider tili dasturchiga uzining turlarini kiritishga imkon beradi. Bu turlar standart turlarga eki avval kiritilgan turlarga asoslangan bulib quyidagi turlarga tegishli bulishi mumkin:

- sanovchi;
- interval;
- murakkab tur (ezuv).

Sanoqli turlar. Sanoqli turlar tartiblangan qiymatlar to'plamini ishlatadi.

Tur =(1 Qiymat, 2 Qiymat, ... ,I Qiymat)

Masalan:

Type

Color=(black,green,yellow blue,red,white);

Fam=(Petrov,Sidorov,Raximov,Sobirov);

DayOfWeek=(mon,tue,wed,thu,fri,sat,sun);

Bu erda

Color sanoq turi beshta ranglar ketma ketligini aniqlaydi.

Fam sanoq turi to'rtta familiyani aniqlaydi.

DayOfWeek sanoq turi hafta nomlarini aniqlaydi.

Odatda C++ Bulider tilida turlar nomlari T xarfidan boshlanadi (Ture — tip so'zidan).

Yangi tur ta'riflangandan sung shu turga tegishli o'zgaruvchini ta'riflash mumkin, masalan:

```
type
```

```
TDayOfWeek = (MON,TUE,WED,THU, FRI,SAT,SUN) ;
```

```
var
```

```
ThisDay, LastDay: TDayOfWeek;
```

Sanovchi tur ta'rifi qiymatlar o'zaro munosabatini ko'rsatadi. Eng chap element minimal, eng ung element maksimal hisoblanadi. YUqorida kiritilgan DayOfWeek turi elementlari uchun quyidagi munosabat o'rinli:

```
MON < TUE < WED < THU < FRI < SAT < SUN
```

Sanovchi tur elementlari orasidagi munosabat o'zgaruvchilarni boshqaruvchi instruksiyalarda qo'llashga imkon beradi, masalan:

```
if (Day = SAT) OR (Day = SUN) then
```

```
begin
```

```
{ agar kun shanba yoki yakshanba bo'lsa bajarilsin }
```

```
end;
```

Bu instruksiyani quyidagicha yozish mumkin:

```
if Day > FRI then begin
```

```
{ agar kun shanba eki yakshanba bo'lsa bajarilsin }
```

```
end;
```

Sanovchi tur ta'rifi nomlangan konstantalar kiritishning qisqartirilgan shakli deb qarash mumkin. Misol uchun TDayOfWeek turining ta'rifi quyidagi ta'riflarga tengdir:

```
const
```

```
MON=0; TUE=1; WED=2; THU=3; FRI=4; SAT=5; SUN=6;
```

Interval (diapazon) turi.Interval (diapazon) turiberiladigan qiymatga chegara qo'yadi.

```
Type
```

```
<tur nomi>=<minimal>..<maksimal>;
```

Masalan:

```
Type
```

```
Color=red..green; // ranga chegara
```

```
Digit=0..9; //butun sonlarga chegara
```

```
Symb='A'..'Z'; // harflarga chegara
```

Haqiqiy turlarga chegara qo'yilmaydi.

Interval tur ta'rifida nomlangan konstantalardan foydalanish mumkin. Quyidagi misolda interval tur TIndex ta'rifida HBOUND nomlangan konstantadan foydalanilgan:

```
const
```

```
HBOUND=100;
```

```
type
TIndex=1..HBOUND;
Interval turdan massivlarni ta'riflashda qulaydir:
```

```
type
TIndex =1 .. 100;
var
tab1 : array[TIndex] of integer; i:TIndex;
```

Butun son turidan tashqari asos tur sifatida sanovchi turdan foydalanish mumkin. Quyidagi dastur qismida TMonth sanovchi tur asosida interval tur TSammer ta'riflangan:

```
type
TMonth = (Jan, Feb, Mar, Apr, May, Jun,
Jul, Aug, Sep, Oct, Nov, Dec);
TSammer = Jun.. Aug;
```

Yozuv

Dasturlash amaliyotida standart ma'lumotlardan tashkil topgan murakkab ma'lumotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Misol uchun talaba to'g'risidagi ma'lumot ismi sharifi, tugilgan yili, adresi, kursi, guruhi va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Bunday ma'lumotlarni ta'riflash uchun C++ Bulider da yozuv (record) lardan foydalaniladi.

Yozuv bu - alohida nomlangan har xil turli komponentalardan iborat murakkab turdir.

Har qanday tur kabi, "yozuv" type bo'limida ta'riflanishi lozim. Bu ta'rif umumiy ko'rinishi:

```
Nom = record
1_ Maydon: 1_Tip; 2_ Maydon: 2_Tip;...; K_ Maydon: K_Tip; end;
```

Ta'riflarga misollar:

```
type
TPerson = record
f_name: string[20];
l_name: string[20];
day: integer;
month: integer;
year: integer;
address: string[50]; end;
```

```
TDate = record
day: integer; month: integer; year: integer;
end;
```

Yozuv turidagi o'zgaruvchini quyidagicha ta'riflash mumkin:

```
var
student : TPerson; birthday : TDate;
```

YOzuv elementiga (maydoniga) murojaat qilish uchun yozuv nomi va nuqtadan so'ng maydon nomini ko'rsatish kerak. Masalan:

```
Writeln('Imya: ', student.f_name + #13 + 'Adres: ', student.address);
```

Instruksiya ekranga student o'zgaruvchi-yozuvning f_name (nom) va address (adres) maydonlarini chiqaradi.

Ba'zida o'zgaruvchi-yozuv turi o'zgaruvchilar e'lon qilish bo'limida e'lon qilinadi. Bu holda yozuv turi o'zgaruvchi nomidan so'ng ko'rsatiladi. Misol uchun student yozuvi var bo'limida quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

```
student: record
f_name:string[20];
l_name:string[20];
day:integer;
month:integer;
year:integer;
address:string[50];
end;
```

With instruksiyasi

With instruksiyasi dasturda maydonlar nomlarini o'zgaruvchi – yozuv nomini ko'rsatmasdan ishlatishga imkon beradi. Umumiy holda with instruksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

```
with nom do
```

```
begin
```

```
( dastur instruksiyasi } end;
```

Misol uchun dasturda quyidagi yozuv ta'riflangan bo'lsin

```
student:record
f_name: string[30];
l_name: string[20];
address: string[50];
end;
```

va studentlar to'g'risidagi ma'lumotlar E1, E2 va E3 o'zgaruvchilarda joylashgan bo'lsin. U holda

```
student.f_name := E1;
```

```
student.l_name := E2;
```

```
student.address := E3;
```

instruksiyalar o'rniga quyidagi instruksiyani yozish mumkin:

```
with student do begin
```

```
f_name := E1; l_name := E2; address := E3; end;
```

Mavzu:Operatorlar va shartli operator. Tarkibiy va bo'sh operatorlar. If...Then...else shartli operatori. Tanlash(case) operatori. Goto o'tish operatori, label (belgilar) xizmatchi so'zidan foydalanish qoidalari bilan tanishish

Tarmoqlanuvchialgoritmlarnidasturlash

C++ Bulider dasturlash tilining if va case operatorlari

Paskalda tarmoqlanuvchi algoritmlarni dasturlash uchun faqat *true* va *false* qiymatlarni qabul qiladigan *boolean* turidagi maxsus o'zgaruvchilar, shuningdek *if* va *case* operatorlari ishlatiladi. *If* operatori mantiqiy turdagi qiymatni yoki

boolean turidagi o'zgaruvchini tekshiradi va hisoblash jarayonining tarmoqlanishini tashkil etadi.

Masalan, agar *bl: boolean, x,y,u:integer* bo'lsa, *if* operatori qo'llanilgan dastur fragmenti quyidagicha bo'ladi:

```
bl:=x>y;  
if bl then u:=x-y else u:=x+y;
```

Case – tanlash operatori ko'rsatilgan turdagi ayrim o'zgaruvchilarning qiymatlaridan kelib chiqib tarmoqlanishni tashkil etadi.

Masalan, agar *in: integer* bo'lsa,

```
case in of  
0: u:=x+y;  
1: u:=x-y;  
2: u:=x*y;  
else u=0;  
end;
```

operatorlar bajarilgandan keyin *in* ning qiymati gamosuhisoblanadi. Agar *in=0* bo'lsa, u holda $u=x+y$, agar *in=1*, bo'lsa $u=x-y$, agar *in=2*, bo'lsa $u=x*y$, *in* ning 0, 1 va 2 dan boshqa ixtiyoriy qiymatlari uchun $u=0$.

C++ Bulider da almashtiruvchi tugmalar tashkil qilish

C++ Bulider da dastur tuzishda tarmoqlanishni tashkil etish uchun almashtiruvchi tugmalar (knopok-pereklyuchateley) komponentlaridan foydalaniladi. Bu tugmaning holati (yoqish - o'chirish) formada ko'rinib turadi. Formada (1-rasm) ikki turdagi almashtiruvchi tugmalar (*TCheckBox*, *TRadioGroup*) keltirilgan.


TCheckBox komponenti yordamida foydalanuvchi ha/yo'q kabi o'zining natijasini ko'rsatishi mumkin. Dasturda tugmalar holatlari *if* operatori yordamida tekshiriladigan mantiqiy o'zgaruvchilarning qiymatlari bilan bog'liq.

TRadiogroup komponenti almashtiruvchi tugmalarga bog'liq tugmalar guruhini tashkil etadi. Guruhdagi bitta tugmaning bosilishi bilan boshqa tugmalar o'chiriladi. *Case* operatori yordamida tahlil qilinadigan, bosilgan tugmalarning (0,1,2,...) nomeri dasturga uzatiladi.


Masala: x, y, z sonlarni kiriting. $u=\sin(x)$ yoki $u=\cos(x)$, yoki $u=\operatorname{tg}(x)$ lardan birini hisoblang. Xohishga qarab uchta sonning kattasini toping: $\max(u, y, z)$ yoki $\max(|u|, |y|, |z|)$.

1 - rasmda ko'rsatilgandek forma yarating va dasturni tuzing.

TSheckBox komponenti bilan ishlash

Standard komponentlar menyusidan  piktogrammasini tanlang va uni formaning kerakli joyiga joylashtiring. Ob'ektlar inspektori yordamida sarlavha (*Caption*) ni "max abs" ga o'zgartiring. Dastur matnida *TSheckBox* turdagi *SheckBox* o'zgaruvchi paydo bo'ladi. Endi bu tugma bosilgan yoki yo'qligiga qarab **CheckBox1.Checked** mantiqiy o'zgaruvchi *true* yoki *false* qiymatlarni qabul qiladi.

TRadioGroup komponenti bilan ishlash

Standard komponentlar menyusidan  piktogrammasini tanlang va formaning kerakli joyiga joylashtiring. Formada *RadioGroup1* sarlavhali to'rtburchak hosil bo'ladi. Sarlavha (*Caption*) nomini $U(x)$ bilan o'zgartiring. *TRadioGroup* komponentida tugmalarni o'rnatish uchun *Columns* ga 1 ni yozish kerak. SHundan keyin *Items* ning o'ng tomonini sichqoncha bilan ikki marta bosning. Tugmalar sarlavhalarining ro'yxati muharriri paydo bo'ladi. Birinchi qatorga $\cos(x)$, ikkinchi qatorga $\sin(x)$, uchinchi qatorga esa $\text{tg}(x)$ ni yozing va *OK* ni bosning.

Dastur matnida *TRadioGroup* turidagi *RadioGroup* o'zgaruvchisi paydo bo'lganiga e'tibor bering. Endi guruhdagi *RadioGroup1.ItemIndex* turidagi butun o'zgaruvchilardan biri bosilganda, (0 dan boshlab hisoblanadi) bosilgan tugmaning nomeri joylashadi.

FormSreate va Botton1Slick hodisalarni qayta ishlash

FormSreate va *Botton1Slick* protseduralar birinchi mavzuda ko'rsatilgandek tuziladi. Protseduralar matni quyida keltirilgan.

Dasturni ishga tushiring va algoritm to'g'ri ishlayotganiga ishonch hosil qiling. Forma.1-rasmda keltirilgan.



1 – rasm

Dastur matni quyida keltirilgan.

```
unitUnit1;
```

```
interface
```

```
uses
```

```
Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics,  
Controls, Forms, Dialogs, StdCtrls, ExtCtrls;
```

```
type
```

```
TForm1 = class(TForm)
```

```
Label1: TLabel;
```

```

Edit1: TEdit;
Label2: TLabel;
Edit2: TEdit;
Label3: TLabel;
Edit3: TEdit;
CheckBox1: TCheckBox;
RadioGroup1: TRadioGroup;
Memo1: TMemo;
Button1: TButton;
procedure FormCreate(Sender: TObject);
procedure Button1Click(Sender: TObject);
private
{ Private declarations }
public
{ Public declarations }
end;
var Form1: TForm1;
implementation
{$R *.dfm}

procedure TForm1.FormCreate(Sender: TObject);
begin
Edit1.Text:='0,1';
Edit2.Text:='0,356';
Edit3.Text:='0';
Memo1.Clear;
RadioGroup1.ItemIndex:=0;
end;

procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var x, y, z, u, max : extended;
begin
Memo1.Clear;
x:=StrToFloat(Edit1.Text);
Memo1.Lines.Add('x='+Edit1.Text);
y:=StrToFloat(Edit2.Text);
Memo1.Lines.Add('y='+Edit2.Text);
z:=StrToFloat(Edit3.Text);
Memo1.Lines.Add('z='+Edit3.Text);
case RadioGroup1.ItemIndex of
0: begin
u:=cos(x);
Memo1.Lines.Add('cos(x)='+FloatToStr(u));
end;
1: begin

```

```

        u:=sin(x);
        Memo1.Lines.Add('sin(x)='+FloatToStr(u));
    end;
2: begin
        u:=sin(x)/cos(x);
        Memo1.Lines.Add('tg(x)='+FloatToStr(u));
    end;
end;
if CheckBox1.Checked then
begin
if (x>=y) and (x>=z) then max:=x;
if (y>=x) and (y>=z) then max:=y;
if (z>=x) and (z>=y) then max:=z;
Memo1.Lines.Add('max(x, y, z)='+FloatToStr(max));
end;
end;
end.

```

Mavzu: C++ Bulider dasturlash tilida sikl operatorlari.

Takrorlanish deganda, bir xil operatorlarni har xil qiymatlar uchun bir necha marta bajarilishi tushuniladi. Takrorlanishlar soni aniq yoki noaniq formada berilgan bo‘lishi mumkin.

C++ *Bulider* da tilida uch xil takrorlanish operatorlari mavjud.

```

repeat
<operatorlar>
until <shart>;

```

operatori *repeat* va *until* kalit so‘zlar orasidagi operatorlarning takrorlanishini *<shart >=true* bajarilgunicha tashkil etadi, shundan keyin boshqarish takrorlanish operatoridan keyingi operatorga uzatiladi.

```

While<shart>do begin
<operatorlar>
end;

```

operatori *while* *<shart>=false* bajarguncha *begin* va *end* orasidagi operatorlarning takrorlanishini tashkil etadi. *Repeat* dan farqliravishda *While* operatorida agar birinchi tekshirish-dayoq *<shart>=false* bajarilsa, *<operatorlar>* birmarta ham takrorlanmaydi.

```

for i:=i1 to i2 do begin
<operatorlar>
end;

```

operatori *for* *i* o‘zgaruvchini *i1* boshlang‘ich qiymatdani *i2* oxirgi qiymatgacha «bir» qadam bilan *i1* dan *i2* gacha tartibda operatorlarning qaytarilishini tashkil etadi.

```

for i:=i2 downto i1 do begin <operatorlar> end;

```

operatorini qo‘llasak, *i* qiymati birga kamayib boradi.

C++ Bulider dasturlarini sozlash usullari

Deyarli barcha yangi kiritilgan dasturlar ishga tushirilganda xatolar topiladi. Birinchi darajadagi xatoliklar operatorlarning noto‘g‘ri yozilishi (orfografik, sin-

taksik) bilan bog‘liq. C++ *Bulider* kompilyatori xatoni aniqlaganda xato joylashgan qatorning boshini ko‘rsatadi. Ekraning pastki qismida loyihada topilgan xatolar haqida ma’lumot yoziladi. Oynaning har bir qatori xato topilgan faylning nomi, qator nomeri va xato xarakterinio‘z ichiga oladi. Xato haqida to‘liqroq ma’lumot olish uchun *F1* klavishi yordamida *HELP* ga murojaat qilish kerak. SHunga e’tibor berish kerak-ki, bitta xato o‘z navbatida boshqa xatoliklarning bo‘lishiga olib kelishi mumkin va bu xato tuzatilganda boshqalari ham yo‘qoladi. SHuning uchun xatolarni ketma-ket yuqoridan-pastga qarab to‘g‘irlab va har bir to‘g‘irlangandan keyin dasturni kompilyasiya qilish kerak bo‘ladi.


Ikkinchi darajadagi xatoliklar echim algoritmini tanlash yoki algoritmni noto‘g‘ri realizatsiya qilish bilan bog‘liq. Bu xatolar hisob natijalari noto‘g‘ri yoki nolga bo‘lish va h.k. holatlarda paydo bo‘ladi. SHuning uchun dasturni ishlatishdan oldin uni testdan o‘tkazish kerak, ya’ni oldindan natijasi ma’lum bo‘lgan boshlang‘ich qiymatlar kombinatsiyasini hisoblab ko‘rish kerak. Agar test natijalari xatoni ko‘rsatsa, u holda xatoni topish uchun C++ *Bulider* muhitida o‘rnatilgan sozlash vositalarini ishlatish kerak.

Oddiy holatlarda xato topmoqchi bo‘linsa, quyidagicha yo‘l tutish tavsiya etiladi. Matnni tahrirlash oynasida xato bor deb shubha qilingan joydan oldingi satrga kursorni keltirib qo‘ying va *F4* ni bosing. Dastur kursor turgan joygacha bajariladi. Endi kerakli o‘zgaruvchining qiymati qanday o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Buning uchun kerakli o‘zgaruvchiga kursorni keltirib (ekranda uning qiymati ko‘rinadi) yoki *Ctrl-F7* ni bosib paydo bo‘lgan muloqot oynasida kerakli o‘zgaruvchini ko‘rsatib bilish mumkin. *F7* (qadamma-qadam tekshirish) ni bosib dasturni qadamma-qadam tekshirib borish mumkin. Agar kursor sikl ichida bo‘lsa, *F4* sikl tanasini bir marta bajarilgandan so‘ng hisob to‘xtaydi. Hisobni davom ettirish uchun *Run* menyusidan *<Run>* ni bosish kerak.

Masala: x o‘zgaruvchi uchun $S(x)$ funksiyaning $X1$ dan to $X2$ gacha intervalda, h qadam bilan qiymatlarini jadvalga chiqarish dasturini tuzing.

$$S(x) = \sum_{k=0}^N (-1)^k \frac{x^k}{k!}$$

Dialoglar paneli 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm.

Dastur matni quyida keltirilgan.

```

unit Unit1;

interface
uses Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics,
    Controls, Forms, Dialogs, StdCtrls;
type
    TForm1 = class(TForm)
    Label1: TLabel;
    Edit1: TEdit;
    Label2: TLabel;
    Edit2: TEdit;
    Label3: TLabel;
    Edit3: TEdit;
    Label4: TLabel;
    Edit4: TEdit;
    Memo1: TMemo;
    Button1: TButton;
    procedure FormCreate(Sender: TObject);
    procedure Button1Click(Sender: TObject);
    private
    { Private declarations }
    public
    { Public declarations }
    end;
    var Form1: TForm1;
implementation
    {$R *.dfm}
    procedure TForm1.FormCreate(Sender: TObject);
    begin
    Edit1.text:='0';
    Edit2.text:='2';
    Edit3.text:='5';
    Edit4.text:='0,25';
    Memo1.Clear;
    end;
    procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
    var x1, x2, x, h, a, s : real;
    N, k, c : integer;
    begin
    Memo1.Clear;
    x1:=StrToFloat(Edit4.Text);
    x2:=StrToFloat(Edit2.Text);
    n:=StrToInt(Edit3.Text);
    h:=StrToFloat(Edit4.Text);
    c:=-1;

```

```

x:=x1;
repeat
a:=1;
  S:=1;
for k:=1 to n do
begin
a:=c*a*x/k;
s:=s+a;
end;
Memo1.Lines.Add('Agar x='+FloatToStrF(x,ffFixed,6,2)
+'bo'lsa, summa='+FloatToStrF(s,ffFixed,6,2));
x:=x+h;
until x>x2;
end;
end.

```

Dastur sozlangandan keyin test tuzing ($n=2$, $x1=0$, $x2=1$, $h=3$), kursorni birinchi operator ($n=$) ga olib keling, *F4* tugmasini bosning. Shundankeyin *F7* tugmasini bosib turib dasturni qadamma –qadam tekshiring va dastur bajarilishi jarayonida o'zgaruvchilar qiymatlariga e'tibor bering.

Mavzu: C++ Bulider dasturlash tilida massivlar, massivlarni tavsiflash. Massivlarni berilish usullari.

Massiv bitta nom bilan birlashtirilgan bir xil tipli elementlarning tartiblangan majmuasidan iborat. Massivlarning har bir elementi nom bilan belgilanadi, ularda orqasidan kvadrat qavslarda vergullar bilan ajratilgan bir yoki bir nechta indeksar keladi, masalan: $a[1]$, $bb[I]$, $c12[I,j*2]$, $q[1,1,I*j-1]$. Indeks sifatida LongIntdan tashqari ixtiyoriy tartiblangan tiplardan foydalanish mumkin.

Massiv tipi yoki massivning o'zi mos ravishda tiplar (type) yoki o'zgaruvchilar (Var) bo'limida **Array** kalit so'zi yordamida quyidagicha aniqlanadi:

Array [indekslar tavsifi] **of** <massiv elementlari tipi>

Massivlarni tavsiflashga misollar:

```

Const N=20; // indeksning maksimal qiymatini berish;
Type TVector=array[1..N] of real; // bir o'lchovli massiv tipini tavsiflash;
Var a:TVector; // A –Tvector tipli massiv;
  Ss:array[1..10] of integer; // Ss – o`nta butun sonli massiv;
  Y:array[1..5,1..10] of char; // Y – simvol tipidagi ikki o'lchovli massiv.

```

Massiv elementlaridan ifodalarda oddiy o'zgaruvchilar kabi foydalanishi mumkin, masalan:

```

F:=2*a[3]+a[ss[I]+1]*3;
A[n]:=1+sqrt(abs(a[n-1]));

```


TStringGrid komponenti

Massivlar bilan ishlashda ekranga axborotni kiritish va chiqarishni jadval shaklida tashkil etish qulay. TStringGrid komponent axborotni ikki o'lchovli jadval shaklida aks ettirishga mo'ljallangan. Uning har bir yacheykasi bir satrli redaktorli oynasidan (Tedit oynasiga o'xshash) iborat. Axborotga kirish Cells[ACol, ARow: Integer]:string xossasi yordamida amalga oshiriladi, bu erda ACol, Arow – ikki o'lchovli massiv elementi indeksi. ColCount va RowCount xossalari jadvaldagi satr va ustunlar sonini o'rnatadi, FixedCols va FixedRows xossalari tayinlangan sohadagi satr va ustunlar sonini beradi. Tayinlangan soha boshqa rang bilan belgilangan, unga klavaiaturadan axborot kiritish man qilinadi.

Misol.A(10) butun sonli massivning maksimal va minimal elementlarini topish va ularning joyini almashtiradigan ilova yaratamiz.

Yechish:

1. Yangi loyiha uchun papka yaratamiz, masalan, **C:\MyProject\Lbox**.
2. Bosh menyudan **File | New | Applicaton** buyrugi yordamida yangi loyiha ochamiz.
3. **Form1**ga **Standard** sahifasidan quyidagi elementlarni joylashtiramiz
4. Ob'yektlar Inspektori yordamida **Edit1** elementning **Text** xossasiga ki-



1-pacm. **Edit, Button, ListBox**larning shaklda joylashishi

ymat sifatida bo'sh satrni beramiz. Knopkalarining chapdaxisiga **Caption** xossasiga 'Kiritish', ungdaxisiga esa 'Echish' kiyimatlarini o'rnatamiz.

5. **Interface** bo'limida **A** massiv va ishlatilayotgan uzgaruvchilarni tavsiflaymiz.

A: array [1..10] of integer;

I, min, max, imin, imax: integer;

6. **Form1** shaklda sichqonchani ikki bosish qilib **OnCreate** hodisasi uchun operatorlar yozamiz. Bu erda yozilgan operatorlar ko'pgina hollarda modulning **initializaton** seksiyasida joylashtirilgan operatorlar bilan ekvivalent. U erga quyidagi satrlarni joylashtiramiz:

i:=0;

ListBox1. Clear;

ListBox2. Clear;

7. ‘**Kiritish**’ tugmasida sichqonchani ikki bosish qilib faollashtiramiz va **OnClick** hodisasi uchun kod yozamiz:

ListBox1.Items.Add(Edit1.Text);

i:=i+1;

a[i]:=StrToInt(Edit1.Text);

Edit1.SetFocus

8. ‘**yechish**’ tugmasini ikki bosib, quyidagini joylashtiramiz:

max:=a[1];

imax:=1;

min:=a[1];

imin:=1;

for i:=2 to 10 do

begin

if max<a[i] then

begin

max:=a[i];

imax:=i

end;

if min>a[i] then

begin

min:=a[i];

imin:=i

end;

end;

a[imax]:=min;

a[imin]:=max;

for i:=1 to 10 do

ListBox2.Items.Add(IntToStr(a[i]));

9. Ilova bilan qulay bo’lishi uchun **Enter** klavishini bosganda ‘**Kiritish**’ tugmasiga fokusni yuborish uchun **Edit1** ga **onKeyDown** hodisagakod yozamiz:


if key=13 then Button1.SetFocus

10. Loyixani bosh menyuning **File | Save All** buyrugi yordamida saqlaymiz.

11. **F9** klavishi bilan dasturni ishga tushiramiz. Butun sonlarni kiritish uchun **Edit1** satr elementidan foydalanamiz. Har bir sonni kiritishni **Enter** klavishini bosish eki ‘**Kiritish**’ tugmasida sichqonchani bosish bilan yakunlaymiz. Kiritilgan sonlar birinchi ro’yxatda tasvirlanadi. ‘**Echish**’ tugmasini bosgach ikkinchi ro’yxatda natijani olamiz.

Misol. Butun sonli A(4,4) matrictsada birinchi va oxirgi satrlar joyini almashtirish dasturini tuzamiz.


Yechish:



1. Yangi loyiha uchun papka yaratamiz, masalan, C:\MyProject\StringGrid.

2. Bosh menyuning **File|New|Application** buyrug'idan foydalanib yangi loyiha ochamiz.

3. **Form1**ga **Standard** va **Additional** sahifalaridan ikkita **StringGrid** va uchta **Button** elementlarni joylashtiramiz. (4.2-rasm)



2-rasm. **StringGrid** va **Button** elementlarni joylashtiramiz

4. Ob`yektlar Inspektori yordamida **StringGrid1** va **StringGrid2** elementlarning xossalariga quyidagi qiymatlarni beramiz:

FixedCols - 0

FixedRows - 0

ColCount - 4

RowCount - 4

StringGrid1 va **StringGrid2** elementlarning ulchamlarini shunday uzgartiramiz-ki 4 satr va 4 ustun sigadigan bo'lsin.

5. Ob`yektlar Inspektoridan ikki jadval (**StringGrid1** va **StringGrid2**) uchunham **Options** xossalarini tanlaymiz, unda sichqoncha ikki bosish qilib kiramiz. **goEditing** bayroqchani qiyamatini **True**ga teng qilamiz.

6. **Button1**, **Button2**, **Button3** elementlar uchu **Caption** xossalarining qiymati uchun mos ravishda '**Echim-1**', '**Echim-2**', '**Tozalash**' qiymatlarni beramiz.

7. **Echim-1** tugmasini faollashtirib **onClick** hodisasi uchun kod yozamiz:

```
procedure TForm1.Button1Click(Sender:TObject);
    var i:integer;
    begin
        for i:=1 to 3 do
            begin
                StringGrid2.Cells[i,0]:= StringGrid1.Cells[i,3];
                StringGrid2.Cells[i,3]:= StringGrid1.Cells[i,0];
                StringGrid2.Cells[i,1]:= StringGrid1.Cells[i,1];
                StringGrid2.Cells[i,2]:= StringGrid1.Cells[i,2];
            end
        end;
```

Ma`lumki, satr va ustunni nomerlash 0 dan boshlanadi, *Cells[j,i]* xossasidagi birinchi indeks ustun nomerini bildiradi, ikkinchi indeks satr nomerini.

8. Berilgan masalani **Rows** xossa yordamida ham echish mumkin. **Echim-2** tugmasini faollashtiramiz va **onClick** hodisasi uchun kodni echamiz:

```
procedure TForm1.Button2Click(Sender:TObject);
    begin
        StringGrid2.Rows[0]:= StringGrid1.Rows[3];
        StringGrid2.Rows[1]:= StringGrid1.Rows[1];
        StringGrid2.Rows[2]:= StringGrid1.Rows[2];
        StringGrid2.Rows[3]:= StringGrid1.Rows[0];
    end;
```

9. Ikkinchi jadvalni tozalash uchun **Tozalash** tugmasi ishlatiladi. Uni faollashtiramiz va kod yozamiz:

```
procedure TForm1.Button3Click(Sender:TObject);
    var i,j:integer;
    begin
        for i:=1 to 3 do
            for j:=1 to 3 do
                StringGrid2.Cells[j,i]:= '';
            end;
```

1. Bosh menyuning File | Save All buyrug'i yordamida loyixani saqlaymiz va uni ishga tushiramiz.

Masala: $\vec{Y} = A * \vec{B}$ vektorni aniqlash dasturini tuzing, bunda A- NxN o'lchovli kvadrat matritsa, Y, B- N tartibli bir o'lchovli massivlar. Y vektorning elementlari $Y_i = \sum_{j=1}^N A_{ij} \cdot B_j$ formula bilan topiladi.

The screenshot shows a window titled 'Form1' with two 4x4 grids. The top grid contains the following values:

1	1	1	1
2	2	2	2
3	3	3	3
4	4	4	4


The bottom grid contains the following values:

4	4	4	4
2	2	2	2
3	3	3	3
1	1	1	1

To the right of the grids are three buttons: 'Ечим-1', 'Ечим-2', and 'Тозалаш'.

N ning qiymatini TEdit komponentiga, A va B – TStringGrid komponentiga kiriting. Tbutton tipidagi knopkani bosgandan so`ng natijani TStringGrid komponentiga chiqaring.

TStringGrid komponentni sozlash

TStringGrid komponentini formaga o`rnatish uchun Additional sahifada sichqoncha bilan  piktogrammani bosish kerak. Shundan so`ng sichqoncha bilan formaning kerakli joyida bosiladi. Komponent chekkalarini belgilab uning o`lchovini to`g`rilanadi. Ob`yektlar inspektorida ColCount va RowCount xossalar qiymatlariga 2 ni (ikkita satr va ikkita ustun) o`rnatamiz, FixedCols va FixedRows larda 1 ni (tayinlangan sohalarda bitta satr va bitta ustun). StringGrid2 va StringGrid3 komponentlar faqat bir ustunga ega bo`lgani uchun ularda ColCount=1, RowCount=2, FixedCols=0 va FixedRows=1. Jimlik qoidasiga ko`ra TStringGrid komponentga axborotni klaviaturadan kiritish man qilingan, shuning uchun StringGrid1 va StringGrid2 komponentlar uchun Options goEditing xossaga True holatni o`rnatish zarur.

Dialog paneli 4-rasmda keltirilgan.

The screenshot shows a Windows form titled 'Form1' with a dialog panel. At the top, there are three labels: 'SrtingGrid1', 'StringGrid2', and 'StringGrid3', each with a line pointing to a corresponding grid in the form. The form contains the following elements:

- A label 'Массив улчови:' followed by a text box containing the value '3'.
- A button labeled 'Массив улчовини узгартириш'.
- A large grid labeled 'A - массив:' with columns 'i= 1', 'i= 2', and 'i= 3'. The data is as follows:

A - массив:	i= 1	i= 2	i= 3
i= 1	4	4	4
i= 2	3	3	3
i= 3	2	2	2
- A vertical list box labeled 'B - массив:' containing the values 3, 3, and 3.
- A vertical list box labeled 'Y - массив:.' containing the values 36,00, 27,00, and 18,00.
- A button labeled 'Хисоблаш' at the bottom center.

4-rasm. Dastur formasi

Dastur matni quyida keltirilgan.

```

unit Unit1;
interface
uses
  Windows, Messages, SysUtils, Classes, Graphics, Controls, Forms, Dia-
logs,
  StdCtrls, Grids;
type
  TForm1 = class(TForm)
    Label1: TLabel;
    Edit1: TEdit;
    Button1: TButton;
    Button2: TButton;
    StringGrid1: TStringGrid;
    StringGrid2: TStringGrid;
    StringGrid3: TStringGrid;
  procedure FormCreate(Sender: TObject);
  procedure Button1Click(Sender: TObject);
  procedure Button2Click(Sender: TObject);
  private
    { Private declarations }
  end;

```

```

public
  { Public declarations }
end;
const
  Nmax=10;
Type
  Mas2 = array[1..Nmax,1..Nmax] of extended;
  Mas1 = array[1..Nmax] of extended;
var
  Form1: TForm1;
  A : Mas2;
  B,Y : Mas1;
  N,i,j : integer;
implementation
  {$R *.DFM}
  procedure TForm1.FormCreate(Sender: TObject);
  begin
    N:=3;
    Edit1.Text:=FloatToStr(N);
    StringGrid1.ColCount:=N+1;
    StringGrid1.RowCount:=N+1;
    StringGrid2.RowCount:=N+1;
    StringGrid3.RowCount:=N+1;
    StringGrid1.Cells[0,0]:='A - massiv: ';
    StringGrid2.Cells[0,0]:='B - massiv: ';
    StringGrid3.Cells[0,0]:='Y - massiv: ';
    for i:=1 to N do begin
      StringGrid1.Cells[0,i]:=' i= '+IntToStr(i);
      StringGrid1.Cells[i,0]:=' j= '+IntToStr(i);
    end;
  end;
  procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
  begin
    N:=StrToInt(Edit1.Text);
    StringGrid1.ColCount:=N+1;
    StringGrid1.RowCount:=N+1;
    StringGrid2.RowCount:=N+1;
    StringGrid3.RowCount:=N+1;
    for i:=1 to N do begin
      StringGrid1.Cells[0,i]:=' i= '+IntToStr(i);
      StringGrid1.Cells[i,0]:=' j= '+IntToStr(i);
    end;
  end;
  procedure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);
  var s: extended;

```


```

begin
  for i:=1 to N do
    for j:=1 to N do
      A[i,j]:=StrToFloat(StringGrid1.Cells[j,i]);
    for i:=1 to N do
      B[i]:=StrToFloat(StringGrid2.Cells[0,i]);
    for i:=1 to N do begin
      s:=0;
      for j:=1 to N do s:=s+A[i,j]*B[j];
      Y[i]:=s;
      StringGrid3.Cells[0,i]:=FloatToStrf(y[i],ffixed,6,2);
    end;
  end;
end.

```

Mavzu: Fayllar bilan ishlash. Fayllar bilan ishlashning ob'yektli yondashuvi. C++ Buliderda muloqot oynalari. OpenFileDialog, SaveDialog, ColorDialog, FontDialog komponentalari bilan ishlash.

C++ Bulider tizimida muloqot oynalarini qo'llash uchun maxsus **Dialogs** nomli komponentalar palitrasi mavjud bo'lib, u o'z ichiga bir necha vizual bo'lmagan komponentalarni oladi. Ulardan **OpenDialog**, **SaveDialog** va **FontDialog** komponentalarini ko'rib chiqamiz.

OpenDialog komponentasi kompyuter fayl tizimini ko'rish va undan kerakli fayl nomini tanlash imkonini beradi. Bu komponenta piktogrammasi  ko'rinishga ega. U vizual bo'lmagan komponenta bo'lib, uni formaga sichqonchada bir marta bosib qo'yiladi va keyin uning xossalari o'rnatiladi.

Uning asosiy xossalarini ko'rib chiqamiz:

DefaultExt -faylning kengaytma nomini saqlaydi.

FileName -tanlangan fayl nomini saqlaydi.

Filter -fayl nomlarini muloqot darchasiga ko'rsatilgan kengaytma nom bo'yicha filtrlab chiqaradi. Masalan, agar .pas ko'rsatilgan bo'lsa muloqot oynasida faqat .pas kengaytmali fayllar chiqadi.

Filter xossasiga o'tilib uch nuqtali tugmacha bosilsa Filter Editor muloqot oynasi chiqadi. U ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda filtr matni ikkinchi qismida esa filtrning o'zi beriladi.

Masalan:

filtr matni nomlari:

Fayly moduley C++ Bulider (*.pas)

Текстовые документы (*.txt,*.doc)

Vse fayly (*.*)


va boshqa


mos filtrlar:

*.pas


*.txt; *.doc


**
Fayl ochish muloqot oynasining ko‘rinishi.



SaveDialog komponentasi kompyuter xotirasiga fayllarni saqlash imkonini beradi. Bu komponenta piktogrammasi  ko‘rinishga ega. U vizual bo‘lmagan komponenta bo‘lib, uni formaga sichqonchada bir marta bosib qo‘yiladi va keyin uning xossalari o‘rnatiladi. Agar uning DefaultExt xossasi qiymati .txt qilib tenglashtirilsa, faylni saqlashda avtomatik ravishda uning kengaytmasi .txt qilib saqlanadi.


Faylni saqlash muloqot oynasining ko‘rinishi.



FontDialog komponentasi foydalanuvchiga shriftlarni tanlaydi va uning xarakteristikasini belgilaydi. Bu komponenta piktogrammasi  ko‘rinishga ega.

U vizual bo‘lmagan komponenta bo‘lib, uni formaga sichqonchada bir marta bosib qo‘yiladi va keyin uning xossalari o‘rnatiladi. Uning Font xossasi shrift xarakteristikasini beradi.

SHriftni tanlash muloqot oynasining ko‘rinishi.




Misol

OpenDialog, **SaveDialog** va **FontDialog** komponentalarini ishlatgan holda oddiy matn muharriri yaratilsin.

Yechish

1. Yangi ilova yaratamiz.
2. Formaga matnlarni chiqarish uchun Standart komponentalar palitrasidan Memo komponentasini Memo1 nom bilan o‘rnatamiz.
3. Forma yuqorisiga OpenFileDialog, SaveDialog va FontDialog komponentalarini o‘rnatamiz. Bu komponentalarni vizual bo‘lmaganligi sabab, istalgan joyga o‘rnatsa bo‘ladi. Chunki dastur ishlashi vaqtida bu komponentalar ko‘rinmaydi.
4. Formaning pastki qismiga Standart komponentalar palitrasidan Botton komponentasini uch marta Botton1, Botton2 va Botton3 nomlar bilan o‘rnatamiz.



5. Memo1 komponentasining Lines xossasigakelib, uch nuqtali tugmachanibosamiz va muloqot oynasidan Memo1 soʻzinioʻchiramiz va Ok tugmasinibosamiz. (Bu degani ilovani ishga tushirganda muharrir oynasi boʻsh chiqadi.)

6. OpenFileDialog komponentasi xossalarini oʻrnatamiz. Buning uchun Filter xossasiga kirib, uning uch nuqtali tugmasini bosamiz. Hosil boʻlgan Filter Editor muloqot darchasiga quyidagilarni kiritamiz va Ok tugmasini bosamiz.

Filter Name qismiga


Текстовые документы (*.txt;*.doc)

Все файлы (*.*)

Filter qismiga

*.txt; *.doc

.



7. SaveDialog komponentasi xossalarini oʻrnatamiz. DefaultExt xossasi qiymatini .txt qilib tenglashtiramiz.

8. Botton1, Botton2 va Botton3 tugmachalar nomlarini ularning Caption xossasiga kirib, mos ravishda “Ochish”, “Saqlash” va “SHrift” nomlariga oʻzgartiramiz.

9. Botton1 tugmasini ikki marta tez-tez bosib, dastur kodlarini kiritish darchasiga o‘tib quyidagi operatorlarni kiritamiz.

With Opendialog1 do

Begin

If not Execute then Exit;

Memo1.Lines.LoadFromFile(Filename)

End;

10. Botton2 tugmasini ikki marta tez-tez bosib, dastur kodlarini kiritish darchasiga o‘tib quyidagi operatorlarni kiritamiz.

With Savedialog1 do

Begin

If not Execute then Exit;

Memo1.Lines.SaveToFile(Filename);

End;

11. Botton3 tugmasini ikki marta tez-tez bosib, dastur kodlarini kiritish darchasiga o‘tib quyidagi operatorlarni kiritamiz.

With Fontdialog1 do

Begin

If not Execute then Exit;


Memo1.Font:=Font;

End;

12. Tuzilgan loyiha (proekt) ya’ni Project1 va Unit1 standart modul nomlarini mos nomlar bilan almashtirib saqlaymiz.

13. Yangi nom bilan saqlangan proekt, ya’ni ilova F9 tugmachasini bosish bilan ishga tushiriladi.

Ilova ishga tushirilganda uning quyidagi ko‘rinishi ekranda namayon bo‘ladi.



Tashkil qilingan modulning to‘liq ko‘rinishini keltiramiz.

unit Diol1;
interface

uses

**Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics, Controls, Forms,
Dialogs, StdCtrls, Menus;**

type

```
TForm1 = class(TForm)
  Button1: TButton;
  Button2: TButton;
  Button3: TButton;
  Memo1: TMemo;
  OpenFileDialog: TOpenDialog;
  SaveDialog1: TSaveDialog;
  FontDialog1: TFontDialog;
  procedure Button1Click(Sender: TObject);
  procedure Button2Click(Sender: TObject);
  procedure Button3Click(Sender: TObject);
```

private

```
{ Private declarations }
```

public

```
{ Public declarations }
```

end;

var

```
Form1: TForm1;
```

implementation

```
{ $R *.dfm }
```

```
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
```

```
begin
```

```
  With OpenFileDialog do
```

```
    Begin
```

```
      If not Execute then Exit;
```

```
      Memo1.Lines.LoadFromFile(Filename)
```

```
    End;
```

```
end;
```

```
procedure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);
```

```
begin
```

```
  With SaveDialog1 do
```

```
    Begin
```

```
      If not Execute then Exit;
```

```
      Memo1.Lines.SaveToFile(Filename);
```

```
    End;
```

```
end;
```

```
procedure TForm1.Button3Click(Sender: TObject);
```

```
begin
```

```
  With FontDialog1 do
```

```
    Begin
```

```
      If not Execute then Exit;
```

```

Memo1.Font:=Font;
End;
end;
end.

```

Mavzu: C++ Bulider dasturlash tilining grafik imkoniyatlari, C++ Buliderdagi maxsus TCanvas, TFont, TPen, Tbrush klasslari.

C++ Bulider dasturchiga grafik dasturlar sxema, chertej, illyustratsiyalar yaratishga imkon beradi. Dastur grafikani ob'ekt (forma eki Image komponentasi) yuzasiga chiqaradi. Ob'ekt yuzasiga canvas xossasi moc keladi. Ob'ekt yuzasiga grafik element (to'g'ri chiziq, aylana, turtburchak va hokazo), chiqarish uchun bu ob'ektning canvas xossasiga mos usul qo'llash lozim. Misol uchun Form1.anvas. Rectangle (10,10,100,100) instruksiyasi dastur oynasida turtburchak chizadi.

Chizish sohasi

Bunda operatorining chap argumenti o'ng argumentga qo'shiladi va javob chap argumentdasaqlanadi. Biz har bir operatorni ushbu qisqartirilgan ko'rinishda yozsa olamiz (+=, -=, /=, *= %=). Ikkala qism birga yoziladi. Qisqartirilgan operatorlar tezroq yoziladi, tezroq kompilyatsiya qilinadi va ba'zi bir hollarda tezroq ishlaydigan mashina kodi tuziladi.

1 ga oshirish va kamaytirish operatorlari (increment and decrement) C++ da bir argument oluvchi **inkrement** (++) va **dekrement** (--) operatorlari mavjuddir. Bo'lar ikki ko'rinishda ishlatiladi, biri o'zgaruvchidan oldin (**++f** - **preinkrement**, **--d** - **predekrement**), boshqasi o'zgaruvchidan keyin (**s++** - **postinkrement**, **s--** - **postdekrement**) ishlatilgan holi. Bo'larning bir-biridan farqini aytin o'taylik. Postinkrementda o'zgaruvchining qiymati ushbu o'zgaruvchi qatnashgan ifodada shlatiladi va undan keyin qiymati birga oshiriladi. Preinkrementda esa o'zgaruvchining qiymati birga oshiriladi, va bu yangi qiymat ifodada qo'llaniladi. Predekrement va postdekrement ham aynan shunday ishlaydi lekin qiymat birga kamaytiriladi. Bu operatorlar faqatgina o'zgaruvchining qiymatini birga oshirish/kamaytirish uchun ham ishlatilinishi mumkin, yani boshqa ifoda ichida qo'llanilmasdan. Bu holda preva post formalarining farqi yo'q.

Masalan:

```
++r;
r++;
```

Yuqoridagilarning funksional jihattan hech qanday farqi yo'q, chunki bu ikki operator faqat r ning qiymatini oshirish uchun qo'llanilmoqda. Bu operatorlarni oddiy holda yozsak:

```
r = r + 1;
d = d - 1;
```

Lekin bizning inkrement/dekrement operatorlarimiz oddiygina qilib o'zgaruvchiga bir qo'shish/ayirishdan ko'ra tezroq ishlaydi. Yuqoridagi operatorlarni qo'llagan holda bir dastur yozaylik.

```
//Postinkremet, preinkrement va qisqartirilgan teglashtirish operatrlari
# include <iostream.h>
int main()
{
int k = 5, l = 3, m = 8;
```

```

cout << k++ << endl; //ekranga 5 yozildi, k = 6 bo'ldi.
l += 4; // l = 7 bo'ldi.
cout << --m << endl; // m = 7 bo'ldi va ekranga 7 chiqdi.
m = k + (++l); // m = 6 + 8 = 14;
return (0);
}

```

Dasturdagi o'zgaruvchilar e'lon qilindi va boshqangich qiymatlarni olishdi. cout << k++ << endl; ifodasida ekranga oldin k ning boshlangich qiymati chiqarildi, keyin esa uning qiymati 1 da oshirildi. l += 4; da l ning qiymatiga 4 soni qo'shildi va yangi qiymat l da saqlandi. cout << --m << endl; ifodasida m ning qiymati oldin predekrement qilindi, va undan so'ng ekranga chiqarildi. m = k + (++l); da oldin l ning qiymati birga ishirildi va l ning yangi qiymati k ga qo'shildi. m esa bu yangi qiymatni oldi. Oshirish va kamaytirish operatorlari va ularning argumentlari orasida bo'shliq qoldirilmasligi kerak. Bu operatorlar sodda ko'rinishdagi o'zgaruvchi-larga nisbatan qo'llanilishi mumkin halos. Masalan:

```
++(f * 5);
```

ko'rinish noto'g'ridir.

Mantiqiy amallar. C ++ tilidamantiqiytipyukdir. Shuninguchunmantiqiyamallarni-butunsonlargaqo'llanadi. Buamallarningnatijalariqo'yidagichaaniqlanadi:

*x//yamali 1 gatengagarx>0 ekiy>0 bo'lsa, aksincha 0 gateng
x&&y amali 1 ga teng agar x>0 va y>0 bo'lsa, aksincha 0 ga teng
!x amali 1 ga teng agar x>0 bulsa, aksincha 0 ga teng*

Bu misollarda amallar ustivorligi oshib borish tartibida berilgandir.

Inkor ! amali unar kolganlari binar amallardir.

Bu amallardan tashqari quyidagi amallar ham mavjuddir:

Qiymat berish amali. Qiymat berish amali = binar amal bo'lib chap operandi odatda o'zgaruvchi ung operandi odatda ifodaga teng bo'ladi. Misol uchun **Z=4.7+3.34**

Bu qiymati 8.04 ga teng ifodadir. Bu qiymat Z o'zgaruvchiga ham beriladi.

Bu ifoda ohiriga nuqta vergul ; belgisi quyilganda operatorga aylanadi.

```
Z=4.7+3.34
```

Bitta ifodada bir necha qiymat berish amallari qo'llanilishi mumkin. Misol uchun:

```
C=y=f=4.2+2.8;
```

Bundan tashqari C ++ tili da murakkab qiymat berish amali mavjud bo'lib, umumiy ko'rinishi quyidagichadir:

O'zgaruvchi_nomi amal= ifoda;

Bu erda amal quyidagi amallardan biri *,/,%,+,-, & , ^, |, <<, >>.

Misol uchun:

X+=4 ifoda x=x+4 ifodaga ekvivalentdir;

X*=a ifoda x=x*a ifodaga ekvivalentdir;

X/=a+b ifoda x=x/(a+b) ifodaga ekvivalentdir;

X>>=4 ifoda x=x>>4 ifodaga ekvivalentdir;

Sinov uchun savollar:

1. Qanday arifmetik amallarni bilasiz?
2. Qiymat berish amali qanday?

3. Ifoda qanday tuzilgan?
4. Inkrement va dekriment amallarini izoxlab bering?

Uyga vazifa : C++ tizimida arifmetik amallarni mukammal o'rganish va ularni amaloyotga tatbiq etish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

Mavzu: C++ tilida standart funksiyalar va ifodalar. C++ tilida dasturning umumiy tuzilishi.

Reja:

1. Sizeof amali.
2. Mantiqiy va taqqoslash amallar.

Ma'ruza bayoni

C++ tilida standart funksiyalar.

C++ tilida **math.h** matematik funksiyalar kutubxonasiga tegishli quyidagi funksiyalar mavjud:

<i>C++ tilida matematik funksiyalar</i>			
Funksiya	Belgilash	Funksiya	Belgilash
absolyut qiymat	<i>fabs(x)</i>	darajaga ko'tarish x^n	<i>pow(x,n)</i>
arctangens	<i>atan(x)</i>	qoldiqni hisoblash	<i>fmod(x,y)</i>
kosinus	<i>cos(x)</i>	x dan kichik bo'lmagan butun son	<i>ceil(x)</i>
sinus	<i>sin(x)</i>	x dan katta bo'lmagan butun son	<i>floor(x)</i>
natural logarifm	<i>ln(x)</i>	arcsinus	<i>asin(x)</i>
kvadrat ildiz	<i>sqrt(x)</i>	arccos	<i>acos(x)</i>
eksponenta	<i>exp(x)</i>	o'nli logarifm	<i>log10(x)</i>

Masalan : $ceil(4.8) = 5$, $floor(4.8) = 4$, $pow(2,5) = 32$, $fmod(5,3) = 2$.

Trigonometrik funksiyalarning qiymatlari radian o'lcho birligida hisoblanadi. **Masalan:** $\sin(1.2) = 0.932039$, $\cos(1.2) = 0.362358$, $\tan(1.2) = 2.57215$.

Agar trigonometrik funksiyalarni qiymatlarin graduslarda hisoblash kerak bo'lsa, ular radianga aylantiriladi yoki π orqali ifodalani. **Masalan:** $\sin 60^\circ = \sin(\pi/3) = \sin(\pi * 60/180) = 0.86576$.

C++ tilida ifodalar.

C++ tilida ifodalar o'zgarmlardan, o'zgaruvchilardan, funksiyalardan, amallar ishorasidan va qavslardan tuzilgan bo'lib, ostki va uctki indeksiz bir satrga yoziladi.

C++ tilida dasturlash tilida arifmetik, mantiqiy va satrli ifodalar ishlatiladi.

Arifmetik ifoda. C++ tilida arifmetik ifodalar o'zgaraslardan, o'zgaruvchilardan, funksiyalardan, amallar ishorasidan va qavslardan tuzilgan bo'ladi. Ifodalarda qatnashayotgan o'zgaraslar, o'zgaruvchilar va funksiyalar dasturda e'lon qilingan bo'lishi yoki standart nomiga ega bo'lishi kerak. Sonli qiymatlarni hisoblash uchun arifmetik ifoda qo'llaniladi.

Arifmetik ifodada bo'lish va ko'paytirish amallari qo'shish va ayirish amallaridan oldin bajariladi. **Masalan:** $3 + 2 * 5 - 3$ ifodaning bajarilishidan 10 hosil bo'ladi.

Bir xil o'rinli amallar ishtirok etgan ifodalarda ular chapdan o'ngga qarab bajariladi. **Masalan.** $4 * 6 / 3$ ifoda natijasi 8 ga teng.

Qavs ichiga olingan ifodalar birinchi navbatda bajariladi.

Masalan. $(7-2) * (5+4)$ ifoda natijasi 45 ga teng

Arifmetik ifodada haqiqiy va butun turdagi ma'lumotlar qatnashishi mumkin, natija ham mos ravishda haqiqiy yoki butun bo'ladi.

Oddiy yozuvda	C++ tilida
$\frac{a + 12,686}{c_2 - 1,87 \cdot 10^3} + \gamma$	$(a + 12.686) / (C2 - 1.87E3) + \text{gamma}$
$\frac{ 2 \sin 4x + x }{3x}$	$\text{fabs}(2 * \sin(4 * x) + x) / (3 * x)$
$\frac{2^2 + \ln 1,13}{\text{tg} 2x}$	$(2 * 2 + \ln(1.13)) / \tan(2 * x)$
$\frac{a^2 + 2^{1,17}}{\sqrt{x + y}}$	$(\text{pow}(a, 2) + \text{pow}(2, 1.17)) / \text{sqrt}(x + y)$
$\frac{ x - y }{1 + xy }$	$(\text{fabs}(x) - \text{fabs}(y)) / (\text{float})(1 + \text{fabs}(x * y))$
$\ln \left(\left(y - \sqrt{ x } \right) \left(x - \frac{y}{z + x^2 / 4} \right) \right)$	$\log(\text{fabs}((y - \text{sqrt}(\text{fabs}(x))) * (x - y / (z + \text{pow}(x, 2) / 4.0))))$

Mantiqiy ifoda. Mantiqiy ifodalar mantiqiy qiymatlar, mantiqiy va munosabat amallari, arifmetik hamda belgili qiymatlar qatnashib, natijasi **true** va **false** qiymat bo'lishi mumkin. Unda amallar quyidagi tartibda bajariladi:

1. not (yo'q);

2. * (ko'paytirish), / (bo'lish), div, mod, and (va)

3. + (qo'shish), - (ayirish), or (yoki);

4. < (kichik), <= (kichik yoki teng), = (teng), <> (teng emas), >= (katta yoki teng), > (katta);

Bitta satrda berilgan amallar bir xil bajarilish o'rniga ega. Mantiqiy ifodalarda faqat oddiy qavslar yoziladi.

Masalan. 1) $(A > 3)$ and $(B = A + 6)$ or not $(c = 4)$

2) $(A \leq x)$ and $(x \leq B)$ or $(c \leq x)$ and $(x \leq d)$

Dastur tuzilishi.

Sodda dastur tuzilishi. Dastur preprocessor komandalari va bir necha funktsiyalardan iborat bo'lishi mumkin. Bu funktsiyalar orasida **main** nomli asosiy funktsiya bo'lishi shart. Agar asosiy funktsiyadan boshqa funktsiyalar ishlatilmasa dastur quyidagi ko'rinishda tuziladi:

Preprocessor komandalari

```
Void main()
```

```
{
```

```
Dastur tanasi.
```

```
}
```

Preprocessor direktivalari kompilyatsiya jarayonidan oldin preprocessor tomonidan bajariladi. Natijada dastur matni preprocessor direktivalari asosida o'zgartiriladi.

Preprocessor komandalaridan ikkitasini ko'rib chiqamiz.

```
#include <fayl_nomi>
```

Bu direktiva standart bibliotekalardagi funktsiyalarni dasturga joylash uchun foydalaniladi.

```
#define <almashtiruvchi ifoda><almashinuvchi ifoda>
```

Bu direktiva bajarilganda dastur matnidagi almashtiruvchi ifodalar almashinuvchi ifodalarga almashtiriladi.

Misol tariqasida C++ tilida tuzilgan birinchi dasturni keltiramiz:

```
#include <iostream.h>
```

```
void main()
```

```
{
```

```
    Cout << "\n Salom, Dunyo! \n";
```

```
}
```

Bu dastur ekranga Salom, Dunyo! Jumlasini chiqaradi.

Define direktivasi yordamida bu dasturni quyidagicha yozish mumkin:

```
#include <iostream.h>
```

```
#define pr    Cout << "\n Salom, Dunyo! \n"
```

```
#define begin {
```

```
#define end }
```

```
void main()
```

```
    begin
```

```
        pr;
```

```
    end
```

Define direktivasidan nomlangan konstantalar kiritish uchun foydalanish mumkindir. Misol uchun: **#define EULER 2.718282**

Agar dasturda quyidagi matn mavjud bo'lsin:

Double mix=EULER

D=alfa*EULER

Preprocessor bu matnda har bir EULER konstantani uning qiymati bilan almashtiradi, va natijada quyidagi matn hosil bo'ladi.

Double mix=2.718282

D=alfa*2.718282

Dastur matni va preprocessor. C ++ tilida matnli fayl shaklida tayyorlangan dastur uchta qayta ishlash bosqichlaridan o'tadi.

Matnni preprocessor direktivalari asosida o'zgartilishi. Bu jarayon natijasi Yana matnli fayl bo'lib preprocessor tomonidan bajariladi.

Kompilyatsiya. Bu jarayon natijasi mashina kodiga o'tkazilgan obektli fayl bo'lib, kompilyator tomonidan bajariladi.

Bog'lash. Bu jarayon natijasi to'la mashina kodiga o'tkazilgan bajariluvchi fayl bo'lib, boglagich(komponent) tomonidan bajariladi.

Preprocessor vazifasi dastur matnini preprocessor direktivalari asosida o'zgartirishdir. Define direktivasi dasturda bir jumlaning ikkinchi jumla bilan almashtirish uchun ishlatiladi. Bu direktivadan foydalanishning sodda misollarini biz yuqorida ko'rib chiqdik. Include direktivasi ikki ko'rinishda ishlatilishi mumkin.

#include fayl nomi direktivasi dasturning shu direktiva urniga qaysi matnli fayllarni qo'shish kerakligini ko'rsatadi.

#include <fayl nomi> direktivasi dasturga kompilyator standart bibliotekalariga mos keluvchi sarlavhali fayllar matnlarini qushish uchun muljhallangandir. Bu fayllarda funktsiya prototipi, tiplar, o'zgaruvchilar, konstantalar ta'riflari yozilgan bo'ladi. Funktsiya prototipi funktsiya qaytaruvchi tip, funktsiya nomi va funktsiyaga uzatiluvchi tiplardan iborat bo'ladi. Misol uchun **cos** funktsiyasi prototipi quyidagicha yozilishi mumkin: **double cos(double)**. Agar funktsiya nomidan oldin void tipi ko'rsatilgan bo'lsa bu funktsiya hech qanday qiymat qaytarmasligini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki bu direktiva dasturga standart biblioteka qo'shilishiga olib kelmaydi. Standart funktsiyalarning kodlari bog'lash ya'ni aloqalarni tahrirlash bosqichida, kompilyatsiya bosqichidan so'ng amalga oshiriladi.

Kompilyatsiya bosqichida sintaksis hatolar tekshiriladi va dasturda bunday hatolar mavjud bo'lmasa, standart funktsiyalar kodlarisiz mashina kodiga utkaziladi.

Sarlavhali fayllarni dasturning ixtiyoriy joyida ulash mumkin bo'lsa ham, bu fayllar odatda dastur boshida qo'shish lozimdir. Shuning uchun bu fayllarga sarlavhali **fayl (header file)** nomi berilganidir.

Dasturda kiritish va chiqarish funktsiyalaridan masalan **Cout<<** funktsiyasidan foydalanish uchun **#include <iostream.h>** direktivasidan foydalanish lozimdir Bu direktivada **iostream.h** sarlavhali fayl nomi quyidagilarni bildiradi: **st-** standart(standartni), **i-** **input(vvod),o-** **output(vihvod),h** – **head(sarlavha).**

Sinov savollari

1. Sizeof amali nima?
2. Qanday mantiqiy amallarni bilasiz?
3. Taqqoslash amallari nim a uchun ishlatiladi?
4. C++ tili dastur qanday tuzilgan?
5. Dasturning har bir qismini izohlab bering.

Uyga vazifa: *mantiqiy va taqqoslash amallariga doir 5 tadan misolni daftaringizga yozing*

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

Mavzu: C++ tilining asosiy operatorlari. Operator tushunchasi.

Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish operatorlari. Sizeof amali.

Reja:

1. Operator tushunchasi.
2. Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish operatorlari.
3. Sizeof amali.

Ma'ruza bayoni

C++ tilining asosiy operatorlari.

Operator - bu qandaydir amalni bajarish to'g'risida kompilyatorga uzatiladigan literal(buyruq)dir. Operatorlar operandlarga ta'sir qiladi. C++ da operandlar deb alohida literallar va butun ifodalar tushuniladi.

C++ tilida dastur tuzishda yuqorida berilgan qiymat berish (=) operatoridan tashqari bir nechta operatorlar ma'lumotlarni kiritish va chiqarish, tarmoqlanish va takrorlanish operatorlari ham ishlatiladi.

Ma'lumotlarni kiritish operatori.

Ma'lumki komputerdan har qanday o'zgaruvchining qiymati xotiraga kiritiladi hamda barcha amallar xotiradagi o'zgaruvchilar ustida bajariladi va natija ham xotirada hosil bo'ladi. Ma'lumotlarni kiritish operatori dasturda o'zgaruvchilarga klaviatura orqali boshlang'ich qiymatlarni berish uchun ishlatiladi.

Ma'lumotlar cin operatori yordamida kiritiladi. Qiymati kiritiladigan o'zgaruvchilar bu operatoridan keyin bir-birlaridan ">>" belgi bilan ajratilgan holda yoziladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

```
cin>>a1>>a2>>...>>an;
```

Bu yerda a1,a2,...,an qiymatlari kiritilishi talab etilgan o'zgaruvchilarning nomi.

cin operatori bajarilganda dastur bajarilishi to'xtaydi va kerakli ma'lumotlarni kiritilishini kutadi.

Masalan. cin>>a>>b>>c; bunda operator bajarilganda keyin a,b,c o'zgaruvchilarga tavsifi bo'yicha mos qiymatlarni berish talab etiladi. Kiritilayotgan qiymatlar o'zgaruvchilar qanday tartibda berilgan bo'lsa, ularga va ularning turiga mos qiymatlar bir-biridan bo'shliq(probel) belgisi bilan ajratilgan holda beriladi: 5 6.8 9. Buning natijasida a=5, b=6.8, c=9 qiymatga ega bo'ladi.

Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Kiritilayotgan qiymatlarni o'zgaruvchilar kiritish bo'yicha qabul qiladi, ya'ni cin operatoridagi 1-o'zgaruvchi kiritilgan 1-qiymatni va hokaza n-o'zgaruvchi kiritilgan n-qiymatni qabul qiladi..
2. Kiritilayotgan qiymatlar o'zgaruvchi dasturda tafsivlangan turga mos kelishi kerak, aks holda xatolik sodir bo'lishi mumkin..
3. **cin** operatori dasturning ixtiyoriy joyida va o'zgaruvchilar foydalanishidan oldin kelishi mumkin cin operatori orqali o'zgaruvchilarga alohida-alohida qiymat berish mumkin:

cin>>a; cin>>b; cin>>c; yozuvcin>>a>>b>>c; bilan teng kuchlidir.

Agar cin operatori orqali kiritilayotgan o'zgaruvchilar haqiqiy turga mansub bo'lib, ularga kiritilayotgan qiymatlar butun bo'lsa, ularni haqiqiy son ko'rinishida qabul qiladi. Masalan:

```
int main()
{
    float a,b,c,p,s;
```

cin >> a>>b>>c;

Kiritilayotgan son mos ravishda **5 6 8** bo'lsa, natijada a=5.0 , b=6.0, c=8.0 ega bo'ladi.

Ma'lumotlarni chiqarish operatori.

Dasturda hosil bo'lgan natijalarni chiqarish uchun chiqarish operatori ishlatiladi. Dastur natijalari **cout** operatori yordamida ekranga chiqariladi.

O'zgaruvchilar **cout** operatoridan keyin bir-birlaridan "<<" belgi bilan ajratilgan holda ko'rsatiladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

cout<<b1<<b2<<.....<<bn; bu yerda **b1,b2,...,bn** chiqarilotgan natijalar.

cout operatorida b1,b2,...,bn sifatida quyidalar qatnashishi mumkin:

1. **Qiymati chiqarilayotgan o'zgaruvchilar:** **cout<<x1<<x2;**

2. **Satrlı o'zgarmaslar.** Ular qo'shtirnoq ichiga olingan belgilar va harflar ketma ketligidan iborat bo'lib, dastur ixtiyoriy joyida matn yoki izohlarni chop etish uchun ishlatiladi: **cout<<"a,b,c o'zgaruvchilarga qiymat bering";**

Matnda boshqaruv belgilaridan foydalanish mumkin, masalan '/n'; Bu belgi undan keyin yozilgan ma'lumotni yangi satrdan chop etishni amalga oshiradi:

cout<<"kvadrat tenglamaning ildizlari /n"<<"x1="<<x1<<"x2="<<x2;

Bu operatorning bajarilishida quyidagi hosil bo'ladi:

kvadrat tenglamaning ildizlari

x1=

x2=

3. **Sonli o'zgarmlar.** Kompyuter yordamida tilning ba'zi bir elementlarini o'rganishda qo'llaniladi. Real dasturlashda undan juda kamdan-kam holda foydalaniladi Masalan: **cout<<6;**

4. **Ifoda.** Qavs ichida yozilgan ifodalar qatnashishi mumkin. Masalan : **cout<<(a+b);**

5. **endl** kalit so'zi. Bu chiqarish manipulyatori deb yurutiladi. Bu so'zdan keyin ma'lumotlar yangi satrdan chiqailadi. Masalan:

int a=2, b=5;

cout<<"\n yig'indi " <<(a+b)<<" \n Ko'paytma "<<(a*b); yoki

cout<<endl<<" Cymma " <<(a+b)<<endl<<" Ko'paytma "<<(a*b);

Ikkala operatorning bajarilishida ham bir xil natija hosil bo'ladi.

Sizeof amali

Har xil turli o'zgaruvchilar, o'zgarmlar, turning o'zi kompyuter xotirasida har xil joylar egallaydi. Hatto bir turli o'zgaruvchilarning o'zi har xil kompyuterlarda va bir xil operatsion sistemalarda har xil joy egallashi mumkin.

O'zgaruvchilar, o'zgarmlar va turlarning xotiradan qancha joy egallashini aniqlash maqsadida **sizeof** amalidan foydalaniladi. Buni quyidagi dastur misolida ko'ramiz:

```
int main ( )
{ int a, b, c; float x, y, z;
cout << "\n butun =" << sizeof (int);
cout << "\n haqiqiy =" << sizeof (float);
cout << "\n bul turi =" << sizeof (bool);
cout << "\n a =" << sizeof (a);
cout << "\n x =" << sizeof (x);
return 0;
}
```

sizeof amali operand sifatida ko'rsatilgan ob'ektning baytlarda hotiradagi hajmini hisoblash uchun ishlatiladi. Bu amalning ikki ko'rinishi mavjud: sizeof ifoda sizeof (tip) Misol uchun:

Sizeof 3.14=8

Sizeof 3.14f=4

Sizeof 3.14L=10

Sizeof(char)=1

Sizeof(double)=8.

Amallar ustivorligi

Rang	Amallar	Yo'nalish
1	() [] -> :: .	Chapdan o'ngga
2	! ~ + - ++ -- & * (tip)	O'ngdan chapga

	sizeof new delete tip()	
3	. * ->*	Chapdan o'ngga
4	* / % (multiplikativ binar amallar)	Chapdan o'ngga
5	+ - (additiv binar amallar)	Chapdan o'ngga
6	<<>>	Chapdan o'ngga
7	<<= >= >	Chapdan o'ngga
8	= !=	Chapdan o'ngga
9	&	Chapdan o'ngga
10	^	Chapdan o'ngga
11		Chapdan o'ngga
12	&&	Chapdan o'ngga
13		Chapdan o'ngga
14	?:(shartli amal)	Chapdan o'ngga
15	= *= /= %= += -= &= ^= = <<= >>=	Chapdan o'ngga
16	, (vergul amali)	Chapdan o'ngga

Mavzu: C++ tilida dasturda izohlar berish. C++ tilida chiziqli dastur.

Reja:

1. C++ tilida dasturda izohlar berish.
2. C++ tilida chiziqli dastur.
3. Misollar

Ma'ruza bayoni

C++ tilidasturdaizohlarberish

C++ tilidasturdaoperatorlarningbajarilishihamdaundaqatnasahayotgano'zgaruvchivao'zgarvasgaizohlarberishimkoniyatimavjud.

Izohlarmatnko'rinishidaberiladi. Izohlarkompilyatordaqaaytaishlanmaydivaoperatoringbajarilishigata'sirqilmaydi.

C++ tilidaizohlarniikkixilko'rinishdajoylashtirishmumkin:

- ikkitaketma-ketkeluvchiqiyshiqchiziq (//) orqali. Unidasturniixtiyoriysatrigajoylashtirishmumkin. Bundanqisqaizohlarberishuchunfoydalaniladi.
- Izohningboshiga /* belginivaoxiriga */ belgisiniqo'yishorqali. /* va */ belgilariorasidagimatnizohnibildiradi. Bu usulda uzun izohlarni berish uchun foydalaniladi.

Masalan

```
{
int i, n, k; // i, n, k lar butun turli o'zgaruvchilar
float x,y,z; / * x,y,z o'zgaruvchilar haqiqiy tuga tegishli ekanligi ko'rsatilgan va
ular qabul qiladigan qiymat haqiqiy ko'rinishda bo'ladi */
.....
}
```

C++ tilida chiziqli dastur


Yuqorida bayon qilingan qiymat berish, ma'lumotlarni kiritish va chiqarish operatorlari yordamida chiziqli dastur tuzish mumkin.

1-misol. Uchburchak tomonlarining uzunliklari bilan berilgan bo'lsa uning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.


Dastur. C++ tilida dastur quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a,b,c,p,s;
    cout << "Uchburchak tomonlarini kiriting (a+b)>c,(c+a)>b,(c+b)>a
bo'lsin= ";
    cin >> a>>b>>c;
    p=(a+b+c)/2;
    s=sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c));
    cout << "Uchburchakning perimetri: " << p<<" Uchburchakning yu-
zasi= "<<s;
    return 0;
}
```


Bu tuzilgan dasturni ishlatish uchun eng avval **Code::Bloks** muhitini ishga tushirish (*Пуск→Все программы→CodeBloks→CodeBloks*) kerak. Shundan so'ng yangi fayl (*File→New→Project*) yaratiladi. Songra uning ishchi sohasi klaviatura orqali dastur kiritiladi.

The image shows a screenshot of the Code::Blocks IDE. The window title is "main32.c - Code::Blocks 8.02". The menu bar includes File, Edit, View, Search, Project, Build, Debug, wxSmith, Tools, Plugins, Settings, and Help. The toolbar contains various icons for file operations and execution. The main editor area shows the C++ code from the previous block, with line numbers 1 through 16 on the left. The code is: 1 #include <iostream>, 2 #include <math.h>, 3 using namespace std;, 4 int main(), 5 {, 6 float a,b,c,p,s;, 7 cout << "Uchburchak tomonlarini kiriting (a+b)>c,(c+a)>b,(c+b)>a bo'lsin= ";, 8 cin >> a>>b>>c;, 9 p=(a+b+c)/2;, 10 s=sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c));, 11 cout << "Uchburchakning perimetri: " << p<<" Uchburchakning yuzasi= "<<s;, 12 return 0;, 13 }, 14, 15, 16. The status bar at the bottom indicates "main() : int".


Dastur kiritlgandan keyin u kompilyatsiya qilinadi, ya'ni xatoliklar tekshiriladi.




Agar xatolik mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida xabar hosil bo'ladi:




Agar xatolik mavjud bo'lsa u tuzatilib, yana kompilyatsiya qilinadi. Hozirgi holatda xatolik mavjud emas. Endi dasturni bajaramiz:




Bu buyruq bajarilgandan quyidagicha oyna hosil bo'ladi:




Bu a,b,c o'zgaruvchilarga qiymat berish kerakligini bildiradi. Biz 6 8 9 qiymatlarni klaviaturadan kiritamiz va enter tugmachasini bosamiz:



Quyidagicha natija hosil bo'ladi:



Dasturni a,b,c o'zgaruvchilarning boshqa qiymatlarida ishlatish uchun



Buyrug'ini bajarish yetarli.

2-misol. Arifmetik progressiyaning birinchi hadi, ayirmasi berilgan bo'lsa uning n-hadi va n ta hadlar yig'indisini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a1,d,xn,sn;
    int n;
    cout<<"arifmetik progressiyaning 1-hadini kiritng= ";
    cin>>a1;
    cout<<"arifmetik progressiyaning ortirmasini kiritng= ";
    cin>>d;
    cout<<"arifmetik progressiyaning hadlar sonini kiritng= ";
    cin>>n;
    xn= a1+(n-1)*d;
    sn=(a1+xn)/2*n;
    cout<<"arifmetik progressiyaning "<<n<<" hadi= "<<xn;
    cout<<"\narifmetik progressiyaning "<<n<<" ta hadi yig'indisi= "<<sn;
    return 0;
}
```

3-misol. $w = \frac{(x+y)^2}{2}$, $r = \sqrt{2\pi} + w$, $s = \pi r^2 + vw$ ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float x,y,w,v,s,r,Pi=3.1415;
    cout << "Ixtiyoriy uchta son kiritng= ";
    cin >> x>>y>>v;
    w=((x+y)*(x+y))/2;
    r=sqrt(2*Pi)+w;
```

```

    s=Pi*r*r+v*w;
cout << "Ifoda= " << s;
    return 0;
}

```

Nazorat uchun savollar

1. Operator nima?
2. C++ tilida dastur qanday tuzilgan?
3. Dasturning har bir qismini izohlab bering.
4. Ma'lumotlarni kiritish uchun qanday operatorlar ishlatilsadi?
5. Kiritish operatoridan foydalanish usullarini tushintiring.
6. Ma'lumotlarni chiqarish uchun qanday operatorlar ishlatilsadi?
7. Chiqarish operatoridan foydalanishni tushintiring.
8. O'zgaruvchilar qiymati va o'zgarmaslar qanday chiqariladi?
9. C++ tilida dasturi izohlar qanday beriladi?
10. Chiziqli dastur nima?

Uyga vazifa:

1. Ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing:

$$2. \quad a = \sqrt[3]{x + \sqrt{y}}; \quad b = \sqrt{y}l^{-(y+4/2)},$$

3. Tomonlari bilan berilgan uchburchakning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
4. Uchlarining koordinatalari bilan berilgan uchburchakning perimetri va yuzasini topish dasturini tuzing.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13],[14],[15],[16]

Mavzu:Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash. Shartsiz va shartli o'tish operatorlari.

Reja:

1. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash.
2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash.
3. ? shart operatori. Goto operatori va nishonlar.
4. ? shart operatori. Goto operatori va nishonlar.
5. Misollar

Ma'ruza bayoni

Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash

Agar dasturning bajarilishi davomida buyruqlar ketma-ketligi biror shartga asosan o'zgarsa, bunday hollarda tarmoqlanish jarayonini tashkil etadigan operatorlardan foydalaniladi. C++ tilida tarmoqlanuvchi jarayonlarga dastur tuzishda tarmoqlanish operatorlaridan foydalaniladi. Tarmoqlanish operatorlari shartli o'tish, shartsoz o'tish va tanlash operatorlarinidan iborat bo'ladi.

Shartsiz o'tish operatori.

Bu operator hech imkon bo'lmay qolgan holda dasturning tabiiy bajarilishini buzib, boshqaruvni dasturning ixtiyoriy joyiga uzatish uchun xizmat qiladi.

O'tish operatori qo'yidagicha beriladi:

goto nishon(belgi);

bu yerda **goto(..ga o'tish)** - operator nomi, **nishon** – bu belgi bo'lib, u harf, harflar yoki harf va sonlar bo'lishi mumkin. Bu operatoridan foydalanish uchun boshqaruv shartsiz ravishda uzatiladigan operator belgilanadi. Operatorni belgilash uchun uning oldiga **nishon** va **:** qo'yiladi: **nishon : operator;**

Masalan: **goto a;**

.....

a: y=x*x+c;

Bu yerda **goto a;** operatori bajarilgandan keyin boshqaruv to'g'ridan-tog'ri **a:y=x*x+c;**operatorga uzatiladi.

Shartli o'tish operatori.

C++ tilida shartli o'tish operatorining qisqa va to'liq ko'rinish-laridan foydalaniladi.

Qisqa shartli o'tish operatori. **Shartli operatorning qisqartirilgan ko'rinishi quyidagicha:**

if (ifoda) {s1;s2;...;sn};

Bu yerda **if** kalit so'zi bo'lib, **agar** degan ma'noni bildiradi hamda har doim lotin alifbosining kichik haraflari bilan yoziladi. Qavs ichida yozilgan **ifoda**arifmetik, mantiqiy, taqqoslash va boshqa amallardan tashkil topgan mantiqiy ifoda bo'lib, u **true** yoki **false** qiymatlarini qabul qiladi. **s1,s2,..sn** operatorlar ketma-ketligi.

Bu operator quyidagicha bajariladi: agar mantiqiy ifodaning qiymati rost (**true**) bo'lsa **{s1;s2;...;sn};**operatorlar ketma – ketligi bajariladi, aks holda keyingi qatorga o'tiladi.

1-misol.

$$y = \begin{cases} \cos x + 2x, & \text{agar } x < 3 \text{ bo'lsa} \\ \sqrt[4]{x^3}, & \text{agar } x \leq 3 \text{ bo'lsa} \end{cases}$$
 ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float x,y;
    cout << "x o'zgaruvchining qiymatini kiriting = ";
    cin >> x;
    if (x<3)    { y=cos(x)+2*x; goto a1;}
    y=pow(x,4/3);
    a1: cout << "Ifodaning qiymati: " << y;
    return 0;
```

Dasturda:

1) standart funksiyalardan foydalanilgani uchun qo'shimcha **#include <math.h>**chaqirildi;


- 2) x va y o'zgaruvchilar haqiqiy turga mansub bo'lganligi uchun x o'zgaruvchiga klaviaturadan ixtiyoriy qiymat beriladi;
- 3) agar $x < 3$ dan kichik bo'lsa $y = \cos x + 2x$ funksiyasi hisoblanadi va jarayon **goto a1**; orqali natajani chiqarish operatoriga uzatiladi. Bu yerda $y = \cos x + 2x$; **goto a1**;lar birga kelgani uchun alohida { }belgilar ichiga olingan.
- 4) Agar $x < 3$ shart bajarilmasa u holda $y = \text{pow}(x, 4/3)$; operator bajariladi va natija chiqariladi.

2-misol. Berilgan sonning juft yoki toqligini aniqlash dasturini tuzing:


Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main ()
{ int n;
cout << "Ixtiyoriy butun sonni kiriting ";
cin>>n;
if(n%2 == 0) cout << "\n bu "<<n<<" soni juft "<<endl;
if (n%2!= 0) cout << "\n bu "<<n<<" soni toq "<<endl;
return 0;
}
```


Dasturga izoh. Dastur bajarilganda ekranda quyidagicha yozuv hosil bo'ladi:



Ixtiyoriy butun son beramiz:



Quyidagi natija hosil bo'ladi:



C++ tilida dastur tuzish jarayonida goto operatoridan foydalanish uncha maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Shuning uchun tarmoqlanish operatorining boshqa ko'rinishlaridan foydalaniladi.

To'liq shartli o'tish operatori. Shartli operatorning to'liq ko'rinishi quyidagicha:

if (ifoda) {s1;s2;...;sn;} else {p1;p2; ...;pm;}

Bu yerda **if** va **else** kalit so'zlar bo'lib, mos ravishda **agar** va **aks holdadegan** ma'noni bildiradi hamda ular hardoim lotin alifbosining kichik harflari bilan yoziladi. Qavs ichida yozilgan **ifoda** arifmetik, mantiqiy, taqqoslash va boshqa amal-

lardan tashkil topgan mantiqiy ifoda bo'lib, u **true** yoki **false** qiymatlarini qabul qiladi. **s1;s2;...;sn;** va **p1;p2; ...;pm** lar operatorlar ketma-ketligi.

Bu operator quyidagicha bajariladi: agar mantiqiy ifodaning qiymati rost (**true**) bo'lsa **{s1;s2;...;sn;}** operatorlar ketma – ketligi bajariladi, aks holda **{p1;p2; ...;pm;}** operatorlar ketma – ketligi bajariladi. Bu yerda bir nechta operatorlar birgalikda kelsa ular **{ }** belgilar ichiga olinadi.

Masalan.a) if (x<0) i=i+1 else k=k+1;

b) if (a>=0) y=sqrt(a+1) else y=pow(a,2);

1-misol.

$$y = \begin{cases} \cos x + 2x, & \text{agar } x < 3 \text{ bo'lsa} \\ \sqrt[4]{x^3}, & \text{agar } x \leq 3 \text{ bo'lsa} \end{cases} \quad \text{ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing.}$$

Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float x,y;
    cout << "x o'zgaruvchining qiymatini kiriting = ";
    cin >> x;
    if (x<3) y=cos(x)+2*x;
    else y=pow(x,4/3);
    cout << "Ifodaning qiymati: " << y;
    return 0;
}
```

2-misol. Berilgan uchta a,b,c haqiqiy sonlaridan eng kattasini topish dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a,b,c,z,max;
    cout << "Ixtiyoriu 3 ta haqiqiy qiymatni kiriting: ";
    cin >> a>>b>>c;
    if (a>b)
        z=a; else z=b;
    if (z>c)
        max=z; else max=c;
    cout << "Sonning kattasi= " << max;
    return 0;
}
```

C++ tilida shartli o'tish operatoridan foydalanishda mantiqiy **or (&&)**, **and (| |)**, **not(!)** amallarini ham qo'llash mumkin:

a) if ((x<y) and (x<c)) z=2*x+y; else z=pow(x,3)+pow(y,4) ;

b)if ((a==0) or (b==0) or (c==0)) goto d5;

3-misol. $ax^2 + bx + c = 0$ ($a \neq 0, b \neq 0, c \neq 0$) kvadrat tenglamaning ildizlarini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream>
```

```
#include <math.h>
```

```
using namespace std;
```

```
int main()
```

```
{
    float a,b,c,d,x1,x2;
    b:cout << "Kvadrat tenglama koefitsientlarini kiritng a<>0,b<>0,c<>0
bo'lsin= ";
    cin >> a>>b>>c;
    if ((a==0) or (b==0) or (c==0)) goto b;
    d=b*b-4*a*c;
    if (d<0)
    {
        cout<<"Haqiqiy yechim mavjud emas";
        return 0;
    }
    if (d>0)
    {x1=(-b+sqrt(d))/(2*a);
    x2=(-b-sqrt(d))/(2*a);
    cout << "Ikkita yechim mavjud: x1= " << x1<<" x2= " <<x2;
    } else cout<< "Karrali yechim mavjud: x1=x2=" <<x1;
    return 0;
}
```

Shartli o'tish operatorlari **ichma- ich joylashgan** ko'rinishda ham bo'lishi mumkin: *if (B1) S1; else if (B2) S2; else S3;* Bu yerda **B1,B2** - mantiqiy ifodalalar, **S1,S2,S3**- operatorlar. Bu operatorlarda *if (B2) S2; else S3;* ichki operator **B1** mantiqiy ifodaning qiymati *yolg'on(false)* bo'lsa bajariladi.

if (1-ifoda)

1-operatorlar ketma-ketligi;

else if (2-ifoda)

2-operatorlar ketma-ketligi; ...

else if (n-ifoda)

n-operatorlar ketma-ketligi;

else

(n+1)-operatorlar ketma-ketligi;

Ichma- ich joylashgan shartli operatorning boshqacha ko'rinishi quyidagicha: *if (B1) if (B2) S1; else S2; else S3;*

Ichki joylashgan *if (B2) S1; else S2;* operator **B1** ifoda *chin(true)* qiymatga ega bo'lsa bajariladi va buni C++ tilida quyidagicha, ya'ni har bir ichki va tashqi shartli

operatorlarni alohida { } belgilari ichiga yozish maqsadga muvofiq:

```
    if (B1)
{ if (B2) S1; else S2;}
    else S3;
```

Umumiy holda ichma- ich joylashgan shartli operatorni quyidagicha yozish mumkin:

if (1-ifoda)

1-operatorlar ketma-ketligi;

else if (2-ifoda)

2-operatorlar ketma-ketligi; ...

else if (n-ifoda)

n-operatorlar ketma-ketligi;

else

(n+1)-operatorlar ketma-ketligi;

Masalan: if (d or b) { if (x<0) x:=2+x;}

else { if (x<y) x:=x+0.5; else y:=y+0.5; }

Misol. Talabalarni test yakunlari bo'yicha baholash dasturini tuzing. (eng yuqori bal x=100).

Dastur.

```
#include <iostream>
```

```
#include <math.h>
```

```
using namespace std;
```

```
int main()
```

```
{
```

```
    float x;
```

```
    cout << "Talabani balini kiriting = ";
```

```
    cin >> x;
```

```
    if (x >= 85) cout << "\ta'lo"; else
```

```
        { if ((x < 85) and (x >= 75)) cout << "\tyaxshi";
```

```
            else { if ((x < 75) and (x >= 55)) cout << "\tqoniqarli";
```

```
                else cout << "\tqoniqarsiz";
```

```
        }
```

```
        return 0;
```

```
}
```

Nazorat uchun savollar

1. Tarmoqlanuvchi jarayonni tushuntiring.
2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash uchun qanday operatorlar ishlatiladi?
3. Shartli o'tish operatori qanday tuzilmalarga ega?
4. To'liq shartli o'tish operatorini bajarilishini tushuntiring.
5. Murakkab shartli o'tish operatorlari qanday bo'ladi?
6. Shartsiz va shartli o'tish operatorlarini vazifasini tushuntiring.
7. Tanlash operatorining vazifasi nimadan iborat va uning umumiy ko'rinishi?
8. Tanlash operatorining shartli operatoridan farqi qanday?
9. ? shart operatorini bajarilishini tushuntiring.

10. Nima uchun goto operatori ko'p ishlatilmaydi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. a,b,c sonlarini o'sish tartibida joylashtirish dasturini tuzing.
2. a,b,c kesmalar uzunliklari bilan berilgan. Ular orqali uchburchak yasash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash dasturini tuzing.
3. Yuzasi S1 ga teng bo'lgan doira, yuzasi S2 ga teng bo'lgan kvadtaga joylashishini aniqlash dasturini tuzing .
4. Koordinatalari bilan berilgan a(x,y) nuqtani koordinatalar tekisligida joylashish o'rnini aniqlash dasturini tuzing.
5. Berilgan ikkita a va b sonlarining kichigini ularning yig'indisi, kattasini esa ularning ko'paytmasi bilan almashtirish dasturini tuzing.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

Mavzu: ? shart operatori. Goto operatori va nishonlar. Tanlash operatori.

Reja:

1. ? shart operatori. Goto operatori va nishonlar.
2. Goto operatori va nishonlar.
3. Tanlash operatori
4. Misollar

Ma'ruza bayoni

? shart operatori.

? shart operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

X=B1 ? S1: S2;

bu yerda X-operatorni bajarilish natijasini qabul qiluvchi o'zgaruvchi; B1-mantiqiy ifoda bo'lib **chin(true)** yoki **yolg'on(false)** qiymatni qabul qiladi; S1-mantiqiy ifodaning qiymati true bo'lgan bajariladigan operator; S2-mantiqiy ifodaning qiymati **false** bo'lgan bajariladigan operator.

Amalning bajarilish tartibi shartli o'tish operatorining bajarilish tartibiga o'xshaydi. Ya'ni mantiqiy ifodaning qiymati chin yoki 0 dan farqli bo'lsa, birinchi operator, yolg'on (false) yoki 0 bo'lsa, ikkinchi operator bajariladi. Shartli o'tish operatoridan farqi shundaki, amal natijasi biror bir o'zgaruvchiga qiymat sifatida beradi.

Misol. Ixtiyoriy berilgan to'rtta haqiqiy sondan eng kattasini topish dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    float a,b,c,x,x1,x2,d;
    cout<<" ixtiyoriy 4 ta son kiriting ";
    cin>>a>>b>>c>>d;
    x=a>b?a:b;
```

```

    x1=c>d?c:d;
    x2=x>x1?x:x1;
cout<<"\t katta son ="<<x2;
    return 0;
}

```

Tanlash operatori.

Algoritmning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ular uchun berilgan hisoblash jarayonlari ko'p tarmoqli bo'ladi. Bunday hisoblash jarayonlarini Paskal tilida yozishning usullaridan biri bizga ma'lum bo'lgan operatoridir. Agar hisoblash jarayonida qo'yilgan shartlar soni ikkitadan ortiq bo'lsa, u holda shartli operatoridan foydalanish ancha qiyinchilik tug'diradi. Ana shunday hollarda C++ tilida tanlash operatori qo'llaniladi.

Tanlash operatori Paskal tilida hosil qilinadigan operatorlardan hisoblanib, shartli operatorning umumlashmasidan iboratdir.

Tanlash operatori quyidagicha umumiy ko'rinishga ega :

```

switch (ifoda)
{
  case 1-o'zgarmas ifoda: 1-operatorlar ketmaketligi; break;
  case 2-o'zgarmas ifoda: 2-operatorlar ketmaketligi; break;
  .....
  case n-o'zgarmas ifoda: n-operatorlar ketmaketligi; break;
  default;
    operatorlar ketmaketligi;
}

```

Tanlash operatorida ifodaning qiymatiga qarab, dasturda berilgan operatorlar ketma-ketligidan birini tanlaydi.

break operatori dastur bajarilishini **switch** operatoriga taaluqli blokdan chiqarib yuboradi.

Agar ifodaning qiymati ro'yxatda berilgan ifodalarning qiymati bilan bir xil bo'lmasa **default** operatoridan keying operatorlar bajariladi va tanlash operatorini bajarilishi tugaydi.

Switch (x<=0)

```

{ case true: y:=sqrt(sqr(x)-x+2);cout<<y;break;
  case false: y:=ln(x+3);cout<<y;break;
  default:
    }

```

Masalan, 5 ballik tizimda o'quvchilar bahosini tahlil qilish dasturi.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
  int a,b,c,x,x1,x2,d;
  cout<<" bahoni kiriting ";
cin>>a;
  switch(a)

```

```

{
    case 1:cout<<"juda yomon"; break;
    case 2: cout<<"yomon"; break;
    case 3:cout<<"qoniqarli";break;
    case 4: cout<<"yaxshi"; break;
    case 5:cout<<"a'lo";break;
    default:
        cout<<"bunday baho yo'q";
}
return 0;
}

```

Tanlash operatorida ketma-ket bir nechta ifodaning qiymatlariga bitta bir xil operatorlar ketma-ketligini ko'rsatish ham mumkin.

Masalan, 10 ballik tizimda o'quvchilar bahosini tahlil qilish dasturi.

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    int z;
    cout<<"Balni kiriting"
    cin>>z;
    switch (z)
    { case 1: case 2: case 3: cout <<"qoniqarsiz" ; break;
    case 4: case 5:cout <<"qoniqarli"; break;
    case 6: case 7: case 8: cout <<"yaxshi"; break;
    case 9: case 10: cout <<"a'lo" ; break;
    default: cout<<"bunday ball yo'q";
    }
return 0;

```

Misol. Quyidagi ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing

$$y = \begin{cases} \sin x, \text{ agar } x = 10 \\ \cos x, \text{ agar } x = 2 \\ \text{tg } x, \text{ agar } x = 13 \\ \sqrt{|x|}, x \text{ ning boshqa qiymatlarida} \end{cases}$$

Dastur.

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{ int x; float y;
    cout << "x o'zgaruvchining qiymatini kiriting = ";
    cin >> x;

```

```

switch(x)
{
    case 10 : y=sin(x);break;
    case 2: y=cos(x); break;
    case 13 : y=tan(x); break;
    default: y=sqrt(fabs(x));
}
cout << "Ifodaning qiymati: " << y;
return 0;}

```

Nazorat uchun savollar

1. Tarmoqlanuvchi jarayonni tushuntiring.
2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash uchun qanday operatorlar ishlatiladi?
3. Shartli o'tish operatori qanday tuzilmalarga ega?
4. To'liq shartli o'tish operatorini bajarilishini tushuntiring.
5. Murakkab shartli o'tish operatorlari qanday bo'ladi?
6. Shartsiz va shartli o'tish operatorlarini vazifasini tushuntiring.
7. Tanlash operatorining vazifasi nimadan iborat va uning umumiy ko'rinishi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. a,b,c sonlarini o'sish tartibida joylashtirish dasturini tuzing.
2. a,b,c kesmalar uzunliklari bilan berilgan. Ular orqali uchburchak yasash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash dasturini tuzing.
3. Yuzasi S1 ga teng bo'lgan doira, yuzasi S2 ga teng bo'lgan kvadtaga joylashishini aniqlash dasturini tuzing .
4. Koordinatalari bilan berilgan a(x,y) nuqtani koordinatalar tekisligida joylashish o'rnini aniqlash dasturini tuzing.
5. Berilgan ikkita a va b sonlarining kichigini ularning yig'indisi, kattasini esa ularning ko'paytmasi bilan almashtirish dasturini tuzing.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

Mavzu:Takrorlanuvchi jarayonlarni dasturlash. Sikl operatorlari. Parametrlilik sikl operatori.

Reja:

1. Sikllik jarayonlarni shartli operatorlar orqali dasturlash.
2. Sikl operatorlari. Parametrlilik sikl operatori.
3. Misollar.

Ma'ruza bayoni

Shunday hisoblash jarayonlari mavjud bo'ladiki, bunda bu jarayonning ayrim bo'laklarini bir necha marta takroran hisoblashga to'g'ri keladi. Bunday jarayonlar *takrorlanuvchi yoki siklli* jarayonlar deyiladi. Siklli jarayonlarni dasturlashda sikl operatorlaridan foydalaniladi, ya'ni dasturda bitta yoki bir nechta parametrlarning bir vaqtda o'zgarishida bir gurux operatorlarni hisoblash ko'p marotaba takrorlanadi. Masalaning qo'yilishiga qarab sikllar *takrorlanish sonima'lum bo'lgan* va *takrorlanish soni noma'lum* bo'lgan sikllarga bo'linadi.

Sikllik jarayonlarni shartli operatorlar orqali dasturlash.

Bunday holda sikl parametrining boshlang'ich qiymati berilgan bo'lishi kerak. Hisoblash shu parametr bilan bajariladi va qadam qiymati bilan o'zgartiriladi, hamda siklning tamom bo'lish sharti tekshiriladi. Agar sikl tugagan bo'lmasa, hisoblash davom ettiriladi.

Misol. $S = \sum_{i=1}^{20} \frac{i}{2} + 1$ ni hisoblash dasturini tuzing.

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    int i; float S;
    S=0; i=0;
    a1: i=i+1;
    S=S+(i/2+1);
    if (i<=20) goto a1;
    cout << "Ifodaning qiymati: " << S;
    return 0;
}
```

Sikl operatorlari. Parametrli sikl operatori.

C++ tilida sikllarni tashkil qilish bir nechta sikl operatorlaridan foydalaniladi. Bu sikl operatorlarining 3 turi mavjud: *parametrli, sharti oldin berilgan va sharti keyin berilgan sikl operatorlar*. Ularni tartib bilan ko'rib chiqamiz.

Parametrli sikl operatori. Agar sikllik jarayonlarda takrorlanish soni oldindan ma'lum bo'lsa, ko'p hollarda parametrli sikl operatoridan foydalaniladi.

Parametrli sikl operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

```
for (x=x0; x<=xn; x=x+xqad)
    { 1-operator; 2-operator;...;k-operator;}
```

Bu yerda *for (uchun)* - xizmatchi so'z; *x- sikl parametri* deb ataluvchi o'zgaruvchi; x_0, x_n - sikl parametrining mos ravishda *boshlangich va oxirgi qiymatlari*; x_{qad} - *sikl parametrining o'zgarish qadami*; { 1-operator; 2-operator;...;k-operator; } - *sikl parametrning qabul qiladigan har bir qiymatida takroran bajariladigan operatorlar*. Agarbu operatorlar bittadan ko'p bo'lsa { } belgi ichiga olinadi, aks holda shart emas.

Sikl parametri o'zining boshlang'ich qiymatini oladi va oxirgi qiymati bilan solishtiriladi. Agar $x \leq x_n$ mantiqiy ifodaning qiymati true yoki 0 dan farqli bo'lsa operatorlar bir marta bajarilib, sikl parametri x_{qad} qadamga ortadi va yana $x \leq x_n$ shart tekshiriladi va hakazo bu jarayon $x > x_n$ bo'lguncha davom etadi. Boshqacha aytganda, parametrli sikl operatorida sikl parametri *x boshlang'ich qiymat x₀ dan oxirgi qiymat x_n gacha* bo'lgan qiymatlarni x_{qad} bilan o'zgarishda qabul qiladi. Uning har bir qiymatida *operatorlar* ketma-ketligi bajariladi

Masalan: *for (n=0; n<=5; n=n+1;)*

$y=pow(2,n);$

Bu yerda sikl parametri n besh marta takrorlanadi va o'zgaruvchi y ketma - ket $2^0, 2^1, 2^2, 2^3, 2^4, 2^5$ qiymatlarni qabul qiladi, $n=5$ bo'lganda hisoblash to'xtatiladi.

Misol. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s,p;
    s=0; p=1;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    for (i=1; i<= n; i=i+1)
    { s=s+i; p=p*i;}
    cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma="<<p;
    return 0;
}
```

Parametrlilikl operatorlarida **inkrement** (+=, -=, *=, ++, **, --) amallaridan foydalanish mumki. Yuqoridagi dasturni quyidagicha ham yozish mumkin:

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s,p;
    s=0; p=1;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    for (i=1; i<= n; i++)
    { s+=i; p*=i;}
    cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma="<<p;
    return 0;
}
```

1-misol. $S = \sum_{i=1}^n (2i + 1)$ yig'indini hisoblash dasturini tuzing.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s;
    s=0;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
```

```

for (i=1; i<= n; i=i+1)
s=s+(2*i+1);
cout << "yig'indi =" <<s;
return 0;
}

```

2-misol. Kiritilgan sonlarning eng kattasini topish dasturini tuzing.

Dastur.

```

#include <iostream.h>
#include <math.h>
int main ()
{
    int i, n, a, max;
    cout<<("kiritilayotgan sonlar soni: ");
    cin>>n;
    cout<< n<<'\n';
    cin>>max;
    for(i = 1; i < n ; i++)
    {
        cin>>a;
        if(a > max)
            max = a;
    }
    cout<< max;
    return 0;
}

```

Sharti oldin qo'yilgan sikl (while) operatori.

Sharti oldin qo'yilgan sikl (**while**) operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha: **while B {s1;s2;...;sn}**- bu yerda **while** (toki) xizmatchi so'z, **B**- mantiqiy ifoda, **{s1;s2;...;sn}**-operatorlar.

Bu operatorida **{s1;s2;...;sn}** operatorlar ketma-ketligi bajarilmasligi yoki bir martadan ortiq bajarilishi mumkin, chunki **{s1;s2;...;sn}** operatorlarning har bir bajarilishidan oldin **B** mantiqiy ifodaning qiymati tekshiriladi. Agar ifoda chin (true) qiymat qabul qilsa **{s1;s2;...;sn}** operatorlar bajariladi, aks holda, ya'ni **B** yolg'on (false) qiymat qabul qilsa, sikl operatorining bajarilishi tugaydi.

Agar **B** mantiqiy ifoda birinchi hisoblanishidayoq *yolg'on qiymatni* qabul qilsa, **{s1;s2;...;sn}** operatorlar bir marta ham bajarilmaydi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda siklik jarayonning tugallanish sharti **{s1;s2;...;sn}** operatorlar bajarilishidan oldin tekshiriladi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi sikl operatori - *sharti oldin qo'yilgan sikl operatori* deb yuritiladi. Bu yerda ham takrorlanadigan operatorlar bittadan ortiq bo'lsa ular { } belgi ichiga olinadi, aks holda shart emas.

Masalan: 1) $y:=1; k:=0; m=5; \text{while } y \leq m \{ y:=y+3; k:=k+; \}$

2) $x:=3; y:=1; v:=1; \text{eps}:=0,0001;$

$\text{while } \text{abs}(v) \geq \text{eps} \{ V:=(x/y-y); y:=y+v; \}$

1-misol. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s,p;
    s=0; p=1;i=1;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    while (i<= n)
    { s=s+i; p=p*i;i=i+1;}
    cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma="<<p;
    return 0;
}
```

2-misoll. $S = \sum_{i=1}^n (2i + 1)$ yig'indini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{
    int n,i; float s;
    s=0;
    cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
    cin>>n;
    while (i<= n)
    { s=s+(2*i+1);i=i+1;}
    cout << "yig'indi =" <<s;
    return 0;
}
```

Bu misolda qaysi operatoridan foydalanish - **for** yoki **while** danmi farq qilmaydi. Agar takrorlanish soni ma'lum bo'lsa, **for** operatori ishlatiladi, takrorlanish soni ma'lum bo'lmasa **while** operatori qo'llaniladi.

Sharti keyin qo'yilgan (do..while) sikl operatori.

Bu operator takrorlanuvchi hisoblash jarayonlarida takrorlanishlar soni ma'lum, noma'lum bo'lgan holatlarda ishlatiladi. Operatorning umumiy ko'rinishi quyidagicha Sharti oldin qo'yilgan sikl (**while**) operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha: **do {s1;s2;...;sn ;} while B** bu yerda **while** (toki), **do**(bajar)- xizmatchi so'zlar, **B**- mantiqiy ifoda, {s1;s2;...;sn ;} -operatorlar ketma-ketligi..

Bu operatorda {s1;s2;...;sn ;} operatorlar ketma-ketligi hech bo'lmaganda bir marta va undan ortiq bajarilishi mumkin, chunki {s1;s2;...;sn ;} operatorlarr bajarilgandan keyin **B** mantiqiy ifodaning qiymati tekshiriladi. Agar ifoda chin (true) qiymat qabul qilsa {s1;s2;...;sn;} operatorlar bajariladi, aks holda, ya'ni **B** yolg'on (false) qiymat qabul qilsa, sikl operatorining bajarilishi tugaydi.

Bu operatorlarda siklik jarayonning tugallanish sharti $\{s_1; s_2; \dots; s_n\}$ operatorlar bajarilgandan keyin tekshiriladi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi sikl operatori - *sharti keyin qo'yilgan sikl operatori ham* deb yuritiladi. Bu yerda ham takrorlanadigan operatorlar bittadan ortiq bo'lsa ular $\{ \}$ belgi ichiga olinadi

Operatorning bajarilishida *do...while* operatorlari orasida joylashgan operatorlar ketma- ketligi bir marta va undan ortiq bajarilishi mumkin. Bu jarayon qo'yilgan mantiqiy ifoda *yolg'on qiymat* qabul qilgunga qadar davom etadi.

do..while operatorining *while* operatoridan farqi shundaki, bunda eng avval operatorning qiymati hisoblanib, so'ngra qo'yilgan shart tekshiriladi. Bu esa bunda berilgan operatorning hech bo'lmaganda bir marta bajarilishiga imkon yarata-di.

Masalan.

$y:=1;$

do

$v:=(2*x/y-3*y)/2; y:=y+2*v$

while(abs(v)<eps);

1-misol. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
# include <iostream.h>
```

```
using namespace std;
```

```
int main ( )
```

```
{
```

```
int n,i; float s,p;
```

```
s=0; p=1;i=1;
```

```
cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
```

```
cin>>n;
```

```
do
```

```
{s=s+i; p=p*i; i=i+1;}
```

```
while (i<= n);
```

```
cout << "yig'indi =" <<s<< "\n ko'paytma=" <<p;
```

```
return 0;
```

```
}
```

2-misoll. $S = \sum_{i=1}^n (2i+1)$ yig'indini hisoblash dasturini tuzing.

Dastur.

```
# include <iostream.h>
```

```
using namespace std;
```

```
int main ( )
```

```
{
```

```
int n,i; float s;
```

```
s=0;
```

```
cout<<"Ixtiyoriy butun son kiritng";
```

```
cin>>n;
```

```
do
```

```

{s=s+(2*i+1);i=i+1;}
while (i<= n);
cout << "yig'indi =" <<s;
return 0;
}

```

Takrorlanuvchi jarayonlarda takrorlanishlar soni ma'lum bo'lmagan holda ham **do...while** operatoridan foydalanish mumkin.

3- misol. $S = \sum_{i=1}^{\infty} \frac{1}{2^i}$ yig'indini ε aniqlikda hisoblash dasturini tuzing.

```

#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ()
{
int n,i; float s,eps;
s=0; i=1;
cout<<"Ixtiyoriy juda kichik son kiriting";
cin>>eps;
do
{s=s+1./(2*i);i=i+1;}
while (1./(2*i)>eps);
cout << "yig'indi =" <<s;
return 0;
}

```

Sinov savollari

1. Takrorlanuvchi jarayonni tushuntiring.
2. Qanday takrorlash operatorini bilasiz?
3. while, do-while operatorlari qanday ishlaydi?
4. For operatoridan foydalanish tartibini tushuntiring.
5. Boshqaruv operatorlari qayerda ishlatiladi?

Uyga vazifa : C++ tizimida for, while, do-while, break, continue operatorlari yordamida takrorlanuvchi dastur tuzish qoidalarini mukammal o'rganish va ularga doir misollar keltirish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13],[14],[15],[16]

Mavzu: C++ da massivlar. Massivlarni ta'riflash. Bir o'lchovli massivlar.

Reja:

1. Massivlarni ta'riflash.
2. Bir o'lchovli massivlar.
3. Misollar.

Ma'ruza bayoni

Massivlarni ta'riflash. Bir o'lchovli massivlar.

Xotirada ketma-ket joylashgan bir xil turdagi qiymatlarga massiv deyiladi. Massiv –bu fiksirlangan miqdordagi ayrim elementlarning tartiblangan

majmuasidir. *Massiv* deganda bir xil turga mansub bo'lgan obyektlarning biror xususiyatiga ko'ra mujassamlangan majmuasi yoki to'plami tushuniladi

Massiv –bu ma'lumotlarning murakkab turi bo'lib, quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- massiv elementlari boshqa tuzilmalardan farqli ravishda bir xil turga tegishli bo'ladi, shuning uchu uning har bir elementi bir xil xotira hajmini egallaydi;
- massiv fayllar kabi tashqi qurilmalarda emas, balki tezkor xotirada joylashadi;
- massiv elementlari ketma-ket keluvchi yacheykalarni egallaydi.

Barcha elementlar bir xil turda bo'lishi kerak va bu tur element turi yoki massiv uchun tayanch deb nomlanadi.

Massiv elementlariga murojoat qilish ikki xil usulda amalga oshiriladi.

1. Massiv elementining tartib raqami orqali va bu indeks deb yuritiladi. Bu juda sodda va boshqa Programmalash asoslarini biladiganlar uchun oddiy hol. Indeks sifatida butun sonlardan, butun turdagi o'zgaruvchilardan foydalanish mumkin. Indeks sifatida haqiqiy turdan foydalanib bo'lmayda.

2. C++ tilida massiv elementlarini qayta ishlashda ko'rsatkichlardan, ya'ni adreslardan foydalanish mumkin, chunki massiv va ko'rsatkichlar orasida aloqa mavjud. Shunga qaramay, birinchi usulda adreslar bilan ishlash uchun maxsus tur qatnashmaydi, ko'rsatkichlar baribir ishlatiladi..

Massivlarni tavsiflash uchun regulyar (muntazam) turlardan foydalaniladi, ya'ni ular bir xil turdagi ma'lumotlarning chekli to'plamini tavsiflash uchun ishlatiladi. Massivlarni tashkil etgan obyektlar uning elementlari bo'lib, ular tartib bilan nomerlanadi ya'ni o'z indeksiga ega bo'lib, ular ana shu indekslarning nomeri bo'yicha tartiblanadi hamda murojoat qilinadi.

Massiv bir, ikki va ko'p o'lchovli bo'lishi mumkin. Bir o'lchovli massivlar elementlari satr yoki ustundan iborat bo'lgan vektorlarni tashkil etadi. Ikki o'lchovli massivlar matrisalardan iborat bo'ladi. Uch va undan katta o'lchovli massivlar amaliyotda kamda-kam hollarda ishlatiladi, chunki ulardan foydalanish uchun katta hajmdagi tezkor xotira kerak bo'ladi.

Dasturlash jarayonida ishlatiladigan har bir massiv o'zining alohida nomiga ega bo'lishi kerak. Massivdan foydalanish uchun dastur boshida unga tavsif beriladi. Massivlarni tavsiflashda uning turi, nomi va indekslar chegarasi ko'rsatiladi.

C++ tilida massiv elementlarining indeksleri 0 dan boshlanadi va uning eng katta qiymati massiv e'lonidagi uzunlikdan bitta kam bo'ladi

Bir o'lchovli massivlar quyidagicha tavsiflanadi:

tur nom [<uzunlik>];

bu yerda **tur**-massiv elementlarining turi bo'lib, u **int**, **float**, **char** kabi ma'lumotlar turidan iborat bo'lishi mumkin; **nom** – massiv nomi bo'lib foydalanuvchi tomonida ixtiyoriy aniqlanadi va identifikarlar qoidasi bo'yicha yoziladi; **uzunlik** – butun sonidan iborat bo'lib, massivni tashkil etgan elementlar soni, yoki elementlar joyshadigan yacheykalar sonini aniqlaydi.

Masalan: 1) **float A[10];**


2) **n=10; float A[n];**

3) **int a[10] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14}**

Massiv indeksli o'zgaruvchi tushunchasiga mos keladi. Misol uchun **long int a[5]; char w[200];double f[4][5][7]; char[7][200]**. Bir o'lchovli massivlarga matematikada vektor tushunchasi mos keladi. Massivning **int z[3]** shakldagi ta'rifi, **int** turiiga tegishli z[0],z[1],z[2] elementlardan iborat massivni aniqlaydi.

Massivlar statik va dinamik ko'rinishlarda berilishi mumkin. Statik massivning uzunligi oldindan ma'lum bo'lib, u xotirada ketma-ket joylashadi. Dinamik massivni uzunligi dastur bajarilishi jarayonida aniqlanib, u dinamik xotiradagi ayni paytda bo'sh bo'lgan adresga joylashadi.

Masalan, **int a[10]** ko'rinishda e'lon qilingan statik massiv elementlari xotirada quyidagicha joylashadi:



Massiv elementiga murojoat qilish **massiv nomi[indeks]** korinishida amalga oshiriladi. Masalan, a[i] yoki a[2]; a[5].

int a[10] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14}; ko'rinishda e'lon qilingan massivda murojoat amalga oshirilsa, u holda **a[0]=9; a[3]=-6; a[8]=12;**

Massivlar tavsiflanganda to'liq, to'liqmas ko'rinishlarda inisializatsiya qilinishi, ya'ni boshlangich qiymatlarlari ko'rsatilishi mumkin:

1) o'lchami ko'rsatilgan massivni to'liq inisialasatsiya qilish:

int a[10] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14};

Bu yerda 10 ta elementdan iborat a massiv e'lon qilingan va uning barcha elementlariga boshlang'ich qiymat berilgan.

2). Agar massiv inisializatsiya qilinganda elementlar chegarasi ko'rsatilgan bo'lsa, ro'yxatdagi elementlar soni bu chegaradan kam bo'lishi mumkin, lekin ortiq bo'lishi mumkin emas o'lchami ko'rsatilgan massivni to'liqmas inisialazatsiya qilish:

int a[10] = {9,8,-8,- 3,12,14};

Bu yerda massiv boshidagi 6 ta elementga qiymat berilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, massivning boshidagi va o'rtasidagi elementlarga qiymat bermasdan uning oxirgi elementlariga qiymat berib bo'lmaydi.

Misol uchun **int A[5]={2,-2}**. Bu holda a[0] va a[1] qiymatlari aniqlangan bo'lib, mos holda 2 va -2 ga teng.

3) O'lchami ko'rsatilmagan massiv elementlarini to'liq inisializatsiya qilish:

floatC[]={1,-1,2,10,-12.5};

Bu yerda massiv chegarasi avtomatik aniqlanadi hamda massivni barcha elementlariga qiymatlar berilgan hisoblanadi.

Massiv elentlarini kiritish

Massiv elementlarini quyidagi ko'rinishlarda berish mumkin:

1) Massiv elementlarini tavsiflash vaqtida:

a) **int a[10] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14}**

b) **intn=20; a[n] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14}**

c) **char T[11]={‘м’,‘а’,‘т’,‘е’,‘м’,‘а’,‘т’,‘и’,‘к’,‘а’};**

d) **char T[11]=“математика”;**

Bunda agar massiv elementlari soni ko'rsatilgan chegaradan kam bo'lsa, uning qolgan elementlari 0 qiymatni qabul qiladi. Agar massiv elementlari soni ko'rsatilgan chegaradan ko'p bo'lsa, u kompilyatrga uchun tushunarsiz bo'ladi.

2) Massiv elementlarini klaviaturadan kiritish. Buning uchun sikl oeratorlaridan foydalaniladi. Masalan,

```
for (i=0; i<=9; i++)
    cin>>a[i];
```

Bu yerda **a[i]** massivning **a[0]** dan **a[9]** gacha elementlariga qiymat beriladi.

```
for (i=1; i<=10; i++)
    cin>>a[i];
```

Bu holda **a[i]** massivning **a[1]** dan **a[10]** gacha elementlariga qiymat beriladi. **a[0]** element o qiymatga ega bo'ladi

3) Ayrim hollarda massiv elementlarini tasodifiy sonlar datchgi orqali ham berish mumkin:

```
const n=5; int a[n]; randomize();
for (int i=0; i<n; i++)
    a[i]=random(100);
```

randomize(); funksiyasi massiv elementlari tasodifiy bo'lishini amalga oshiradi. **random(100);** funksiyaparametri [0..99] oraliqdagi butun sonlarni tasodiy ko'rinishda hosil qiladi. Agar massiv nafaqat musbat , balki manfiy butun sonlardan iborat bo'lishi kerak bo'lsa, **a[i]= random(100)-20;**Bu yerdasonlar [-20..79] oralig'ida aniqlanadi.

Agar massiv elementlari tasodifiy haqiqiy sonlardan iborat bo'lishi kerak bo'lsa, **a[i] = random(5)/10.-0.25;** ko'rinishda yoziladi.

4) Massiv elementlari ba'zi bir qoidalar bo'yicha ham hosil qilish mumkin:

```
for ( int i=0; i<n; i++)
if (j%2) A[i]= i*10;
    else A[i]=i/100.;
```

Massiv elementlarini chiqarish

Uncha katta bo'lmagan massivlar elementlarini quyidagicha chop etish mumkin:

```
cout<< "\n Массив: \n ";
for (int i=0; i<n; i++)
    cout<<A[i]<<" ";
    cout<<endl;
```

Katta hajmdagi massivlar elementlarini quyidagicha chop etish mumkin:

```
int K=10;
for (int i=0; i< n; i++)
{ cout<<A[i]<<" ";
    if ((i+1) %K == 0) cout<<endl;
}
```

Misol. 10 ta elementdan iborat a[i] massiv berilgan:

1) Shu massiv elementlari yig'indisi va ko'paytmasini hisoblang:

```

#include <iostream.h>
#include <conio.h>
int main()
{int a[10]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,17,-18}, i;
  float s,p;;
  s=0;p=1;
  for (i=0;i<=9;i++)
  { s=s+a[i]; p=p*a[i];
  }
  cout << "s="<<s<<"\t"<<"p="<<p;
  getch();
return 0;
}

```

2. Shu massiv elementlarining eng kattasi va kichigini toping:

```

#include <iostream.h>
#include <conio.h>
int main()
{int a[10]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,17,-18}, i;
  int max,min;
max=a[0]; min=a[0];
  for (i=0;i<=9;i++)
  { if (a[i]>max) max=a[i];
if (a[i]<min) min=a[i];
  }
  cout << "max="<<max<<"\t"<<"min="<<min;
  getch();
return 0;
}

```

Sinov savollari:

1. Massiv deb nimaga aytiladi?
2. C/C++ tilida massivlarni qanday ifoda etiladi?
3. o'lchovli massiv elementlarini kiritish va chiqarish usullari.
4. Massiv elementlariga son qiymat berishda tasodifiy qiymatlardan foydalanish

Uyga vazifa : C++ tizimida massiv elementlari bilan ishlash qoidalarini mukammal o'rganish va ularni amaloyotga tatbiq etish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13],[14],[15],[16]

Mavzu: Ikki o'lchovli massivlar. Jadvallar bilan ishlash. Belgili va satrli massivlar.

Reja:

1. Ikki o'lchovli massivlar.
2. Jadvallar bilan ishlash.
3. Belgili va so'zlar massivlar.
4. Ko'rsatkichlar massivlari.

Ma'ruza bayoni

Ikki o'lchovli massivlar. Jadvallar bilan ishlash

Ikki o'lchovli massivlar matematikada matrisa yoki jadval tushunchasiga mos keladi. Jadvallarning insializasiya qilish qoidasi, ikki o'lchovli massivning elementlari massivlardan iborat bo'lgan bir o'lchovli massiv ta'rifiga asoslangandir. Aytaylik $a(n,m)$ o'lchovli matrisa berilgan:

$$A = \begin{vmatrix} a_{00} & a_{01} & \dots & a_{0n} \\ a_{10} & a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m0} & a_{m1} & \dots & a_{mn} \end{vmatrix}$$

Matrisa elementlari belgilash uchun ikki indeksli o'zgaruvchi ishlatiladi, $a[n][m]$, bu yerda n -satrlar soni, m -ustunlar soni.

Matrisa quyidagicha e'lon qilingan bo'lishi mumkin:

const n=5, m=5; int A[n][m],

bu yerda n - satrlar soni (birinchi, chap o'lchov), m – ustunlar soni yoki satrdagi elementlar soni (ikkinchi o'ng o'lchov). Matrisa tezkor xotirada satr bo'yicha joylashadi va uzluksiz joyni egallaydi, hamda ining hajmi $n*m*sizeof(int)$ ga teng bo'ladi, bu yerda int – matrisa elementlarining turi.

Matrisani tavsiflashning u yoki bu usulu konkret masalaning turiga qarab belgilanishi ham mumkin. Matrisa satr va ustunlarni nomerlash 0 dan boshlanadi.

Matrisani inisialaziyalash uni tavsiflash vaqtida amalga oshirilishi mumkin, masalan:

$$a = \begin{vmatrix} 1 & -2 & 3 \\ 10 & 20 & 33 \\ -11 & 22 & 36 \end{vmatrix}$$

`int A[3][3]= {{1, -2, 3}, { 10, 20, 33}, {-11, 22, 36}};`

Agar satrda talab qilinganidan kam sondagi element berilgan bo'lsa, u holda qolganlari 0 bilan inisialaziya qilinadi:

`int A[5][3]= {{1, -2, 3, -4, 5}, { 10, 20, 33, -40}, {-11, 22, 300, 400, 500}};`

Bu misolda 2-satrning oxirxi elementi o'gat eng bo'ladi.

Misol uchun ikki qator va uch ustundan iborat bo'lgan xaqiqiy turga tegishli d massiv boshlang'ich qiymatlari quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

```
float a[2][3]={(1,-2.5,10),(-5.3,2,14)};
```

Bu yozuv quyidagi qiymat berish operatorlariga mosdir:

```
a[0][0]=1;a[0][1]=-2.5;a[0][2]=10;a[1][0]=-5.3;a[1][1]=2;a[1][2]=14;
```

Bu qiymatlarni bitta ro'yxat bilan hosil qilish mumkin:

```
float a[2][3]={1,-2.5,10,-5.3,2,14};
```

Inisializasiya yordamida boshlang'ich qiymatlar aniqlanganda massivning hamma elementlariga qiymat berish shart emas. Misol uchun: `int x[3][3]={(1,-2,3),(1,2),(-4)}`. Bu yozuv quyidagi qiymat berish operatorlariga mosdir: `x[0][0]=1;x[0][1]=-2;x[0][2]=3;x[1][0]=-1;x[1][1]=2;x[2][0]=-4;`

Inisializasiya yordamida boshlang'ich qiymatlar aniqlanganda massivning birinchi indeksi chegarasi ko'rsatilishi shart emas, lekin qolgan indekslar chegaralari ko'rsatilishi shart. Misol uchun:

```
Double x[] [2]={(1.1,1.5),(-1.6,2.5),(3,-4)}
```

Bu misolda avtomatik ravishda qatorlar soni uchga teng deb olinadi.

Ikki o'lchovli massiv elementlarini kiritish

Oddiy ko'rinishda ikki o'lchovli massiv elementlarini kiritish quyidagicha bajariladi:

```
for ( i=0; i<n; i++)
```

```
    for ( j=0; j<m; j++)
```

```
        cin>>A[i][j];
```

Bunda har bir satrda bitta sonni teramiz, lekin qaysi nomerdagi elementni kiritayotganimiz ko'rinmaydi. Shuning kiritlayotgan elementni ekranda ko'rib turish uchun quyidagicha yozishimiz mumkin:

```
# include <iostream.h>
```

```
using namespace std;
```

```
int main ( )
```

```
{int a[3][3],j,i, m=3, n=3; float s,eps;
```

```
for ( i=0; i<n; i++)
```

```
    { for ( j=0; j<m; j++)
```


```
        { cout<<"a["<<i<<"]"<<["<<j<<"]"<<"]=";
```

```
          cin>>a[i][j];} cout<<"\n";
```

```
    }
```

```
return 0;
```

```
}
```



```
g++ "C:\Documents and Settings\ффышэщёёёрсюё\орсюўшщ ёёюы\С++\Аббос\
a[0][0]=2
a[0][1]=3
a[0][2]=4

a[1][0]=5
a[1][1]=5
a[1][2]=6

a[2][0]=8
a[2][1]=9
a[2][2]=12

Process returned 0 (0x0)   execution time : 16.703 s
Press any key to continue.
```

1-misol.Quyidagi ko'radigan misolimizda jadval kiritilib xar bir qatorning maksimal elementi aniqlanadi va bu elementlar orasida eng kichigi aniqlanadi:

```
#include <iostream.h> void main()
{ double a[4,3]; double s,max=0.0,min=0.0; int i,j;
for(i=0;i<4;i++) { for(j=0;j<3;j++)
{ Cout<<"a ["<i<<" ]["<j<<" ] ="; Cin>>s; a[i,j ] =s;
if (max<s) max=s; };
Cout<<"\n";
if (max<min) min=max; } Cout<<"\n min=",min; }
```

Matrisa elementlarini tasodifiy sonlar orqali aniqlash

Matrisaelementlarinikiritishuchunketadiganvaqtnitejashmaqsadida-ba'zimasalalarniyechishuchunmassivelementlarinitasodifiysonlargeneratoriorqalia niqlashmumkin:

```
for ( i=0; i<n; i++)
for ( j=0; j<m; j++)
A[i][j]=rand();
```

Agar masalaga qo'yilgan shart bo'yicha, matrisa elementlari [a,b) oraliqqa tegishli bo'lishi kerak bo'lsa, bu yerda $a > b$, u holda sikl operatorida $A[i][j] = \text{random}(b-a)+a$ yozish kerak. Bu usuldan matrisa elementlari uchun cheklov qo'yilmagan paytda foydalanish mumkin

Massiv elementlariga son qiymat berishda kompyuter xotirasidagi tasodifiy butun sonlardan foydalanish xam mumkin. Buning uchun standart kutubxonaning **rand ()** funksiyasini ishga tushirish kerak. **rand ()** funksiyasi yerdamida $0 \wedge 32767$ oralikdagi ixtiyoriy sonlarni olish mumkin. Bu qiymatlar umuman tasodifiydir. (**psevdo** - tasodifiy degani). Agar dastur qayta-qayta ishlatilsa, ayti tasodifiy qiymatlar takrorlanaveradi. Ularni yangi tasodifiy qiymatlar qilish uchun **srand ()** funksiyasini dasturda bir marta e'lon qilish kerak. Dastur ishlashi jarayonida ex-tiyojga karab **rand ()** funksiyasi chakirilaveradi. Tasodifiy qiymatlar bilan ishlash uchun **<stdlib.h>** faylini e'lon qilish zarur.

Masalan, [1,100) oraliqdaa(3,3) massivelementlarinihosilqilish-vachopetishquyidagichabajariladi:

```
# include <iostream.h>
# include <conio.h>
# include <stdlib.h>
#include <time.h>
int main()
{ int n=3,m=3, a[n][m],i,j;
for ( i=0; i<n; i++)
for ( j=0; j<m; j++)
a[i][j]=1+rand()%100;
for ( i=0; i<n; i++)
{
for ( j=0; j<m; j++)
cout<<" "<<a[i][j]<<" ";
```

```

    cout<<"\n";
}
return 0;
}

```

```

C:\Documents and Settings\АфшэшәЕрЄюЁ\орсюшщ ёЄюыА+
42 68 35
1 70 25
79 59 63
Process returned 0 (0x0) execution time : 0.109 s
Press any key to continue.

```

srand() funksiyasidagi qiymatni avtomatik ravishda uzgaradigan xolatga keltirish uchun **srand(time (NULL))** yozish ma'kul, shunda kompyuter ichidagi soatning qiymati **time()** funksiyasi yordamida urnatiladi va **srand**ga parametr sifatida beriladi. **NULL** yoki **0** deb yozilsa, qiymat sekundlar ko'rinishida beriladi. Vaqt bilan ishlash uchun **<time.h>**ni e'lon qilish kerak.

```

#include <iostream.h>
#include <conio.h>
#include <stdlib.h>
#include <time.h> void main ( )
{ srand ( time (0)); int a[5], b[5], i;
for (i = 0; i < 5; i++) a[i] = rand ( ); for (i = 0; i < 5; i++) { b[i] =
a[i] + 64; cout <<"b="<<b[i]<<endl; } getch ( ); }

```

Izox: tasodifiy sonlar ichida manfiy sonlarning ham qatnashishini ixtiyor etsak,

a[i] = 1050 - rand (); yoki **a[i] = rand ()-1000;** deb yozish ham mumkin

Matrisa elementlarini ba'zi bir qonuniyatlar orqali ham aniqlash mumkin, masalan:

```

for ( i=0 ; i<n; i++)
for ( j=0; j<m; j++)
    A[i][j]=( i+1)*(j +1);

```

Bunda ko'rinishda aniqlangan matrisalarni ba'zi masalarni yechishda tahlil qilish osonroq.

Matrisa bunday usullarda aniqlanilishi dastur bajarilish jarayonida matrisala elementlarini qayta-qayta kiritish uchun vaqt sarflashni oldini oladi,

Ikki o'lchovli massiv elementlarini chiqarish

Oddiy ko'rinishda ikki o'lchovli massiv elementlarini kiritish quyidagicha bajariladi:

```

for ( i=0; i<n; i++)
    for ( j=0; j<m; j++)
        cout<<a[i][j];

```

Massiv elementlarini chiqarish bunday ko'rinishda berilsa, uning hamma elementlari bir satrga joylashadi:

```

# include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{int a[3][3]={1, 2 ,3 ,4 ,5 ,6, 7 ,8, 9}, j,i, m=3, n=3; float s,eps;

```

```

for ( i=0; i<n; i++) for ( j=0; j<m; j++)
cout<<a[i][j]<<" ";
return 0;}

```

Dastur natijasi:

```

C:\ "C:\Documents and Settings\...
1 2 3 4 5 6 7 8 9
Process returned 0 (0x0) execution time : 0.031 s
Press any key to continue.

```

Ikki o'Ichovli massiv elementlarini satr va ustunlar bo'yicha joylashgan matrisa ko'rinishida chop etish uchun har bir satr elementlari chop etilganda keyin "\n" belgidan ya'ni keyingi satrga o'tishdan foydalanish lozim:

```

#include <iostream.h>
using namespace std;
int main ( )
{int a[3][3]={1, 2 ,3 ,4 ,5 ,6, 7 ,8, 9}, j,i, m=3, n=3; float s,eps;
for ( i=0; i<n; i++) { for ( j=0; j<m; j++)
cout<<" "<<a[i][j]<<" "; cout<<"\n"; }
return 0;
}

```

Dastur natijasi:

```

C:\ "C:\Documents and Settings\...
1 2 3
4 5 6
7 8 9
Process returned 0 (0x0) execution time : 0.046 s
Press any key to continue.

```

2-misol. 2 ta matrisa berilgan. Ularni o'zaro ko'paytmasining yig'indisidan yangi matrisa hosil qiling. Bu yerda 1-matrisaning ustunlar soni 2-matrisaning satrlar soniga teng bo'lishi kerak.

```

#include <conio.h>
int main()
{ int a[3][3], b[3][3],c[3][3], i, j, k;
for (i=1; i<4; i++)
for (j=1; j<4; j++)
a[i][j] = i*j;
for (i=1; i<4; i++)
for (j=1; j<4; j++)
b[i][j] = 2*i+j;
for (i=1; i<4; i++)
{ for (j=1; j<4; j++)
{ c[i][j] = 0;
for (k=1; k<4; k++)
c[i][j] = c[i][j] + a[i][k]*b[k][j]; } }
for (i=1; i<4; i++)
{ for (j=1; j<4; j++)
cout <<c[i][j]<<" "; cout<<"\n";}
return 0;
}

```

```

C:\Documents and Settings\АфъшэшëЁёРёЮё\лорсюўшщ ёёЮы\С
34 40 46
68 80 92
102 120 138
Process returned 0 (0x0) execution time : 0.015 s
Press any key to continue.

```

Endi ikki o'lovchi massivlarga doir masalalarni ko'rib chiqamiz

Misol. a[3][3] massiv berilgan: int a[3][3]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,17,-18}.

1) Shu massiv elementlari yig'indisi va ko'paytmasini hisoblang:

```

#include <iostream.h>
#include <conio.h>
using namespace std;
int main()
{ int a[3][3]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,17},i,j;
float s,p;;
s=0; p=1;
for (i=0;i<3;i++)
for (j=0;j<3;j++)
{ s=s+a[i][j]; p=p*a[i][j]; }
cout << "s="<<s<<"\t"<<"p="<<p;
getch();
return 0;
}

```

```
C:\ "C:\Documents and Settings\офьшэшëËрëюË\орсюўшщ ëëюы\C++
s=29      p=2.74959e+08 _
```

2. Shu massiv elementlarining eng kattasi va kichigini toping:

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
int main()
{ int a[3][3]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,17},i,j;
  int max,min;
max=a[0][0]; min=a[0][0];
  for (i=0;i<3;i++)
  for (j=0;j<3;j++)
  { if (a[i][j]>max) max=a[i][j];
if (a[i][j]<min) min=a[i][j];
}
  cout << "max=" << max << "\t" << "min=" << min;
getch();
return 0;
}
```

```
C:\ "C:\Documents and Settings\офьшэшëËрëюË\орсюўшщ ëëюы\C++
max=17   min=-13
```

3. Ikkita(3,3) va b(3,3) massivlar berilgan: $inta[3][3]=\{8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,-18\}$, $b[3][3]=\{11,-2,4,-8,-1,13,-14,21,-23\}$; Shu massivlarning yig'indisi va ko'paytmasidan hosil bo'lgan yangi massivni chop etish dasturini tuzing:

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
using namespace std;
int main()
{ int a[3][3]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,-18}, b[3][3]={11,-2,4,-8,-1,13,-14,21,-23};
int s[3][3],p[3][3],i,j;
s[0][0]=0; p[0][0]=0;
  for (i=0;i<3;i++)
  for (j=0;j<3;j++)
  { s[i][j]= a[i][j]+b[i][j]; p[i][j]= a[i][j]*b[i][j]; } cout << "\n";
cout << "\t" << "Massiv elementlari yigindisi"; cout << "\n";
for ( i=0; i<3; i++) {
  for ( j=0; j<3; j++)
  cout << "\t " << s[i][j] << " ";
```

```

cout<<"\n";}cout<<"\n";
cout<<"\t"<<"Massiv elementlari ko'paytmasi";cout<<"\n";
for ( i=0; i<3; i++)
{
for ( j=0; j<3; j++)
cout<<"\t "<<p[i][j]<<" ";
cout<<"\n";}
getch();
return 0;}

```

```

C:\Documents and Settings\... C++
Massiv elementlari yigindisi
19      -11     10
-13     -4      25
-27     37     -41

Massiv elementlari ko'paytmasi
88      18     24
40      3     156
182     336    414

```

Sinov savollari:

1. Massiv deb nimaga aytiladi?
2. C/C++ tilida massivlarni qanday ifoda etiladi?
3. 1 o'lchovli massiv elementlarini kiritish va chiqarish usullari.
4. 2 o'lchovli massiv elementlarini kiritish va chiqarish usullari.
5. Massiv elementlariga son qiymat berishda tasodifiy qiymatlardan foydalanish
6. Massiv elementlarini natija sifatida chiqarish usullari.
7. Simvollaridan iborat massivlarni xosil qilish.
8. So'zlardan tuzilgan massivlar va ular ustida amallar bajarish

Uyga vazifa : C++ tizimida massiv elementlari bilan ishlash qoidalarini mukammal o'rganish va ularni amaloyotga tatbiq etish.

Mavzu: Funksiyadan foydalanish asoslari. Foydalanuvchi funksiyalari.
Funksiyalarni ta'riflash va murojaat qilish. Funksiyaga parametrlar uzatish.
Rekursiv funksiyalar.

Reja:

1. Funksiyalarni ta'riflash va ularga murojaat qilish.
2. Funksiyaga parametrlar uzatish..

Ma'ruza bayoni Foydalanuvchi funksiyalari.

Funksiyalarni ta'riflash va ularga murojaat qilish. Funksiya ta'rifida funksiya nomi, tipi va formal parametrlar ruyxati ko'rsatiladi. Formal parametrlar nomlaridan tashkari tiplari xam ko'rsatilishi shart. Formal parametrlar ruyxati funksiya signaturasi deb xam ataladi. Funksiya ta'rifi umumiy ko'rinishi quyidagichadir: **Funksiya tipi funksiya nomi(formal_parametrlar_ta'rifi)** Formal parametrlarga ta'rif berilganda ularninga boshlangich qiymatlari xam ko'rsatilishi mumkin. Funksiya qaytaruvchi ifoda qiymati funksiya tanasidareturn<ifoda> ; operatori orkali ko'rsatiladi.

Misol: **Float min(float, float b) { if (a<b) return a; return b; }**

Funksiyaga murojaat qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

Funksiya nomi (haqiqiy parametrlar ruyxati)

Haqiqiy parametr ifoda xam bulishi mumkin. Haqiqiy parametrlar qiymati xisoblanib mos formal parametrlar urnida ishlatiladi.

Misol uchun yukoridagi funksiya quyidagicha murojaat qilish mumkin:

Int x=5,y=6,z; z=min(x,y) yeki int z=Min(5,6) yeki int x=5; int z=min(x,6)

Funksiya ta'rifida formal parametrlar inisializasiya kilinishi, ya'ni boshlangich qiymatlar ko'rsatilishi mumkin.

Funksiyaga murojaat kilinganda biror haqiqiy parametr ko'rsatilmasa, uning urniga mos formal parametr ta'rifida ko'rsatilgan boshlangich qiymat ishlatiladi.

Misol uchun:

Float min(float a=0.0, float b) { if (a<b) return a; return b; }

Bu funksiya yukorida ko'rsatilgan murojaat usullaridan tashkari quyidagicha murojaat qilish mumkin:

Int y=6,z; z=min(,y) yeki int z=Min(,6);

Agar funksiya xech qanday qiymat qaytarmasa uning tipi **void** deb ko'rsatiladi.

Misol uchun: **Void print;**

```
{ Cout<<("\n Salom!"); }
```

Bu funksiya **Print**;shaklida murojlat qilish ekranga Salom! Yezilishiga olib keladi. Qiymat qaytarmaydigan funksiya formal parametrlarga ega bulishi mumkin:

Void Pint_Baho(Int baho);

{**Switch(baho)**

```
{case 2:Cout<<("\n yemon");geak; case 3:Cout<<("\n urta");geak; case 4:Cout<<("\n yaxshi");break; case 5:Cout<<("\n a'lo");break; default: Cout<<("\n baxo notugri kiritilgan"); }
```

Bu funksiya **Print_Baho(5)**shaklida murojaat qilish ekranga a'lo so'zi yezilishiga olib keladi. Agar programmada funksiya ta'rifi murojaatdan keyin

berilsa, yeki funksiya boshka faylda joylashgan bulsa, murojlatdan oldin shu funksiyaning prototipi joylashgan buligshi kerak. Prototip funksiya nomi va formal parametrlar tiplaridan iborat bo'ladi. Formal parametrlar nomlarini berish shart emas.

Misol uchun $y = \min(a,b) + 2 * \max(c,d)$ ifodani xisoblashni kuramiz:

```
#Include <iostream.h>
int max(int a,int b)
{if (a<b) return a;else return b};
void main()
{int a,b,c,d,y; int min(int ,int); Cin>>a>>b>>c>>d; y=min(a,b)+2* max(c,d);
Cout<<("\n %f",y); };
int min(int a,int b)
{if (a<b) return b;else return a};
```

Funksiyaga parametrlar uzatish. Funksiyaga parametrlar qiymat buyicha uzatiladi va quyidagi boskichlardan iborat bo'ladi:

Funksiya bajarishga tayerlanganda formal parametrlar uchun xotiradan joy ajratiladi, ya'ni formal parametrlar funksiyalarning ichki parametrlariga aylantiriladi. Agar parametr tipi float bulsa double tipidagi obyektlar xosil bo'ladi, char va shortint bulsa int tipidagi obyektlar yaratiladi.

Haqiqiy parametrlar sifatida ishlatilgan ifodalar qiymatlari xisoblanadi.

Haqiqiy parametrlar ifodalar qiymatlari formal parametrlar uchun ajratilgan xotira kismlariga yeziladi. Bu jarayenda float tipi double tipiga, char va shortint tiplari int tipiga keltiriladi.

Funksiya tanasi ichki obyektlar - parametrlar yerdamida bajariladi va qiymat chakirilgan joyga qaytariladi.

Haqiqiy parametrlar qiymatlariga funksiya xech qanday ta'sir utkazmaydi.

Funksiyadan chikishda formal parametrlar uchun ajratilgan xotira kismlari bushatiladi.

C tilida chakirilgan funksiya chakiruvchi funksiyadagi uzgaruvchi qiymatini uznartira olmaydi. U fakat uzining vaktinchalik nusxasini uzgartirishi mumkin xolos.

Qiymat buyicha chakirish kulaylik tugdiradi. Chunki funksiyalarda kamrok uzgaruvchilarni ishlatishga imkon beradi. Misol uchun shu xususiyatni aks ettiruvchi POWER funksiyasi variantini keltiramiz:

```
power(x,n) int x,n; int p;
for (p = 1; n > 0; --n)
p = p * x; return (p);
```

Argument N vaktinchalik uzgaruvchi sifatida ishlatiladi. Undan to qiymati 0 bulmaguncha bir ayriladi. N funksiya ichida uzgarishi funksiyaga murojlat kilingan boshlangich qiymatiga ta'sir kilmaydi.

Belgili axborot va satrlar

C++ da belgili ma'lumotlar uchun char turi qabul qilingan. Belgili axborotni taqdim etishda belgilar, belgili o'zgaruvchilar va satrli o'zgarmaslar qabul qilingan. Belgili o'zgaruvchilar odatda bir bayt joyni egallaydi va bu 256 xil belgini saqlash uchun yetarlidir.

Char turi qiymatlarini 0..255 sonlar to'plamiga yoki **ASCII** belgilar to'plamiga interpretasiya qilish mumkin.

C++ Programmash asoslarida o'zgaruvchilarning belgili va satr ko'rinishlarini ta'riflash uchun **char** turidan foydalanamiz. Satr o'zgaruvchilariga qiymat qabul qilishda belgilar qo'shtirnoq (" ") ichiga olib yoziladi. Ularni solishtirishda, aniqroq qilib aytganda o'rinlanganda apostrof (' ') ichiga yoziladi.

C++ da belgili ma'lumotlar uchun **char** turi qabul qilingan. Belgili axborotni taqdim etishda belgilar, simvulli o'zgaruvchi-lar va matniy konstantalar qabul qilingan.

Misollar:

```
const char c='c'; // belgi — bir baytni egallaydi, uning qiymati o'zgarmaydi.
```

```
char a,b; // belgili o'zgaruvchilar, bir baytdan joy egallaydi, qiymatlari o'zgaradi.
```

```
const char *s="\n satrining misoli";// matniy konstanta
```

C++ dagi satr - bu nol - belgi - '\0' (nol-terminator) bilan tugallanuvchi belgilar massivi. Nol-terminatorning holatiga qarab satrning amaldagi uzunligi aniqlanadi. Bunday massivdagi elementlar soni, satr tasviriga qaraganda, bittaga ko'p .

```
switch(operator)
```

```
{
case '+': cout<< "plyus"; break;
case '-': cout<< "minus"; break;
case '*': cout<< "ko'paytirish"; break;
case '/': cout<< "bo'lish"; break;
default : cout<< "noma'lum amal";
}
```

...

dastur bo'lagi qismi orqali yuqoridan fikrlarimizni isbotlash mumkin.

...

```
char S;
```

...

S='@'; Bizga ma'lumki ASCII kodidagi simvollarni kod tartib nomeriga mos belgini olish uchun char(N) funksiyasi orkali olishimiz mumkin. Bu yerda N simvolining ASCII dagi tartib nomeri. Masalan quyidagi dastur orqali kompyuterdagi mavjud hamma belgilarni ekranga chiqaramiz. Bizga ma'lumni kompyuterda 256 ta belgidan foydalanamiz

```
# include < string.h >
```

```
main()
```

```
{
for (int i=0; i<=256; i++)
cout << i << "-" << char(i) << ",_";
}
```


C++ tilida satrlar uchun alohida tur mavjud emas. O'zgaruvchilarning satr ko'rinishini ta'riflashda belgili o'zgaruvchilarni ta'riflashda foydalaniladigan **char** turidan foydalanamiz. **Masalan**, osonlik uchun quyidagi matn ko'rinishidagi o'zgaruvchilarni ta'riflashini C++ tilida yozib ko'ramiz:

```
char ch; char s10[10]; char s256[];
```

O'zgaruvchilarning bu yozilishiga keng ta'rif berib o'tirishga hojat yo'q. **Masalan, ch** o'zgaruvchisi faqat bitta belgi, **s10** o'zgaruvchisi **10 ta belgi** va **s256** o'zgaruvchisi **256 ta belgi** qabul qila oladi.

Endi belgili va satrli ko'rinishdagi o'zgaruvchilarni qatnashtirib dastur tuzishga harakat qilib ko'ramiz

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
#include <string.h>
int main()
{char ch,s1=' ', s2=' ';
char st[]="informatika";
ch = '!';
cout<<st<<ch<< endl;
st[1]=s1;
st[7]=s2;
cout<<st<<ch<< endl;
return 0;
}
```



Bundan tashkari satrli va belgili o'zgaruvchilar ustida qo'shish va solishtirish amallarini o'rinish mumkin. Masalan

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
#include <string.h>
main()
{ char s[10],s6='o',s7='t';
char s1[]="PC";
char s2[]="Ensiklopediya";
s=s6+s7;
cout <<s<<endl;
return 0;
}
```

Qiymat berish operatori yordamida satrga qiymat berish mumkin emas. Satrni massivga yoki kiritish paytida, yoki nomlantirish yordamida joylashtirish mumkin.

Misol:

```
#include <iostream.h>
```

```

#include <conio.h>
#include <string.h>
int main()
{ char s1[10]="string1";
int k=sizeof (s1); cout<<s1<<'\t'<<k<<endl;
char s2[]="string2"; k=sizeof(s2);
cout<<s2<< '\t'<<k<<endl;
char s3[]={ 's','t','r','i','n','g','3'};
k=sizeof(s3); cout<<s3<<'\t'<<k<<endl;
char *s4="string4";//s4 ko'rsatkichi, uni o'zgartirib bo'lmaydi. k=sizeof(s4);
cout<<s4<< '\t'<<k<<endl;
return 0;
}

```

Natijalar:

string1 10 - 10 bayt ajratilgan, shu jumladan **\0** ga **string2** 8 — 8 bayt ajratilgan (7+1 bayt **\0** ga) **string3** 8 - 8 bayt ajratilgan (7+1 bayt **\0** ga) **string4** 4 - ko'rsatkichning o'lchamlari

```

"C:\Documents and Settings\...Abbos\str1 2.exe"
string1 10
string2 8
string3 7
string4 7
Process returned 0 (0x0)   execution time : 0.046 s
Press any key to continue.

```

Sinov savollari

1. Paskaltilidafunksiyaqandayaniqlanadi?
2. Funksiyagamurojaatqandayamalgaoshiriladi?
3. Funksiyani tavsiflashda qanday parametrlar ishlatiladi?
4. Funksiyaning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?

Uyga vazifa : C++ tizimida function bilan mustaqil ishlash qoidalarini mukammal o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13], [14],[15],[16]

Mavzu: C++ da grafika. C++ tilining grafik tartibida ishlash asoslari.

Chizmalarni hosil qilish uchun fumksiya va proseduralar.

Reja:

1. C++ tilining grafik tartibida ishlash asoslari.
2. Chizmalarni hosil qilish uchun fumksiya va proseduralar.

Ma'ruza bayoni

C/C++ tilining grafik rejimida ishlash asoslari

Grafik paketga quyidagilar kiradi:

- *graphics.h* sarlavha fayli;
- *graphics.lib* kutubxona fayli;
- grafik qurilmalar drayveri (**.bgi*);
- (**.chr*) shriftlar.

Grafik tartibotida ekranni boshqarish funksiyalar majmuasi o'z qaliamalga oshiriladi. Ularning protiplari sarlavhalar fayli *graphics.h* da joylashgan bo'ladi.. Bu direktiva o'z garmaslar, o'zgaruvchilar va turli qism dasturlardan tashkil topgan bo'lib, ular yordamida turli grafik adapterlar bilan har xil tasvirlar chizish mumkin. Adapter kompyuterda **graphics.h** fayli bilan ishlash imkoniyatini yaratadigan maxsus qurilmadir. Grafik rejimiga o'tilganda ekran aloxida-aloxida nuqtalarga bo'linadi. Har bir nuqta o'z koordinatasiga egadir.

Eng ko'p ishlatiladigan adapterlar:

1. *CGA - color graphics Adapter*
2. *MCGA - multi color graphics array*
3. *EGA - enhanced graphics Adapter*
4. *VGA - video graphics array.*

Drayverlarni ko'rsatish uchun quyidagi uzmarmaslar ishlatiladi:

Detect= 0 CGA= 1; MCGA= 2; EGA=3; VGA=9.

Grafik tartibotida ishlash uchun *graphics.h* fayli **#include** direktivasi yordamida C++ tilining preprocessoriga barcha modullarda grafik qism dasturlardan foydalanish uchun qo'shilishi lozim: **#include <graphics.h>**.

Grafik funksiyalar bilan ishlash uchun ekranning matn rejimidan grafik rejimiga o'tish uchun maxsus proseduradan foydalaniladi: **initgraph (&gd, &gm, "path")**; bu yerda: **gd**- drayver nomi; **gm**- rejim nomi; **Path**- kerakli drayver faylining yo'li. Ko'pincha **gd=0** deb olinadi.

Drayverlar *.bgi* fayllarida saqlanadi. Agar drayver ishchi katalogning o'zida joylashgan bo'lsa, u holda **Path = " "** (bo'sh belgisi) bo'ladi. Masalan,

```
int D=DETECT,M;  
initgraph (&D,&M,"");
```

Grafik rejimidan yana matn rejimiga o'tish kerak bulsa, **closegraph()** funksiyasi ishlatiladi.

Umuman grafik tartibotida ishlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- grafik tartibotiga o'tish;
- grafik bilan ishlash;
- grafik tartibotidan chiqish

Masalan:

```
#include <stdio.h>  
#include <graphics.h>  
int main()  
{
```


```

int DRIVER=DETECT, MODE;
initgraph(&DRIVER,&MODE,"");
outtextxy(200,200,"Chiqish");
getchar();
closegraph();
}

```

Grafik funksiyalar.

Ekraning grafik holatida koordinalar sistemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Ekraning grafik tartibida $640 \times 480 \times 16$ o'lchovidanko'proqfoydalaniladi. Buyerda $640 \times$ o'qibo'yichanuqtalarsoni, 480 yo'qibo'yichanuqtalarsoni, 16 grafiktartibidaishlatiladiganranglarsoni.

graphics.h faylidastandardpaletraningranglarigamoso'zgarmaslarishlatiladi:

O'zgarmas nomi	rang	O'zgarmasning qiymati
<i>BLACK</i>	qora	0
<i>BLUE</i>	Ko'k	1
<i>GREEN</i>	Yashil	2
<i>CYAN</i>	Lojivard	3
<i>RED</i>	qizil	4
<i>MAGENTA</i>	Binafsha	5
<i>BROWN</i>	Jigarrang	6
<i>LIGHTGRAY</i>	Och kulrang	7
<i>DARKGRAY</i>	To'q kulrang	8
<i>LIGHTBLUE</i>	Och ko'k	9
<i>LIGHTGREEN</i>	Och yashil	10
<i>LIGHTCYAN</i>	Och lojivard	11

<i>LIGHTRED</i>	Och qizil	12
<i>LIGHTMAGENTA</i>	Och binafsha	13
<i>YELLOW</i>	Sariq	14
<i>WHITE</i>	Oq	15

Ekran nuqtasi

Grafik ekran bir qancha nuqta (piksel) lar majmuasidan iborat bo'lib, har nuqta o'z koordinasiga va rangiga ega bo'ladi. (x,y) koorditanali color rangli nuqta ekranda quyidagi funksiya orqali beriladi: putpixel (x, y, color); - bu yerda x,y – nuqtaning koordinasi, color-rang.

(x,y) koordinali nuqtaning rangini aniqlash uchun *getpixel (int x, int y)*; funksiya ishlatiladi.

Kontur figuralar

Tekislikdachiziqlarguruhikontur (yopiq) figuralarnihosilqiladi. Konturfiguralarsifatidato'g'richiziqbo'lagi, yoy, aylana, ellips, to'g'rito'rtburchakvahokasolarniqarashmumkin. Bufiguralarbir-biridankorinishidantashqarichiziqningrangi, turivaqalinligibilanfarqqiladi. Graf-iktartibidaavtomatikholdachiziqningrangi- *WHITE* (oq), qalinligi – birpiksel, turi – yaxlitchiziqqilibo'rnatiladi.

Chiziq rangini o'zgartirish*setcolor(color)*; funksiyasi orqali bajariladi. Figuraning boshqa parametrlari quyidagi funksiya orqali beriladi:

setlinestyle (linestyle, upattern, thickness);

bu yerdalinestyle – chiziq turi,thickness – uning qalinligi.

Chiziqning turi 5 xil bo'lishi nunkin:

qiymat	nomi	tavsifi
0	<i>SOLID_LINE</i>	yaxlit
1	<i>DOTTED_LINE</i>	punktirli
2	<i>CENTER_LINE</i>	shtrix-punktirli
3	<i>DASHED_LINE</i>	shtrixli
4	<i>USERBIT_LINE</i>	Foydalanuvchi tomonidan aniqlanadigan tur (<i>upattern</i>)

Kontur chiziqlarini parametrlari o'rnatilgandan keyin ekranda figuralarni hosil qilishga kirishamiz. Buning uchu standart grafik kutubxonasida mavjud bo'lgan funksiyalardan foydalanamiz. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat.

Funksiya nomi	Tavsiflanishi
<i>Line(x1, y1, x2,t y2)</i> ;	Ekranda(<i>x1, y1</i>)koordinatali nuqtadan (<i>x2, y2</i>) koordinali nuqttagacha to'g'ri chiziqni hosil qiladi.
<i>rectangle(x1, y1, x2,y2)</i> ;	Ekranda gorizontal (vertikal) joylashgan to'ri to'rtburchakni hosil qiladi, bu yerda yukori chap nuqtaning

	koordinatalari (x_1, y_1), o'ng pastki nuqtaning koordinatalari (x_2, y_2) hisoblanadi.
<i>circle</i> (x, y, R ;	markazi (x, y) nuqtada va radiusi R ga teng bo'lgan aylana chizadi (o'lchov birligi piksel)
<i>arc</i> (x, y, a, b, r)	markazi (x, y) nuqtada va radiusi r ga teng bo'lgan yoy chizadi, bu yerda x va y - markazning koordinatalari, a - bosh burchak, b - oxirigi burchak, r - yoy radiusi. Burchaklar gradusda qabul qilinadi va u soat strelkasiga teskari tartibda hisobga olinadi. Agar $a=0$, $b=360$ bo'lsa to'liq aylana hosil bo'ladi.
<i>ellipse</i> (x, y, a, b, xr, yr)	xuddi shu tartibda ellips yoyini chizadi.
<i>drawpoly</i> (n, p)	ko'pburchak hosil qiladi.. Bu yerda n – ko'pburchakning uchlari soni; p - ko'pburchak uchlarning koordinatalari.

Tekis figuralar

Tekis figuralar ekran tekisligining yopiq kontur bilan chegaralangan qimidan iborat bo'ladi.

Tekis figuralarni kontur hosil qiluvchi ichki sohasini yoki yopiq chiziqlar tashqarisini bo'yash orqali yasash mumkin. Bunday chiziqlar uzluksiz bo'lish shart.

Bu amal quyidagi funksiya yordamida bajariladi:

floodfill($x, y, border$);

Bu yerda x, y – kontur ichida yoki tashqarisida joylashgan nuqta koordinatasi, *border* – kontur hosil qiluvchi chiziq rangi. Bunda to'liq konturning rangi bir xil bo'lishi lozim. Bo'yash *color* rang bilan va *pattern* shabloni bo'yicha quyidagicha bajariladi: *setfillstyle* (*pattern, color*);

Tekis figuralarni hosil qilish eng ko'p ishlatiladigan figuralar quyidagilar hisoblanadi:

Funksiya nomi	tavsiflanish
<i>bar</i> (x_1, y_1, x_2, y_2)	joriy rang va chiziqlar yordamida ichi bo'yalgan to'g'ri to'rtburchak chizadi, bu yerda yuqori chap nuqtaning koordinatalari (x_1, y_1), o'ng pastki nuqtaning koordinatalari (x_2, y_2) hisoblanadi.
<i>fillellipse</i> (x, y, xr, yr)	joriy rang va chiziqlar yordamida markazi (x, y) nuqtada mos ravishda gorizontaal va vertikal o'qlari xr va yr (xr - kenglik, yr - balandlik) ga teng bo'lgan ichi bo'yalgan rangli ellips chizadi.
<i>fillpoly</i> (n, XY);	yopiq konturdan iborat ko'pburchakni chizadi va uni bo'yaydi, bu yerda n – burchaklar soni, XY – ko'pburchak burchaklarning koordinatalari.

<i>pieslice(x, y, a, b, r)</i>	markazi (x, y) nuqtada va radiusi R ga teng bo'lgan sektor chizadi va uni bo'yaydi, bu yerda x va y - markazning koordinatalari, a - bosh burchak, b - oxirigi burchak, r - yoy radiusi. Burchaklar gradusda qabul qilinadi va u soat strelkasiga teskari tartibda hisobga olinadi
--------------------------------	--

Chizmalarni xosil qilish uchun ishlatiladigan prosedura va funksiyalar

1. **putpixel (x, y, color)**- x va y koordinatadagi nuktani color rangda chizish;
2. **getpixel (x, y)**- x va y koordinatadagi nuqtaning rangini aniklaydi;
3. **line (x1, y1, x2, y2)**- $x1$ va $y1$ koordinatadagi nuqtadan $x2$ va $y2$ koordinatadagi nuktagacha kesma chizish;
4. **circle (x, y, r)**- markazi x va y koordinatada va radiusi R bulgan aylana chizish;
5. **rectangle (x1, y1, x2, y2)** - yukori chap nuktasi $x1$ va $y1$ koordinatada, ung pastki nuktasi $x2$ va $y2$ koordinatada bulgan tugriturtburchakni chizish;
6. **setbkcolor (color)**- orka fonga rang berish;
7. **setcolor (color)**- chizish rangini urnatish (rangli kalam); Bu yerda color - rang nomeri yoki nomi. Agar rang nomi yoziladigan bulsa, uni katta xarflarda yoziladi.
8. **bar (x1, y1, x2, y2)**- joriy rang va chiziklar yordamida ichi buyalgan tugriturtburchak chizish;
9. **fillellipse (x, y, xr, yr)**- markazi x va y da, xr kenglikda va yr balandlikda ichi buyalgan rangli ellips chizadi;
10. **getmaxx** - joriy rejim va drayverlar uchun nuqtalar sonini aniklash; **getmaxy** - joriy rejim va drayverlar uchun vertikal nuqtalar soni. Bu prosedura yordamida kompyuterning uzi ekrandagi maksimal nuqtalar sonini aniklaydi.
11. **linerel (x, y)**- x va y koordinatali nuqtadan joriy nuktagacha kesma chizish;
12. **lineto (x, y)**- joriy nuqtadan x va y koordinatali nuktagacha kesma chizish;
13. **bar3D (x1, y1, x2, y2, h, top)**- parallelopiped chizadi. Bu yerda h - parallelopipedning uzunligi; top - yukori kismini chizish uchun kerak. Agar topon - bulsa tomi bor, agar topoff - bulsa tomi yuk.
14. **arc (x, y, a, b, r)**- yoy chizish uchun. Bu yerda x va y - markazning koordinatalari, a - bosh burchak, b - oxirigi burchak, r - yoy radiusi. Burchaklar gradusda kabul kilinadi.
15. **ellipse (x, y, a, b, xr, yr)**- xuddi shu tartibda ellips yoyini chizadi.
16. **drawpoly (n, p)**- kupburchak chizish uchun. Bu yerda n - kupburchakning uchlari soni; p -. Ko'pburchak uchlarining koordinatalari.

Sinov savollari.

1. C/C++ tilidagrafikrejimidaishlashuchunkandaydirektivalarkerakbo'ladi?
2. Ko'pishlatiladiganadapterlarxakidama'lumotbering.
3. Drayver nima va uning vazifasi
4. Oddiy chizmalarni xosil kilish uchun kaynday funksiya va proseduralar mavjud?
5. Nuqta, to'g'ri chiziq, aylana, to'g'ri to'rtburchak, ichi bo'yalgan to'rtburchak, ellips, yoy, parallelopiped va shu kabilarni chizish strukturalari

Uyga vazifa : C++ tizimidagrafik ma'lumotlar va ularning funktsiya-proceduralari bilan ishlash qoidalarini mukammal o'rganing, ularni amaloyotga tatbiq etishga doir misollar keltiring.

Adabiyotlar

[6],[7],[8],[9],[10],[11],[13],[14],[15],[16]

Mavzu: Bo'yash, chizish usullari va stillari. Grafik tartibda shriftlar. Dinamik xotira. Chizmalarni harakatlantirish.

Reja:

1. Bo'yash, chizish usullari va stillari.
2. Dinamik xotira.
 2. Chizmalarni harakatlantirish.

Ma'ruza bayoni

Buyash va chizish usullari hamda stillari haqida

1. **setfillstyle (style, color)**- buyash usul va rangni urnatish. Bu yerda **style**- uzgarmas kattalik bulib, u quyidagicha bulishi mumkin: 0 - soxani fon rangi bilan tuldirish; 1- soxani rang bilan uzluksiz tuldirish;

2 - kalik gorizontal chiziklar

3 - ingichka ogma chiziklar

4 - yugon ogma chiziklar

5 - yugon ogma chiziklar (boshka stil)

6 - ogma yullar

7 - turtburchakli chiziklar

8 - ogma turtburchaklar

9 - zich ogma shrtixlar

10 - siyrak nuktalar (u yer - bu yerda)

11 - zich nuktalar bilan

2. **floodfill (x, y, color)**- joriy rang va usuldan foydalangan xolda chegaralangan soxani buyash. Bu yerda x va y - shu soxaga tegishli bulgan biror nuqta koordinatasi. Avval rang, keyin stili ko'rsatiladi. Masalan:

setcolor (4); {kizil rangli kalam, chegara rangi} **setfillstyle (1, 2);** {1-stil

bilan yashil rang bilan buyash} **circle (50, 50, 35);** {radiusi 35 bulgan aylana

chizish} **floodfill (50, 50, 4);** {aylana ichiga rang tukish, buyaladigan chegara rangi rangli kalam bilan bir xil bulishi kerak}

3. **setlinestyle (s, a, b)**- turli stildagi chiziklarni chizish uchun; Bu yerda s- **style** nomeri; a -foydalanuvchi stilini yaratishi mumkin bulgan parametr, odatda a=1 deb olinadi; b- chizikning kalinligini ko'rsatadigan parametr

0 - oddiy chizik;

1 - mayda punktir chizik;

2 - kalin va uzunchok punktir chizik

3 - yupka va uzunchok punktir chizik;

4 - siyrak nuktali chizik.

1- Misol:

```
# include <graphics.h>
```

```
# include <conio.h> void main ( )
```

```

{ int i, j, gd, gm ;
gd= 0;
initgraph (&gd, &gm, " ");
setcolor (14); // sarik kalam
for ( i=0; i<=20; i++) for ( j=0; j<=20; j++)
circle (i*50, j*30, 55); // sarik rangli aylanalar
rectangle (0, 0, getmaxx, getmaxy); //ekran buylab tugri turtburchak setcolor
(11); // tuk feruza rangli kalam
bar3d(200, 300, 100, 150, 30, topon); // parallelopiped, ichi ok setcolor
(CYAN); // och feruza rangli kalam
fillellipse (350, 360, 135, 90); //ellips, ichi ok rangda
getch( ); closegraph( ); }

```

Grafik rejimida shriftlar

Grafik rejimi xolatida turli shriftlardan foydalanib matnlarni xam yozsa bo'ladi. Shriftlar **.chr**kengaytmali fayllarda saklanadi. Ular **.bgi** fayllari bilan bitta katalogda saklanishi shart.

1. **outtextxy (x, y, 'matn');**- matnni yozish; bu yerda x va y matn boshlanadigan nuqta koordinatalari; masalan: **outtextxy (10, 10, 'Mirzaev K. 212-07 Aty');**
2. **settextstyle (sh, n, r);**mant shriftini urnatish; bu yerda sh - shrift nomeri (0 - vektorli shrift, 1 - standart shrift); n - shrift yunalishi (0 - chapdan unggga, 1 - quyidan yukoriga yozish); r - shrift razmeri (oddiy shriftda 1, vektorli shriftda 4 deb olinadi);
3. **settextjustify (h, v)-** yozilgan katorni tekislaydi. U outtextxy prosedurasidan keyin yoziladi. Bu yerda h - gorizont tekislash; v - vertikal tekislash; Gorizont tekislash uchun: 0 - chapga; 1- markazga; 2 - unggga. Vertikal tekislash uchun: 0 - pastga; 1 - markazga; 2 - yukoriga.
4. **setusercharsize** - vektor shriftlari uchun bir xil belgilarning eni va buyini urnatadi. Masalan: **setUserCharSize(x1, y1, x2, y2);**

2-misol. Funksiyalarning grafiklarini chizish.

```

# include <graphics.h>
# include <conio.h>
# include <math.h> void main ( )
{ int i, j, gd, gm ; float x, y;
gd=0; initgraph (&gd, &gm, " ");
setcolor (14);
line (320, 0, 320, 480);
line (0, 240, 640, 240);
line (480, 0, 480, 235);
line (325, 120, 635, 120);
line (160, 245, 160, 475);
line (0, 360, 315, 360);
line (480, 245, 480, 475);
line (325, 360, 635, 360);
